ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

3-son
(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TAHRIRIYAT
	4	Yangilangan konstitutsiya – chinakam xalq konstitutsiyasi – O‘zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat
		TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
K. Suyarov	7	Zamonaviy ta’limda o‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetetligini shakllantirish muammolari (ilmiy ishlar sharhi)
S. Mirzayev	11	Bo‘lajak o‘qituvchilarda kongruentlik sifatlarini shakllantirishning ilmiy ahamiyati
O. Muxidova	14	Oliy ta’lim muassasalarida transversal kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari
F. Nuradinov	17	Bo‘lajak o‘qituvchilarni kvalimetrik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari
D. Mavlonova	22	Tanqidiy fikrlash qobiliyatining maktab o‘quvchilari uchun ahamiyati
A. Kungiratov	26	Talabalarda iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishning ahamiyatli jihatlari
G. Muminova	29	Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatni takomillashtirishda akmeologik modellashtirishning ahamiyati
		TA’LIM VA TARBIYA METODIKASI
D. Xo‘jamberdiyeva	33	O‘quvchilarda axborot bilah ishlash kompetentligini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari (“Informatika” fanini o‘qitish misolida)
T. Sulaymonova	39	1-sinfda “tarbiya” fanini o‘qitishda xalq og‘zaki ijodi manbalaridan foydalanish
O. Yadgarova	45	Irodaviy xususiyatlarni mustahkamlashda autotrening mashg‘ulotlaridan foydalanish afzalliklari
M. Kenjayeva	50	Ona tili fanini o‘qitishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim texnologiyalardan foydalanish
		TA’LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT
D. Karimova, N. Bostanova	55	Ta’lim sifatini oshirishda intellektual salohiyatning o‘rni va ahamiyati
		ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
N. Imankulov	60	Ta’lim tizimida ‘‘STEAM’’ texnologiyasidan foydalanish asoslari
R. Umarova	64	Ta’limni axborotlashtirish sharoitida o‘quvchilar intellektual salohiyatini rivojlantirishning metodologik asoslari
T. Haqqulov	67	Tarbiyaviy ishlarda artpedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari
R. Tuxtasheva	70	Oliy ta’lim muassasalarida masofali o‘qitishning shakillari va imkoniyatlari
		TA’LIMDA MARKETING
G. Radjabova	75	Ta’lim tizimi va ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT

F. Homidjonova	81	15 yoshli kurashchi qizlarning kuch, jismoniy sifat ko‘rsatgichlarini aniqlab olish metodikasi
Sh. Ro‘ziyev	84	Oliy ta’lim muassasalarida voleybol to‘garaklarini tashkil etishning ahamiyati
		MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH
M. Abdullayeva	87	O‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish – qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish dolzarb masala
		MA’DANIYAT, SAN'AT VA MUSIQA TA’LIMI
A. Bahriyev	90	Janr xususiyatlari negizida o‘quvchilarning musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish
		MAKTABGACHA TA’LIM
G. Nazirova	95	Maktabgacha ta’lim taskilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etishda rivojlantiruvchi markazlarning maqsadi va vazifalari
M. Arslanova	101	Inklyuziv maktabgacha ta’limni amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik tamoyillari
Z. Mo‘minova	105	Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda gender yondashuv
		ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK
Sh. Bo‘ronov	108	Ta’lim muassasalarida ekologik ta’lim va tarbiyaning vazifalari
		ILM, MA’RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
F. Eshdavlatov	112	O‘quvchilarni it-sohasidagi kasblarga yo‘naltirishning pedagogik asoslari
		PSIXOLOGIYA
M. To‘xtayeva	115	Bo‘lajak pedagog-psixologlarning nutq madaniyatini rivojlantirishning o‘ziga xosligi
		KORREKSION PEDAGOGIKA
L. Xayitov, L. Yuldasheva	120	Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning eshitish idrokini rivojlantirishning samarali usullari
		XALQ PEDAGOGIKASI
Sh. Hamroyev	125	Qori Nizomiddin bin Mullo Husaynning “ilmi axloq” asarini tarbiyaviy imkoniyatlari
		ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
Г. Абылова	129	Цифровое образование как условие теоретической и практической подготовки студентов педагогических вузов
		СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ
Р. Абдуллаева	132	Обучающие компьютерные программы как средство обучения языку специальности
		КУЛЬТУРА, ИСКУССТВО И МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ
Н. Режаметова	137	Формирование музыкальной этнокультуры дошкольнков в системе непрерывного образования
		ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ
Д. Садикова, Д. Туракулова	140	Digital – компетенции педагогов в дошкольных образовательных организациях

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA – CHINAKAM XALQ KONSTITUTSIYASI – O‘ZBEKISTON – HUQUQIY, IJTIMOIY VA DUNYOVIY DAVLAT

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, farovon jamiyat barpo etishni orzu qilgan, inson qadri aziz bo‘lgan adolatli davlat qurishni o‘z oldiga maqsad qilgan har qanday xalq davlat va huquq taraqqiyotining mashaqqatli va sharafli yo‘lini bosib o‘tganiga guvoh bo‘lamiz.

Davlat va jamiyatda tub o‘zgarishlar ro‘y berayotgan bir paytda tabiiy ravishda Konstitutsiyaga jiddiy o‘zgartirishlar kiritishni taqozo etdi. Har qanday demokratik islohotlar chin ma’noda xalqchil konstitutsiyaviy asosga ega bo‘lsagina, yanada bardavom bo‘ladi, ko‘zlangan ezgu maqsadlarga erishadi.

Tahlillar ko‘rsatdiki, aholimiz “Mening Konstitutsiyam mening haq-huquqimni himoya qilsin, farovon kelajak sari intilishimga huquqiy jihatdan yo‘l ochsin”, dedi. Yangi Konstitutsiyani tayyorlashda amaldagi Konstitutsiyada bizga nima to‘g‘ri kelmaydi, undan nimani saqlab qolish lozim va qanday yangi o‘zgartirish kiritish kerak, u xalqimizni huquq va erkinliklarini nechog‘li ta’minlab beradi, yoshlarimizning talab-ehtiyojlari, qolaversa, kelajakdan umidlari qanday, degan qator dolzarb savollarga javob berishi to‘liq ta’minlandi.

Davlatimiz rahbari aytganidek, yangilangan Konstitutsiyamiz “Xalq – qonunlar–ning yagona manbai va muallifidir” hamda “Barcha muhim qarorlar bevosita xalq bilan muloqot asosida va jamoatchilik fikrini hisobga olgan holda qabul qilinadi”, degan tamoyillarga asoslangan holda ishlab chiqildi.

Bugun yangi O‘zbekiston demokratik prinsiplar, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan prinsip va normalarga asoslangan, bosh maqsadi xalq uchun erkin, obod hamda farovon hayot yaratib berishdan iborat bo‘lgan davlatga aylandi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi ko‘rsatadiki, konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida keng jamoatchilik ishtiroki katta ahamiyatga ega. Yangilangan Konstitutsiyamiz BMT, YeXHT, ShHT, YeI, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida qabul qilingan 400 dan ortiq konvensiya, deklaratsiya, rezolyusiya hamda konstitutsiyaviy rivojlanish borasidagi xalqaro tajriba o‘rganib chiqildi, 193 ta mamlakat Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy islohotlari tizimli ravishda tahlil etildi. Kons–titutsiyaviy islohotlar jarayonida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda qayd etilgan tavsiyalar, YeXHTning, jumladan, Yangi yevropa uchun Parij xartiyasi, Asosiy huquqlar bo‘yicha yevropa It-tifoqi xartiyasi va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida jamiyatning barcha qatlamlari vakillarini davlat va jamiyat boshqaruvi jarayonlariga jalb etish bo‘yicha qabul qilingan xalqaro va mintaqaviy huquqiy hujjatlar alohida hisobga olindi.

2023-yilning 30-aprel sanasi mamlakatimiz buguni va tarixida unutilmas kun bo‘lib muhrlandi. Chunki shu kuni bizning haq-huquqimizni himoya qilib, kelajagimizning yanada farovon bo‘lishini, inson huquqlarining doimiy ustuvorligini qonun doirasida ta’minlanishini, farzandlarimizning bundan-da barkamol o‘sishini, qolaversa, vatani-mizning tinch-totuv bo‘lishini o‘zining adolatli bandlarida kafolatlagan fahr va iftiho–

rimiz, baralla ovozimiz bo‘lmish Bosh qomusimizning yangilangan tahriri bo‘lib o‘tgan referendumda mamlakatimiz fuqarolari, ya’ni xalqimiz tomonidan ovoz berish orqali o‘z tasdiqini topdi va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 1 may sanasidan e'tiboran kuchga kirdi. Bo‘lib o‘tgan referendum natijalari shuni ko‘rsatadiki, 11 ta moddadan iborat tegishli qonun qabul qilindi va ushbu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilindi.

Aytish joiz, 1992-yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o‘zgartirishlar kiritilgan edi. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘lami kattaligi va e'tiborga olingan har bir bandning oqilona uylanganligi hujjatning yangi tahririning ko‘tarinki ruhda qabul qilinishiga sabab bo‘ldi. Yangi tahrir natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Bu esa shu kunga qadar amaldagi qomusimizning 65 foizga yangilanganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat

Tahrirdan oldingi konstitutsiyaning 1-moddasida keltirilgan “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika” jumlasi yuqoridagi kabi, ya’ni “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” deb o‘zgartirildi.

Ta’kidlash kerak, yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 1-moddasi bilan 154-moddasiga qoidalarni qayta ko‘rib chiqish mumkin emas, deb belgilandi. Jumladan, 154-moddada O‘zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligi, monarxiyaga yoki islomiy respublikaga aylanmasligini nazarda tutadi.

O‘zbekistonning yangi tahrirdagi konstitutsiyasida Davlat boshqaruvidagi o‘zgarishlari ham e'tiborga molik. Unga ko‘ra, Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. Va shuningdek, prezidentning “davlat boshlig‘i” maqomi, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq prezident bo‘lishi mumkin emasligi, prezidentning qasamyodi matni va prezidentga taalluqli boshqa aksariyat normalar o‘zgarishsiz qoldirildi. Ma’lumot uchun aytib o‘tish kerak, prezidentning vakolat muddati 2003-yilda ham 5 yildan 7 yilga uzaytirilgan edi va 2011-yilga kelib esa yana 7 yildan 5 yilga tushirilgan edi.

Endilikda, bosh vazir nomzodini ham prezident taqdim etadi. Prezident bosh vazir nomzodini taqdim etishdan oldin parlamentga kirgan barcha partiyalarning fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o‘tkazishi belgilandi. Qonunchilik palatasi esa prezident taqdim etgan nomzodni ko‘rib chiqadi, agar deputatlarning yarmidan ko‘pi ma’qullasa, bosh vazir lavozimga tasdiqlanadi. Agar deputatlar nomzodni uch marta rad etsa, prezident bosh vazirni tayinlab, Qonunchilik palatasini tarqatib yuborishga haqli. Avvalgi tartibga ko‘ra, bosh vazir nomzodini Qonunchilik palatasida eng ko‘p o‘rinni egallagan partiya taklif qilar, prezident ma’qullaganidan so‘nggina nomzod ikki palata tomonidan tasdiqlanishi talab etilar edi.

Qaysiki makonning ustozlari ulug‘lansa, ma’rifatli kishilari bisyor, yosh avlodlari bilimli, bugungi kuni zafaron, o‘tmishi qadrli, boy tarixi doimiy tillarda yangrab, bitiklarda yozilgay, kelajagi esa bugungidan-da ziyoli bo‘lgay.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyada qo‘shilgan yangi modda aynan o‘qituvchilar haqida bo‘lib, bu esa nafaqat mamlakatimiz ustozlarining g‘urur va iftihorini, balki biz uchun ham alohida e'tiborga molik, desak mubolag‘a bo‘lmas. Binobarin, farzanlarimiz ta’limi, kerak bo‘lsa, tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan soha vakillarining qadri va sha’ni bizning ham g‘ururimizdir. Va shuningdek, ushbu band bugungi kunda ta’lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlarning yanada jadallashuvi va natijalari bugungidan ham ijobiy bo‘liishini anglatadi. Ushbu modda ikki banddan iborat bo‘lib, bular:

– O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.

– Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

E'tiborlisi shuki, o‘qituvchilar huquq sohasi vakili bo‘lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi.

So‘z erkinligi bor joyda adolat bo‘ladi, insonning sha’ni ulug‘lanadi, huqiqi hurmat topadi. Ona yurt tinchligi yo‘lida adolatli qalami bilan qalqon bo‘ladigan, ayrim loqayd amaldorlar tili bilan emas, balki o‘zi va adolatpesh xalq tili bilan vatan ravnaqiga munosib xissa qo‘shayotgan, oddiy xalqning dardini o‘z dardi, deb biladigan jurnalistlar, ya’ni OAV hodimlari faoliyatiga to‘sqinlik qilish bundan buyon qonuniy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Tahrirdan oldingi konstitutsiyaning “Ommaviy axborot vositalari” nomli bobi bitta moddadan iborat edi. Unda: “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi”, deyilgan bo‘lsa, bosh qomusimizning yangi tahririga ko‘ra, bu bob ikkita moddadan iborat bo‘ldi:

– Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir.

– Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Ta’kidlash kerak, OAV faoliyatiga to‘sqinlik uchun javobgarlik konstitutsiya darajasida belgilandi.

Konstitutsiya to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi – bu fuqaroning nafaqat qonunlarga, balki konstitutsion haq-huquqidan kelib chiqib, o‘z huqularidan foydalangan holda ishlarini hal etishlari va muammolarini bartaraf eta olishlari uchun bemalol sudga murojaat qilishlariga imkon beradi. Shu o‘rinda keltirib o‘tish joiz, tahrirdagi konstitutsiyaning 15-moddasiga quyidagi qo‘shimcha jumlalar qo‘shildi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

Shuningdek, yangi konstitutsiyaning 19-moddasi (avvalgi 18-modda)da fuqarolarning jinsi, millati, mavqyeyi va hokazolardan qat'iy nazar qonun oldida tengligi haqida bo‘lib (“Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.”), ushbu moddaning 2-qismi quyidagicha o‘zgartirildi:

·Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.

Bu shuni ko‘rsatadiki, konstitutsiyaning ushbu bandi qog‘ozdagina emas, balki amalda ishlaydi va nazoratga olinishi tarafdorimiz.

Aziz mushtariylar! Biz yuqorida Siz bilan yangi tahrirdagi bosh qomusimizning ayrim bandlari ustida to‘xtalib o‘tdik va kelgusida ham ushbu mavsuga yana qaytishni joiz, deb topdik. Endigi asosiy vazifamiz Bosh qomusimizning asosi qonun hamda qonunosti ishlashini nazorat qilishdan iborat.

Kusharbay SUYAROV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

ZAMONAVIY TA'LIMDA O'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI (ILMIY ISHLAR SHARHI)

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilarda o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining qiyosiy tahlili qarab chiqilgan. Shuningdek, maqolada tadqiqotchilik kompetensiyalarining tarkibi va o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari keltirilgan.

Kalit so'zlar. O'quv tadqiqot faoliyati, o'quv tadqiqot ishi, tadqiqotchilik ko'nikmalari, tadqiqotchilik kompetensiyalari, tadqiqotchilik faoliyatini olib kirishning didaktik shart-sharoitlar.

В статье проводится сравнительный анализ научно-исследовательских работ по организации учебно-исследовательской деятельности среди школьников. В статье также представлен состав исследовательских компетенций и педагогические условия организации учебно-исследовательской деятельности.

Ключевые слова. Учебно-исследовательская деятельность, учебно-исследовательская работа, исследовательские умения, исследовательские компетенции, дидактические условия организации исследовательской деятельности.

The article provides a comparative analysis of research papers on the organization of educational and research activities among schoolchildren. The article also presents the composition of research competencies and pedagogical conditions for the organization of teaching and research activities.

Key words. Learning and research activities, learning and research work, research skills, research competencies, didactic conditions for organizing research activities.

Bugungi kunda jahon tajribasida zamonaviy ta'limning rivojlanishi, ilmiy bilish va uning paradigmalari o'zgarishi sharoitida aniq fanlar, jumladan, fizika fani shaxsning intellektual salohiyatini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'p omilli fenomen sifatida qaralmoqda. Zamonaviy fizik tadqiqot ishlarida hisoblash matematikasi usullari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi, fanlararo ilmiy izlanishlar, fizik eksperimental bazaning murakkablashuvi, fizik tadqiqot ishlarining globallashuvi kabi dolzarb fundamental muammolarda o'zaro hamkorlikda ishlaydigan zamonaviy kompetentli tadqiqotchilarni tayyorlashni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimni takomillashtirish to'g'risida" Prezident Farmoni hamda "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarorida ta'kidlangan muhim ustivor vazifalarni amalga oshirish yo'lida mamlakatimiz pedagog olimlar hamda tajribali o'qituvchilarimiz rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanilib kelayotgan ta'lim texnologiyalarini o'rganib, xalqimizning tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan pedagogik an'analar va zamon talabidan kelib chiqqan holda respublikamizda ta'limning zamona-

viy texnologiyalarini tizimlashtirish asosida amaliy izlanishlar olib bormoqda. Xususan, fizika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, o‘qitishning an’anaviy va zamonaviy usullarini (STEM yondashuv asosida) integratsiyalash, shaxsning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga imkon beruvchi axborot-ta’lim muhitini shakllantirishning muhim omili sifatida ta’lim oluvchilarda izlanish faolligi, ijodkorligi, tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan fizik eksperimentlarni tayyorlash, tashkil etish va o‘tkazish zamonaviy didaktik vositalar, shakl va metodlarni takomillashtirish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda jamiyatimizda olib borilayotgan islohotlarda mutaxassislardan nafaqat bilim, balki ulardan tadqiqotchilik va izlanuvchanlik qobiliyatiga ega bo‘lishni taqozo etmoqda. “O‘quv-tadqiqot faoliyati”, “o‘quv-tadqiqot ishi”, “tadqiqotchilik qobiliyati” terminlari o‘quv pedagogik adabiyotlarda va pedagogik ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘p ishlatiladi. Ammo “o‘quv-tadqiqot faoliyati”, “o‘quv-tadqiqot ishi” va “tadqiqotchilik” terminlari turli adabiyotlarida turlicha talqin etilgan. O‘zbek tili izohli lug‘atida tadqiqotchilik tadqiqot ishi bilan mashg‘ul bo‘lgan ishlar, deb tavsiflangan. B.G. Mesheryakov, V.P. Zinchenkolarning “Большой психологический словарь” kitobida tadqiqotchilik faoliyati insonning bilish faoliyati turlaridan biridir, deb tavsiflangan. A.V. Leontovich o‘quvchilarni o‘quv faoliyatga tayyorlash – bu ularni mustaqil faoliyatga, bevosita kuzatishga va o‘quv-tadqiqotchilik ishlariga jalb etish metodi, deb tavsiflaydi. Umumta’lim sohasida ‘‘o‘quv-tadqiqot ishi’’ so‘zining ma’nosi o‘quv tavsifidagi faoliyat ishi mazmunida talqin qilinadi. Ilmiy-tadqiqot ishida bu faoliyat yangi bir natija bilan yakunlansa, o‘quv-tadqiqotda o‘quvchi shaxsining intellektual qobiliyatlarining rivojlanishi bosh maqsad qilinadi.

N.G. Alekseyev, A.V. Leontovich, A.S. Obuxov, L.F. Fominalar tomonidan ishlab chiqilgan “O‘quvchilarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasi” bugungi kunda Rossiya ta’lim tizimiga joriy keng etilganligini bir qator ilmiy-metodik va ilmiy tadqiqot ishlarda ko‘rish mumkin, jumladan, A.S. Obuxov, A.V. Leontovich, A.I. Savenkov, M.I. Starovnikov, Y.A. Pashkevich, T.V. Avgustmonova, O.G. Prokozova, V.Y. Gruk va boshqalar.

A.V. Leontovich o‘quvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik faoliyati quyidagi bosqichlar orqali amalga oshirishni nazarda tutgan. Bular: o‘qituvchi tomonidan o‘z o‘quv fani bo‘yicha olib borishi mumkin bo‘lgan o‘quv-tadqiqot ishining yo‘nalishini aniqlashtirish; o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etish bo‘yicha nazariy kurs dasturi va rejasini ishlab chiqish; mavzularni tanlash, o‘quv tadqiqot maqsadini aniqlashtirish; o‘quv-tadqiqot metodini tanlash va uni o‘zlashtirish; mavzuga oid ma’lumotlarni yig‘ish; olingan natijalarni tahlil va xulosa qilish; o‘quv-tadqiqot ishi natijalarini taqdimot qilish.

A.S. Obuxovning fikricha, tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish jarayonida o‘quvchi o‘zida tadqiqotchilik sifatini namoyon qiladi. Tadqiqotchilik sifati, muhim shaxsiy sifat bo‘lib, kishi unga asoslanib, atrof olamda kechayotgan o‘zgarishlarga nafaqat faol munosabat bildiradi, shuningdek, unga oldin tushunarsiz noma’lum narsalarni bilish va qidirib topishga ehtiyojni shakllantiradi.

A.I. Savenkov o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish jarayoni orqali o‘quvchi tadqiqot izlanishi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga quyidagi bosqichlar orqali erishishini nazarda tutgan: muammoni qo‘yish, gipotezani ilgari surish; eksperimentni o‘tkazish; to‘plangan ma’lumotlarni birlashtirish; o‘quvchining ijodiy fikrlari va xulosalari; ma’ruza matnini tayyorlash; o‘z xulosalarini himoya qilish. O‘quvchilarni o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatiga olib kirish ularda tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirilishiga imkon beradi.

M.I. Starovnikov o‘quv-tadqiqot faoliyatining ta’limga beradigan natijalarini quyidagilarda ko‘radi: ilmiy bilish metodini amalda qo‘llash orqali o‘quvchida ilmiy dunyoqarashning shakllanishi; bilishga bo‘lgan qiziqishning rivojlanishi; muammoni ko‘ra bilish va gipotezani ilgari surish ko‘nikmasi; muammoni hal qilish jarayonida jamoa bilan birgalikda ishlash ko‘nikmasining shakllanishi.

Y.A. Pashkevich o‘quv-tadqiqotchilik faoliyati jarayonida o‘quvchida tayanch kompetensiyalar shakllanishini ta’kidlaydi. Bular: umummadaniy kompetensiya; o‘quv-anglash kompetensiyasi; axborot olish kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy-mehnat kompetensiyasi va o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi.

T.V. Avgusmanovaning tadqiqot ishida innovatsion ta’lim muassasalarining yuqori sinf o‘quvchilarida o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik sharoitlari o‘rganilgan. Tadqiqotchi o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etishning pedagogik sharoitlarni quyidagilarda ko‘radi: ta’lim muassasalarida o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini tizimli tashkil etish; o‘quvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini baholash va o‘rganish; ijodiy pedagogik jamoasining tuzilishi hamda o‘quvchilarda bu faoliyatning rivojlanishini pedagoglar tomonidan kuzatib borilishi.

O.G. Prokozovaning tadqiqot ishida umumta’lim maktablarida o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslarini ishlab chiqish muammolariga bag‘ishlangan. Tadqiqot ishida umumta’lim maktablarida ta’lim jarayonida o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishning shakl va mazmunining optimal tanlanishi, o‘quvchilarda fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga erishish mumkinligi ko‘rsatib berilgan.

V.Y. Grukning tadqiqot ishida maktab o‘quv eksperimentini o‘tkazish orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarini (axborotli, kommunikativ, o‘quv – anglash) shakllantirish yo‘llari, laboratoriya ishlarini tahlil etishda kompyuterdan foydalanish g‘oyasini ilgari surgan.

Yuqorida tadqiqotchilik faoliyatiga oid keltirilgan tavsiflarni umumlashtirib, quyidagi xulosa chiqarish mumkin: tadqiqotchilik – inson uchun sifat jihatdan yangi va takrorlanmas hamda o‘ziga xosligi bilan alohida ajralib turadigan faoliyat turi hisoblanadi. Psixolog va pedagog olimlarning fikrlarini umumlashtirib, biz tadqiqotchilik ko‘nikmalarini quyidagicha ta’rifladik. Tadqiqotchilik ko‘nikmalari deyilganda, ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalangan holda, ijodiy faoliyatni samarali amalga oshirishni tushunmoq lozim. Tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish faoliyatning barcha bosqichlarida turli fanlardan olgan bilimlardan ongli ravishda integrativ foydalanish asosida amalga oshiriladi.

Mustaqil davlarlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari tomonidan o‘quvchilarni tadqiqotchilik foaliyatini keng spektrda tadqiqot ishlari olib borilgan, ya’ni V.G. Razumovskiy o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni o‘stirish, A.V. Usova o‘qitish jarayonida o‘quvchida ilmiy tushunchalarning shakllanishi, Ye.Ye. Chudina amaliy ko‘nikmalarni o‘quv-tadqiqot loyihalari bilan shakllantirish, N.F. Talizina aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish, A.V. Xutorskiy kreativ o‘qitish texnologiyasi, A.M. Matyushkin ijodiy tadqiqotchilik faoliyatining ta’limdagi ahamiyati, A.N. Poddyakov o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning metodologik asoslari, Ye.Y. Kravsovaning tadqiqot ishida o‘quvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik faoliyati, shaxsning o‘zligini namoyon qilish, zamonaviy anglash usullari bilan tanishish kabi masalalar o‘rganilgan.

Ammo respublikamiz olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘quvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan muommolar yetarlicha o‘rganilmagan. Bugun ko‘plab davlatlar ta’lim tizimida “bilim, malaka, ko‘nikma”ga asoslangan

o‘qitish modelidan kompetentli model (kompetensiyalar)ga o‘tilgan. Jumladan, ta’limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilayotgan bir paytda, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi sharoitida o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish borasidagi A. V. Leontovich, A. I. Savenkov, A.S. Obuxov kabi boshqa psixolog-pedagog olimlarning qarashlarini to‘ldirilishi uchun o‘quvchida erishilgan bilim, malaka, ko‘nikmani amalda o‘quv-tadqiqot ishida qo‘llash bo‘yicha muhim bo‘lgan tadqiqotchilik kompetensiyalar va ularning tarkibiy qismlarini aniqlashtirib olish lozim. Bular: axborot bilan ishlash, bilimlarni egallash, muammoni ko‘ra bilish, natijalarni olish, natijalarni baholash, natijani taqdimoti (tushuntirish) kabi kompetensiyalar. O‘quvchida mazkur kompetensiyalarning shakllantirilishi ularda tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘qitish jarayonida tadqiqotchilik faoliyati – samarali bilim olish shaklidir. Bu jarayonda ta’lim oluvchilarda aqliy va amaliy mehnat madaniyati shakllanadi. Natijada, o‘quvchida o‘quv-tadqiqot ishi rejasini tuzish va uni bajarish, hisobot yozish, taqdimot tayyorlash, kichik-anjumanlarga ma’ruza tayyorlash va uni taqdimot qilish kabi tadqiqotchilik ko‘nikmalari shakllanadi.

Biz o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi didaktik shart sharoitlarga quyidagilarni kiritdik.

1. Ta’lim mazmuni va uning amaliy yo‘nalishini kuchaytirish orqali takomillashtirish.

2. Davlat ta’lim standartlariga mos o‘quv mashg‘ulotlarini tashkiliy-metodik ta’minlash.

3. O‘quvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning barcha bosqichlarida ta’limning zamonaviy metodlari va shakllaridan foydalanish.

Xulosa o‘rnida aytganda, pedagogik va ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili asosida o‘quvchi shaxsida o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishni pedagogik muammo sifatida o‘rganilishi o‘quvchilarda muayyan maqsad asosida o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirishning didaktik tizimi ishlab chiqilishini taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6198-son Farmoni https://lex.uz/docs/5352267.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-son Qarori // https://lex.uz/docs/5338558.

3. Begmatov E., Madvaliyev A. va boshqalar. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.www.ziyo uz.com.kutubxonasi.

4. Мещеряков Б.Г., Зинченко В.П. Большой психологический словарь − М.: АСТ. − 2009. − 816 с.

5. Леонтович А.В. Об основных понятиях концепции развития исследовательской и проектной деятельности учащихся // Исследовательская работа школьников. − 2003. - №4. – С.12-17.

6. Леонтович А.В. Концептуальные основания моделирования исследовательской деятельности учащихся // Школьные технологии. – М., 2006. - №5. – С. 63-71.

Sardor MIRZAYEV,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KONGRUENTLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Kongruentlik sifatlari shakllangan ijodkor o‘qituvchining qalbi samimiylik bilan to‘la. Uning ochiqligi hamkasblari va talabalari bilan har qanday muammolarni muhokama qilishga tayyorligida, ‘‘masofadan’’ voz kechishida, yoshlar bilan ‘‘xavfsiz’’ munosabatlar o‘rnatishda namoyon bo‘ladi. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda kongruentlik sifatlarini shakllantirishning ilmiy ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Kasb, kongruentlik, etika, o‘quv, ustoz-shogird, bilim, ko‘nikma.

Качества конгруэнтности полны искренности сформированного творческого педагога. Его открытость выражается в готовности обсуждать любые проблемы с коллегами и учениками. Проявляется в отказе от общения ‘‘на расстоянии’’ и установлении ‘‘безопасных’’ отношений с молодежью. В статье говорится о научной значимости формирования качеств конгруэнтности у будущих учителей.

Ключевые слова. Профессия, конгруэнтность, этика, образование, учитель-ученик, знание, умение.

Congruence qualities are full of sincerity of the formed creative teacher. His openness is reflected in his willingness to discuss any problems with his colleagues and students. It is manifested in the refusal to deal with “at a distance” and the establishment of “safe” relationships with young people. The article talks about the scientific importance of forming congruence qualities in future teachers.

Key words. Profession, congruence, ethics, education, teacher-student, knowledge, skill.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kongruentlik sifatlarinining shakllanishi o‘z kasbiga sodiqlik namunasidir.

Kongruentlik[1] – bu muvofiqlik. Bu shuni anglatadiki, o‘qituvchi qanday bo‘lsa, aynan shunday bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, u boshqa odamlarga bo‘lgan munosabatini bilishi kerak, shuningdek, uning haqiqiy his-tuyg‘ularini qabul qilishini anglatadi. Bunday xislatli o‘qituvchi o‘z shogirdlari bilan muloqotda ochiq bo‘ladi. U o‘ziga yoqadigan narsaga qoyil qolishi va uni qiziqtirmaydigan mavzularda suhbatlar paytida zerikishi mumkin. U g‘azablangan va sovuq yoki aksincha, sezgir yoki hamdard bo‘lishi mumkin. U o‘z his-tuyg‘ularini o‘zinikidek qabul qilganligi sababli, ularni o‘quvchilariga bog‘lash yoki ular ham xuddi shunday his qilishlarini talab qilishlari shart emas. U tirik inson, dastur talablarining shaxssiz timsoli yoki bilimlarni uzatish uchun ulashish kamari emas.

U hamkasblari bilan bir xil sharoitda ishlab, talabalar bilan muloqot qilishda, ular uchun muvaffaqiyat va rivojlanish vaziyatini yaratishda o‘zining mavjudligidan maqsadni aniq tushunadi. Bunday o‘qituvchilar o‘z kasbida uyg‘unlik namunasidir.

[1] Kongruent (lot. songruens) - mutanosib, mos keladigan, mos keluvchi (Chet el so‘zlari lug‘ati. M., Rus. yaz., 1989). “Muvofiqlik” atamasi Karl Rojers tomonidan inson hayotidagi “ideal men”, “Men” va “tajriba” o’rtasidagi muvofiqlikni tavsiflash uchun kiritilgan.

Birinchidan, muvaffaqiyat natijasi har doim ikki tomonlama ekanligini ta’kidlash kerak. Bu yerda “o‘qituvchi-shogird” tizimidagi ehtiyoj-motivatsion tasodifni (kongruentsiyani), ya’ni har ikki tomonning ijobiy hamkorlikka intilishini, talabalarning birgalikdagi faoliyat maqsadlariga ijobiy munosabatini, adekvat qabul qilishni ta’kidlash kerak. Bunda shakllar, uslublar va usullar, pedagogik muammolarni hal qilish, o‘quvchilarning o‘z faoliyati natijalarini o‘qituvchi tomonidan baholashga ijobiy munosabati, o‘qituvchi va talabaning o‘zini-o‘zi yetarli darajada baholashi, birgalikdagi faoliyat natijasidan qoniqishni his qiladi.

Ikkinchidan oldingi bosqichda aniqlangan va yuqori darajadagi muvofiqlikka (o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi haqiqiy o‘zaro tushunish) erishishga yordam beradigan moslashuvchan va innovatsion shakllar, ish usullari va usullaridan operativ foydalanish texnologiyasidir. Bu darajada olimlar muvaffaqiyat motivatsiyasining xususiyatlarini, kognitiv va hissiy-irodaviy holatlarni aniqlash uchun psixologik-pedagogik diagnostika kabi usul va usullardan foydalanishni taklif qiladilar. Bu shartda “mehribonlik, e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish”, “ishonch uyg‘otish”, ishontirish, “ilg‘or muvaffaqiyat”, “qiziqish uyg‘onish”, hissiy rag‘batlantirish, suhbat usullaridan foydalaniladi. Bu metoddan ko‘rgazmalar, tanlovlar, yarmarkalar, ekskursiyalar, kechalar, KVNlarda keng foydalaniladi.

Uchinchi ko‘rsatkich - guruhdagi talaba va o‘qituvchining ijtimoiy farovonligining yaxshilanishidan xursandchilik, qoniqish, tan olish, empatik tushunish tajribasi o‘quvchini ta’limdagi salbiy holatidan chiqaradi. Bu yerda u yoki bu faoliyat turidagi muvaffaqiyat fakti faol shakllantiruvchi tamoyil bo‘lib, haqiqiy muvaffaqiyat ham o‘qituvchi, ham talabaning o‘zini o‘zi anglashining kalitidir.

Demak, muvofiqlikning ijobiy rolining tarkibiy qismlari o‘qituvchining muvaffaqiyatga motivatsiya darajasini va jamoada, jamiyatda o‘zini-o‘zi anglash va o‘zini o‘zi tasdiqlash darajasini oshirishda ifodalanadi. Ijtimoiy farovonlikni yaxshilash bilan o‘qituvchi o‘z-o‘zini tartibga solish bo‘yicha tajriba orttiradi.

Biz hamisha o‘qitish haqida gapirganimizda, ta`limdagi faoliyatimizda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi muntazam ta’lim o‘zaro munosabatlari haqida ko‘p mulohaza qilamiz. Turli tashkiliy shakllar doirasida, xususan, ma’ruzalarda o‘qituvchi va talabalar bir ma’lum bir tarzda o‘zaro ta’sir qiladi. Bunday o‘zaro ta’sirning atributi akademik fanning predmetidir. Mavzu - tadqiqotchi, tegishli profildagi mutaxassis ko‘radigan dunyoning o‘sha qismidagi voqelikning ilmiy g‘oyasi.

O‘qituvchining ham, o‘quvchilarning ham ta’lim jarayonidagi faoliyati bitta mavzuga ega – o‘quv fanining predmetidir. Bu fakt ta’lim jarayonining muvofiqligining birinchi belgisi - predmet muvofiqligini qayd etish imkonini beradi. Bu ikki faoliyatning xususiy mutanosibligidan va mavzudagi mutanosiblikdan dalolat beradi.

Ta’lim jarayonida fan bo‘yicha mutanosiblikning mavjudligi, bu hali faoliyatning ikki turi, o‘qituvchi faoliyati va talabalar faoliyatining to‘liq mutanosibligining kafolati emas. Ikki faoliyat diqqat markazida mutanosib bo‘lmasligi mumkin. Bu, agar o‘qituvchi ta’lim jarayonida “bilimni o‘quvchilarga bilish va uzatish” maqomida qatnashsa sodir bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi fanini o‘rganishga yopiq bo‘ladi. U bilganini biladi va efirga uzatadi. O‘quvchilar esa bilishmaydi, balki o‘qituvchidan “o‘rganadilar”. Talabalar va o‘qituvchilarning faoliyati ko‘p qirrali.

Bundan tashqari, bu ikki faoliyat intensivlikda farq qilishi mumkin. Masalan, ma’ruzani olaylik. O‘qituvchi va o‘quvchilarning holatini keskinlik nuqtai nazaridan solishtirish mumkinmi? Qoida tariqasida, yo‘q. Lekin, ehtimol, ha. Ehtimol, bunday o‘quv jarayonlari o‘quv amaliyotida sodir bo‘ladi, bunda o‘qituvchi ham, o‘quvchilar ham birgalikdagi

faoliyatga shunchalik ishtiyoqlidirki, endi talabalar o‘qituvchi kabi intensiv ishlamaydi, deb aytish mumkin emas.

Xulosa qilib, ta’lim jarayonida ikki turdagi faoliyatning mutanosibligini hisobga olgan holda, biz parametrlar bo‘yicha ushbu mutanosiblikning uchta turini ajratamiz: aniqlik, yo‘nalish va intensivlikdir.

Ushbu masala nuqtayi nazaridan, yo‘nalish bo‘yicha mutanosiblik muammosi ko‘rsatilgan. Ta’lim jarayonini tashkil etishda an’anaviy pedagogik yondashuvni yengib o‘tgan taqdirda bu muammoni hal qilish mumkin. Masalan, Santyago bilim nazariyasi asosida ishlab chiqilgan ta’limning tizimli paradigmasiga muvofiq, o‘qituvchi va o‘quvchilarning ko‘p yo‘nalishli harakatlari muammosi mavjud emas. U o‘qituvchi o‘quvchilarga bilimdon va o‘qituvchi rolida emas, balki tadqiqotchi rolida ko‘rinadiganligi sababli paydo bo‘lmaydi. Uning uchun ham, talabalar uchun ham fanning predmeti tubdan noma’lumdir. Voqelik haqidagi barcha ma’lum ilmiy g‘oyalar haqiqat maqomida emas, balki bilim quroli sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu vositalar tadqiqotchilar tomonidan doimiy ravishda takomillashtirilmoqda va haqiqat har doim ufqdan tashqarida qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Карякин Ю.В. Конгруэнтность как характеристика учебного процесса// Современные наукоемкие технологии. – 2007. – № 3. – С. 36-37.

2. Карякин Ю.В. Сантьягская теория познания как фактор перестройки образования/ Фундаментальные исследования 2/2005, –С.110-112. Международный симпозиум, 2004. Потайа (Тайланд).

3. Карякин Ю.В. Высшее образование: XXI век. Учебный процесс как предмет науки/ Научное обеспечение системы повышения квалификации кадров: Межвузовский сборник научных трудов. - Вып. 8/ Под. ред. Д.Ф. Ильясова. - Челябинск: Изд-во ‘‘Образование’’, 2005. – С. 191-209.

Olima MUXIDOVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TRANSVERSAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarida transversal kompetensiyalarni shakllantirish masalalari muhokama qilinadi. Transversal kompetensiya tushunchasining tahlili va uning tarkibiy qismlari taqdim etiladi. Shuningdek, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini shakllantirish transversal yo‘nalish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv, kompetensiya, transversal kompetensiya, instrumental kompetensiyalar, shaxslararo kompetensiyalar, tizimli yoki integral kompetensiyalar.

В статье рассматриваются вопросы формирования трансверсальных компетенций у студентов высших учебных заведений. Представлен анализ понятия поперечной компетенции и его составляющих. Также формирование компетенционно-ориентированной образовательной среды рассматривается с точки зрения поперечной направленности.

Ключевые слова. Компетентностно-ориентированный подход, компетенция, трансверсальная компетенция, инструментальные компетенции, межличностные компетенции, системные или интегративные

The article discusses the issues of formation of transverse competencies in students of higher educational institutions. An analysis of the concept of transverse competence and its components are presented. Also, the formation of a competency-oriented educational environment is considered in terms of transverse orientation.

Key words. Competence-oriented approach, competence, transverse competence, instrumental competencies, interpersonal competencies, systemic or integral competencies.

Zamonaviy ta’lim tizimidagi asosiy o‘zgarishlardan biri bu kompetensiyaga yo‘naltirilgan muhitni joriy etishdir. Hozirgi vaqtda talabalarni tayyorlash jarayoni kompetensiyalarni shakllantirish orqali ushbu muhitning yangi faoliyati tarkibiy qismlarini joriy etish sohasiga aylanmoqda. Talabalar o‘qish jarayonida kasb-hunarga ega bo‘lishdan tashqari, kasbiy kompetensiyalar transversal yo‘nalishni ham o‘z ichiga olishi mumkin, ya’ni yetakchilik sifatlari, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash bilan bog’liq bo‘lishi mumkin.

Bu, esa, kasbiy va pedagogik oliy ta’lim muassasalarida juda muhimdir, chunki bu ko‘nikmalar ish beruvchining tanloviga ta’sir qilishi mumkin.

Transversal kompetentsiyalarni shakllantirish hozirgi vaqtda oliy ta’lim tizimi o‘qituvchilari oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo'lib, ya’ni bu jarayon yangi, tegishli o‘quv maqsadlari o‘quv dasturlari uchun ham, har bir ta’lim yo‘nalishi uchun ham belgilanishi va baholanishi kerak. Kelajakdagi mutaxassislardan talab qilinadigan ko‘nikma va qobiliyatlar ta’lim modelida hisobga olinishi kerak. Bugungi kunda ish beruvchi malakali mutaxassislarni va mehnat bozori ehtiyojlariga tezkor javob beradigan ta’lim tizimi bilan ishlashni talab qiladi.

Zamonaviy tezkor axborot almashuvi sharoitida talabalar ko‘plab professional sohalar va vaziyatlarda bo‘lishi mumkin bo‘lgan umumiy ko‘nikmalarga, dispozitsiyalarga ega bo‘lishlari kerak.

Shu sababli, oliy ta’lim muassasalari transversal kompetensiyalarni dunyoda sodir bo‘layotgan doimiy o‘zgarishlarga tezroq moslasha oladigan, yanada moslashuvchan ishchi kuchini ta’minlashning asosiy elementlari sifatida ko‘rib, tayanch kompetensiyalarga katta e’tibor berishlari kerak.

Kompetensiyalar endi nafaqat ma’lum bir professional yo‘nalish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun qo‘llaniladigan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plami sifatida tushuniladi, balki psixologik va ijtimoiy xususiyatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Talabalar ko‘plab vaziyatlarni, shuningdek, tasodifiy vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga imkon beradigan kompetensiyalarni o‘zlashtirishlari kerak. Kompetensiyalarni ikki turga bo‘lish mumkin: kasbiy va umumiy yoki transversal kompetensiyalar. Birinchi turga kasbiy faoliyat bilan bevosita bog’liq bo‘lganlar kiradi, transversal kompetensiyalar esa kasbiy etikani boyitadigan kognitiv, ijtimoiy munosabatlar xarakteridagi shaxsiy sifatlarni anglatadi. Ushbu kompetensiyalar kasbiy faoliyat uchun mutlaqo zarur emas, balki ular bo‘lajak mutaxassisning sifat ko‘rsatkichini oshiradigan o‘ziga xos elementdir.

Bugun jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan globallashuv davrida ish beruvchilar o‘zgarishlarga moslashish, qat’iyatli bo‘lish yoki jamoada ishlash qobiliyati kabi muhim kompetensiyalarni ko‘proq tan olishmoqda. Jahon miqyosida ilmiy-texnik va innovatsion rivojlanish tufayli kasbiy kompetensiyalar eskirishga moyil bo‘lganligi sababli, mehnat bozori transversal kompetensiyalarga tobora ko‘proq ahamiyat bermoqda, chunki ular umr bo‘yi o‘rganishga yordam beruvchi bardoshli, dolzarb kompetensiyalardir.

Transversal kompetensiyalar tushunchasini batafsilroq tahlil qiladigan bo‘lsak, transversal kompetensiyalar talabalarning o‘z bilimlari, ko‘nikmalari va malakalarini aks ettirishga yordam beradigan ko‘nikmalar, qadriyatlar va munosabatlarni, shuningdek, zamonaviy jamiyatdagi turli talablar va o‘zgaruvchan sharoitlarga muvofiq moslashish qobiliyatini shakllantirishni anglatadi.

Transversal kompetensiyalar tez moslashish va faoliyatning bir sohasidan ikkinchisiga o‘tish qobiliyati bilan ajralib turadi, shuningdek, mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o‘ynaydi.

Talabalar oliy o‘quv yurtlarida transversal kompetensiyalarga ega bo‘lishidan qat’iy nazar, ular o‘z ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli namoyish etib, kelajakdagi kasbiy faoliyatda o‘z bilimlarini osongina qo‘llashlari mumkin.

Transversal kompetensiyalar tayanch kompetensiyalar, asosiy ko‘nikmalar, umumiy ko‘nikmalar, amaliy ko‘nikmalar, yumshoq ko‘nikmalar, XXI-asr ko‘nikmalari sifatida ham tanilgan. Bundan tashqari, ushbu kompetensiyalar innovatsiya va raqobatbardoshlikning tayanch elementi hisoblanib, xodimlarni ishga bo‘lgan mas’uliyatini oshirishga va ularni rag’batlantirishga, shu bilan ish sifati va samaradorligini oshirishga hissa qo‘shadi.

Transversal kompetensiyalarni uch toifaga bo‘lish mumkin: instrumental, shaxslararo va tizimli.

Instrumental kompetensiyalar – bu instrumental funktsiyaga ega bo‘lgan kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi va ular quyidagilardir:

– kognitiv ko‘nikmalar, ya’ni fikrlar va g’oyalarni tushunish va ulardan foydalanish ko‘nikmalari;

– uslubiy ko‘nikmalar – kasbiy-pedagogik muhitda o‘zaro ta’sir o‘tkazish uchun zarur bo‘lib, vaqtni boshqarish va o‘qitish strategiyalari, qaror qabul qilish yoki muammolarni hal etish ko‘nikmalari;

– texnologik ko‘nikmalar – texnik vositalar, kompyuterlar va axborotni boshqarish ko‘nikmalari;

– lingvistik ko‘nikmalar – ham og’zaki, ham yozma aloqa yoki chet tilini bilish ko‘nikmalari.

Shaxslararo kompetentsiyalar hamkorlik va ijtimoiy munosabatlar jarayonini osonlashtiradigan kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi va ular quyidagilardir:

– individual ko‘nikmalar – muammoni his etish yoki idrok etish qobiliyati, tanqid qilish va tanqidni qabul qilish qobiliyati bilan bog’liq;

– ijtimoiy va shaxslararo ko‘nikmalar – jamoada ishlay olish qobiliyati va axloqiy yoki ijtimoiy majburiyatlarni ijtimoiy jihatdan maqbul tarzda ifoda etish qobiliyati.

Tizimli yoki integral kompetentsiyalar – bu umumiy ta’lim jarayoni bilan bog’liq ko‘nikmalar va malakalar. Ular bizga o‘quv jarayonini rejalashtirish va takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni kiritish va baholash imkonini beradi.

Kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini modellashtirish orqali bo‘lajak mutaxassisning transversal kompetensiyalarini mazmunli va maqsadli darajada aniqlash kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oliy o‘quv yurtlari talabalari transversal kompetensiyalarga ega bo‘lishlari kerak, chunki mehnat bozori mutaxassislarni ma’lum bir tayyorgarlik yo‘nalishi bo‘yicha aniq bilimlaridan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy ko‘nikmalari, yetakchilik qobiliyati, boshqaruv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ko‘nikmalari bilan bog’liq sifatlarini yuqori baholaydi. Bu shuni ko‘rsatadiki, bunday muhim ko‘nikmalarni talabalar iloji boricha samarali va ongli ravishda rivojlantirishlari kerak va ularni oliy ta’lim tizimida o‘qitish jarayonida shakllantirish bo‘lajak bitiruvchilarga yanada muvaffaqiyatli ishga joylashishlari uchun raqobatbardosh darajaga erishishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ульяшина Н.Н. Формирование компетенции по рабочей профессии студентов профессионально-педагогического вуза: диссертация кандидата педагогических наук: 13.00.08 / Ульяшина Наталья Николаевна; Рос. гос. проф.-пед. ун-т Екатеринбург, 2010. – С.400.

2. Уровневое профессионально-педагогическое образование: теоретико-методологические основы стандартизации / Г.М. Романцев, В.А. Федоров, И.В. Осипова, О.В. Тарасюк. Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-т, 2011. – С.545.

3. Шульц О.Н. Применение электронных средств обучения для организации педагогической практики студентов / О.Н. Шульц. Текст: электронный // Прогнозирование профессионального будущего молодежи в условиях цифровой экономики: материалы Всероссийской научно-практической конференции, 12 марта 2020 г., Первоуральск. Екатеринбург: Рос. гос. проф.-пед. ун-т, 2020. – С.236-240.

4. Осипова И.В. Современные условия транспрофессиональной подготовки специалиста на основе системно-деятельностного, кластерного подходов в профессионально-педагогическом вузе / И.В. Осипова, Н.Н. Ильина, Н.И. Ульяшин. // Современное педагогическое образование. 2021. № 2. – С.104-107.

Furqatjon NURADINOV,
Akmeologik texnologiyalar yordamida ongli ravishda faol rolni egallab, davlat xizmatchisi ijtimoiy-madaniy muhitning tashqi sharoitlariga, hayotga va kasbiy maqsadlarga, kelajakka bo‘lgan taxminlar va prognozlar tizimiga mustaqil ravishda ta’sir o‘tkaza oladi, ularning yutuqlarini baholaydi va shu bilan o‘z rivojlanishiga va o‘zini o‘zi amalga oshirish strategiyasiga ta’sir qiladi.

Akmeologik texnologiyalarning mahorati inson hayotining ichki ahamiyatini aktuallashtiradi, har bir kishining jismoniy, ijtimoiy va ma’naviy mohiyatini to‘liq ochishga yordam beradi.

Davlat xizmatchilari akmeologik texnologiyalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi uchun fan va amaliyotga oid akmeologik qonuniyatlarni, protseduralarni aniqlash usullarini va davlat xizmatchilarining psixofiziologik, psixologik, ijtimoiy fazilatlari va qobiliyatlarini o‘rganishning maxsus usullarini bilishi kerak. Moslashish usullari: bashorat qilish; potensial imkoniyatlar; shakllangan qobiliyatlar; texnologik qobiliyatlar diagnostikasi; davlat xizmatchisining kasbiy faoliyati natijalarini bashorat qilish; texnologiya va dizayn mahoratiga asoslangan shaxsiy fazilatlar; maxsus bilimlar va qobiliyatlarni ro‘yobga chiqarish.

Akmeologik modellashtirish o‘quv jarayonidagi barcha sub’ektlarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishidagi muhim omil sifatida ko‘rib chiqilishi kerak, bu maktab o‘qituvchilarining ilmiy va uslubiy ishlari darajasini oshiradi, pedagoglarning o‘zaro munosabatlarini davlat ta’lim standartining zamonaviy talablar darajasida va bitiruvchilarning bilimlari va asosiy vakolatlari darajasida tashkil etib, maktabda innovatsion ish tizimini yaratadi, o‘quv jarayonida o‘quvchilarni maksimal darajada shaxsan o‘zlashtirishlari uchun qulay shart-sharoitlarni ta’minlaydi. O‘qituvchilar va talabalar odatdagi pedagogik va o‘quv faoliyatlaridan tashqari ongli ravishda chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Maktabdagi o‘quv jarayoni subyektlarining kasbiy va shaxsiy rivojlanishini akmeologik modellashtirish o‘qituvchilar va o‘quvchilarni amaliy faoliyatga jalb qilishning individual rivojlanish yo‘llari va o‘zini namoyon qilish xususiyatlarini hisobga olgan holda sifat jihatidan yangi usullarni aniqlashga imkon beradi. Shuningdek, kasbiy hayot strategiyalarini ishlab chiqadi, kasbiy shaxsni shakllantirishda ijtimoiy va ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va qo‘llash zarurligiga e’tiborni qaratadi.

Akmeologik modellashtirish vazifalari quyidagicha:

• o‘qituvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi hamda shaxsiy o‘sishi va talabalarning ijtimoiy faolligi uchun samarali sharoitlarni yaratish va ta’minlash;

• o‘quv jarayoni sub’ektlarining kasbiy va shaxsiy rivojlanishini amalga oshirishda eng yaxshi usul va usullardan foydalanish;

• o‘quvchilar va o‘qituvchilarning sinfdagi va darsdan keyingi ijodiy faoliyatini faollashtirish, o‘qituvchi va talabaning mustaqil ijodiy izlanishlari rolini oshirish;

• ijodiy tanlovlar, tadbirlarda yuqori natijalarga erishish uchun talabalar va o‘qituvchilarning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishni ta’minlash.

Boshqariladigan jarayonni eng yaxshi tashkil etish, boshqariladigan tizimning samaradorligi va boshqaruvning o‘zaro samaradorligini oshirish uchun maxsus yaratilgan tashkiliy va boshqaruv sharoitlari diqqatga sazovor. Shunday qilib, maktabda yaratilgan tashkiliy va boshqaruv shartlari – bu boshqaruv munosabatlarini ma’lum darajada tartibga soladigan va boshqariladigan jarayonning eng yaxshi ishlashi va rivojlanishi uchun o‘quv muassasasining tashkiliy tuzilmasini optimallashtiradigan shartlardir.

Bundan tashqari, akmeologik modellash jarayonida o‘quvchi faol shaxsiy va ijtimoiy mavqega ega bo‘lib, ta’lim faoliyati subyekti sifatida eng to‘liq ochib beriladigan ta’lim muhitini yaratish masalasi tug‘iladi. Xulosa shuki, talabalarga shaxslararo va madaniyatlararo muloqot jarayonida, shu jumladan, interfaol jarayonda qatnashishga imkon beradigan axborot va aloqa sharoitlarini yaratilishida hamma axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda bahslashishni, isbotlashni va o‘z pozitsiyasini asoslashni o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akmeologiya. Xrestomatik lug‘at. Ilin V.V., Pojarskiy S.D. Filosofiya va akmeologiya. – M., 2004.

2. Azizxo’jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2003.

3. Tillayeva S.N. Akmeologiya asoslari. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2014.

4. Yo‘ldoshev J., Usmanov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2004.

Dilfuza XO‘JAMBERDIYEVA,
Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARDA AXBOROT BILAH ISHLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI (“Informatika” fanini o‘qitish misolida)

Annotatsiya

Ushbu maqolada informatika fanini o‘qitishda o‘quvchilarga axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, aqliy qobiliyatlari orqali o‘quvchilar ongida umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, darslar jarayonida interfaol metodlardan foydalanish masalalari qalamga olingan.

Kalit so‘zlar. Informatika fani, innovatsion texnologiya, axborot bilah ishlash kompetentligi, axborot texnologiyalari, interfaol metodlar, fanni o‘qitish, kreativ, ta’lim farayoni.

В данной статье раскрывается роль инновационных технологий в развитии компетенции работы с информацией у студентов при обучении информатике, способности к логическому мышлению студентов в процессе обучения, формировании умственного развития и общечеловеческих ценностей, а также обсуждается использование интерактивных методов в ходе урока.

Ключевые слова. Информатика, инновационная технология, компетентность в обработке информации, информационные технологии, интерактивные методы, преподавание естественных наук, творческая, учебная деятельность.

In this article, the role of innovative technologies in the development of the competence of working with information for students in the teaching of computer science, the logical thinking ability of students in the process of teaching, the formation of mental development and universal values, and the use of interactive methods in the course of the lesson are discussed.

Key words. Computer science, innovative technology, information processing competence, information technologies, interactive methods, science teaching, creative, educational activity.

Jadal rivojlanayotgan axborotlar asrida innovatsion mahsulotlarni yaratish uchun yangi bilimlarni o‘zlashtirish va amalda qo‘llashning tobora ortib borayotgan ahamiyati milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini hamda milliy xavfsizlik strategiyalarining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan o‘rinli va unumli foydalanish dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh mezoni o‘sib kelayotgan avlodni yuksak ma’naviyatli, intelektual salohiyati baland, har tomonlama shakllangan yetuk shaxsni yetishtirishdan iboratdir. Uzluksiz ta’lim tizimi shaxsning har tomonlama barkamol bo‘lib yetishini ko‘zda tutadi. Bunda shaxs uzluksiz ta’limda va kadrlar tayyorlashda ta’lim xizmatlarining iste’molchisi hamda ishlab chiqaruvchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish uchun uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o‘qitish metodlarini takomillashtirish, xalq ta’limi jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish nazarda tutilgan.

O‘quvchilarning matematik madaniyatini shakllantirish, informatika fanining ilmiy-nazariy asoslaridan tayyorgarliklarini ta’minlash, ularning dunyoqarashlarini shakllantirish, tafakkurlarini rivojlantirishda zarur bo‘lgan amaliy muammolarni hal qilish, funksional bilimdonlik, mantiqiy fikrlash, shuningdek, insonning umumiy madaniyatini shakllantirishda Informatika va axborot texnologiyalari, matematika fanlarining o‘rni beqiyosdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, jadal rivojlanayotgan jamiyatda maktab uchun axborotlashtirish eng muhim vazifa hisoblanadi. Bu – axborot jamiyati hayotiga o‘tish bosqichida maktab o‘quvchilarini o‘qitishning mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini o‘zgartirish, o‘quvchilarni o‘z hayotini muvaffaqiyatli va mustaqil ravishda qurish ko‘nikmalariga tayyorlash jarayoni hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “axborot” atamasi lotincha “infomation’ dan kelib chiqqan bo‘lib, “tushuntirish”, “xabardorlik”, “taqdim etish” degan ma’nolarni anglatadi. N.V. Makarovaning ta’kidlashicha, “axborot” tushunchasi “atrof-muhit obyektlari va hodisalari, ularning parametrlari, xususiyatlari va holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ular to‘g‘risida mavjud bo‘lgan noaniqlik, to‘liqlik darajasini pasaytiradi”.

A.B. Xutorskoy “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalariga quyidagi ta’riflarni beradi. “Kompetensiya - obyektlar va jarayonlarning ma’lum doirasiga nisbatan o‘rnatilgan va ularga nisbatan yuqori sifatli samarali faoliyat uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq shaxs xususiyatlarining (bilimlar, qobiliyatlar, ko‘nikmalar, faoliyat usullari) majmuini o‘z ichiga oladi. Kompetensiya - bu shaxsning tegishli vakolatga ega bo‘lishi, shu jumladan uning unga va faoliyat predmetiga shaxsiy munosabati”. Shunday qilib, A.B. Xutorskoy kompetensiyani o‘quvchining ta’limga tayyorgarligi uchun ma’lum bir tartibga tushirilgan, oldindan belgilangan talab, kompetensiya esa allaqachon sodir bo‘lgan shaxsiy sifat (xususiyat) sifatida tushuniladi.

Olim o‘z asarlarida asosiy kompetensiyalarni quyidagicha belglaydi: qiymat-semantik, umumiy madaniy, ma’rifiy va kognitiv, axborot, kommunikativ, ijtimoiy va mehnat, shaxsiy kompetentsiya.

I.A. Zimnyaning ta’kidlashicha, tadqiqotchilar kompetensiyalarning 3 dan 37 gacha bo‘lgan turlarini ajratib ko‘rsatishadi, ular orasida inson faoliyati bilan bog‘liq kompetensiyalar qayd etilgan:

– faoliyat kompetensiyalari: o‘yin, o‘qitish, mehnat, faoliyat vositalari va usullari, rejalashtirish, loyihalash, modellashtirish, tadqiqot faoliyati;

– axborot texnologiyalari kompetensiyalari: axborotni qabul qilish, qayta ishlash, yetkazib berish, axborotni transformatsiya qilish; ommaviy axborot vositalari, multimedia texnologiyalari, kompyuter savodxonligi.

Yevropa Kengashi yosh yevropaliklar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan beshta asosiy kompetensiyalarning ta’rifini qabul qilgan:

– mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, guruh qarorlarini qabul qilishda ishtirok etish, nizolarni zo‘ravonliksiz hal qilish kabi siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar;

– ko‘p madaniyatli jamiyatdagi hayot bilan bog‘liq kompetensiyalar, masalan, farqlarni qabul qilish, boshqalarni hurmat qilish va boshqa madaniyatlar, tillar, dinlar vakillari bilan yashash qobiliyati;

– og‘zaki va yozma muloqot bilan bog‘liq kompetensiyalar;

– jamiyatni axborotlashtirishning kuchayishi bilan bog‘liq kompetensiyalar, axborot texnologiyalarini bilish, ularni qo‘llashni tushunish, zaif va kuchli tomonlari;

– shaxsiy kasbiy va ijtimoiy hayot kontekstida umrbod ta’limning asosi sifatida hayot davomida o‘rganish qobiliyati.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, biz kompetensiyalarning asosiy ko‘plab tasniflari mavjud degan xulosaga kelishimiz mumkin, shu bilan birga axborot kompetensiyasi tizimni tashkil qiladi, chunki boshqa barcha asosiy kompetensiyalarning o‘zlashtirish darajasi ushbu kompetensiyani egallash darajasiga bog‘liq. Shu o‘rinda “Axborot kompetensiyasi nima?” degan savol tug‘iladi.

A.B. Xutorskoy ushbu kompetensiyani hisobga olgan holda, real obyektlar (televizor, magnitafon, telefon, faks, kompyuter, printer, modem, nusxa ko‘chirish) va axborot texnologiyalari (audio-video yozuvlar, elektron pochta, ommaviy axborot vositalari, Internet) yordamida kerakli ma’lumotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish va tanlash, uni tartibga solish, o‘zgartirish, saqlash va uzatish qobiliyati ekanligini qayd etadi. Bu kompetensiyalar o‘quvchining fanlar va ta’lim sohalarida, shuningdek, dunyoda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarga nisbatan faollik ko‘nikmalarini ta’minlashini aytib o‘tadi.

Axborot kompetensiyasi turli jihatlarni (faoliyat usullarini) o‘z ichiga oladi:

– axborot qidirishni rejalashtirish;

– ma’lumotlarni qayta ishlash;

– axborotni tizimlashtirish;

– axborotni talqin qilish (tushuntirish va talqin qilish);

– turli ko‘rinishdagi ma’lumotlar taqdimoti.

Shaxsning axborot kompetensiyasining asosiy ko‘rsatkichi – bu ma’lumot olish, uni qayta ishlash va xulosalar chiqarish hamda olingan xulosani asosli ravishda taqdim etish qobiliyatidir.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish o‘quvchilarning axborot kompetensiyasining quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi:

– motivatsion (maqsadga erishish uchun motivning mavjudligi, faoliyatga tayyorligi va qiziqishi);

– operativ va faollik (axborot faoliyatining samaradorligi va mahsuldorligini, axborot texnologiyalarini qo‘llash qobiliyatini namoyish etadi);

– kognitiv (bilim, ko‘nikma va ularni faoliyatda qo‘llash qobiliyatining mavjudligi);

–refleksiv (paydo bo‘layotgan muammolarga yechim topishga tayyorlikni ta’minlaydi).

O‘quvchisining axborot kompetensiyasini rivojlantirish, deganda kichik maktab o‘quvchisining axborot kompetensiyasi tarkibidagi miqdoriy va sifat jihatidan o‘zgarishlar tushuniladi.

O‘quvchining ichki motivatsiyasining qanchalik shakllanganligi, aniq fanlarga qiziqishi, atrof-muhit muammolarini anglashi va uni hal qilishda muhim qarorlarni qabul qilishni bilishi hamda tabiiy va ijtimoiy muhitga ta’sirini tahlil qilishda muhim o‘rin egallaydi.

Axborot texnologiyalari usullari va vositalarini o‘zlashtirish, muammolarni hal qilish layoqatini shakllantirish, real obyektlar va jarayonlarning axborot modellarini qo‘llash, tahlil qilish va o‘zgartirish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat jarayonlar mavzu doirasidagi fikrlarimizning mazmunini aks ettiradi.

Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish ilmiy-texnik jihatdan yanada rivojlanish uchun raqamli iqtisodning ustuvorligini e’tiborga oladi, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining raqamli texnologiyalar borasidagi kompetensiyasi va madaniyatini hamda tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativ fikrlash kabi axborot kommunikatsion kompetensiyalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Tabiat hodisalarini va asosiy fizik jarayonlarni anglash bilan birga, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishda Informatika va axborot texnologiyasi qonunlarini amalda qo‘llashni o‘rganadilar. Fanni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanishi va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, olamning yagona manzarasiga oid tafakkur, informatika va axborot texnologiyalari fanidan olgan amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda egallagan bilimlaridan kundalik hayot faoliyatlarida unumli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Jahon ta’lim tizimida fan va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirish mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili sanaladi. Yuqori kasbiy kompetentlikka ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta’limda innovatsiyalar, o‘qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini keng joriy etish o‘quvchilarning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash kabi indikatorlar asosida ilmiy izlanishlarni amalga oshira oladigan qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri - shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi-talabalarning faqat tayyor bilimlarni egallashga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar esa ularning egallashi lozim bo‘lgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto mantiqiy xulosalarni ham o‘zlari chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

O‘qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darslarni tashkil etar ekan, texnik vositalar, ya’ni kompyuter, elektron doska, interfaol doska, turli rusumdagi proyektorlardan foydalanishi mumkin. O‘qituvchi faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning darsi ham shuncha samarali bo‘ladi.

Bugungi ta‘limning rivoji o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijodkor bo‘lishi, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirib borishini taqozo etmoqda. Ma‘lumki, innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta‘lim jarayonida oldindan rejalashtirilgan, muayyan vaqtga mo‘ljallangan, ta‘lim jarayoni ko‘proq o‘quvchi shaxsiga qaratilgan, faollashtiruvchi usullar va zamonaviy ta‘lim vositalaridan foydalangan holda o‘quv maqsadiga erishishni kafolatlaydigan ta‘lim berish jarayoni hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari darslarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish faoliyatni o‘zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiy, lekin har bir ishtirokchi uchun ahamiyati nazorat topshiriqlarini birgalikda yechishga olib keladigan muloqotli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Ta’limda yuqori samaradorlikka erishish uchun o‘qitishning noan’anaviy metodlaridan, ya’ni zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli metodlaridan dars mavzusiga mos ravishda o‘rinli va unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu uzoq

va murakkab davom etadigan jarayon bo‘lib, o‘qituvchining mashaqqatli mehnati bilan bosqichma-bosqich mahorat pillapoyalarini egallab, uning yuksak pedagogik darajasiga ko‘tarilishdir.

Interfaol metodlardan foydalaniladigan o‘quv jarayonida o‘quvchilar tanqidiy fikrlashga, kerakli bo‘lgan axborotni tahlil qilish asosida murakkab muammolarni yechishga, alternativ fikrlarni chamalab ko‘rishga va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, bahs-munozaralarda ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqot qilishga tayyor bo‘ladilar. Buning uchun darslarda individual, juftli va guruhli ishlar tashkil etiladi, jarayonda esa, axborotlar bilan ishlash kompetentligi rivojlantirilib boriladi.





9-sinf Axborot texnologiyalari darslarida “Model va uning turlari”, “Jarayonga oid obyektlar”, “Hodisaga oid obyektlar” mavzularini o‘tish jarayonida “Venn diagrammasi” metodidan foydalaniladi. “Venn diagrammasi” metodi ikki yoki undan ortiq narsalarni, voqealarni, odamlar va tushunchalarni taqqoslash va farqlash uchun ishlatiladigan metod sanaladi.




1-rasm.

“Tushunchalar tahlili” metodi. Bu metod o‘quvchilar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

9-sinfda “Algoritm turlari va tasvirlash usullari” mavzusini takrorlash yoki mustahkamlash qismida bu metoddan samarali foydalanish mumkin. Bu jarayonda o‘quvchilar tushunchalarni to‘g‘ri va to‘liq izohlashni o‘rganadilar. O‘quvchilar mavzuni mustahkamlash uchun algoritmlarni tasvirlab izoh beradilar.

Tushunchalar	Mazmuni
	Algoritm blok–sxemasining boshlanishi va tugashida qo‘llaniladi
	Dastlabki ma’lumotlar kiritish - chiqarish uchun xizmat qiladi.
	Qiymat berish yoki tegishli ko‘rsatmalarni bajarishga xizmat qiladi. To‘rtburchak ichida bajarilishi kerak bo‘lgan buyruq yoziladi.
	Agar romb ichida yozilgan shart o‘rinli bo‘lsa, u holda boshqaruv “ha” tarmog‘i, aks holda, “yo‘q” tarmog‘i bo‘ylab uzatiladi.

11-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” darsligidagi “Axborot xavfsizligi va uni ta’minlash” mavzusini mustahkamlashda “Axborot xavfsizligiga tahdidlar” qismini o‘tishda diagramma tayyorlash topshirig‘i bajartiriladi.



2-rasm

“Veb-kvest” texnologiyasi

Bu texnologiya o‘quvchilar bilan o‘zaro ta’limga tegishli bo‘lgan axborotlarni internet resurslar orqali turli xil savol-javob tarzidagi mashqlarga yo‘naltirilgan faoliyatdir. Bu texnologiyani informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda axborotlar bilan ishlash kompetentligini shakllantirishda foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, innovatsion texnologiya – bu ilmiy izlanishlar, turli ishlanmalar yaratish, fan va texnika sohasidagi yutuqlardan foydalangan holda o‘quvchilarga yangidan-yangi bilimlarni bera olishdir. Zero, bugungi kunda ta’lim jarayonida axborotlar bilan ishlashning samarali usullardan unumli foydalanish mamlakatimizning ko‘pgina o‘suv muassasalarida yo‘lga qo‘yilgan. Ayniqsa, o‘quv maqsadlarini belgilash, o‘quvchilarni mustaqil bilim olishga undash, o‘quv jarayonini doimo rivojlanib boruvchi dinamik tizim sifatida loyihalash kabi tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalar katta imkoniyatlarga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘risida”. https://lex.uz/docs/-4312785

2. Ruzikulova N.Sh. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (matematika) Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., – 2020.

3. Макарова Т.Н. Планирование и организация методической работы в школе [Текст]: в 2 ч. / Макарова Т.Н. – М.: Пед. поиск, 2003. – Ч. II. – 160 с. – (Б-ка адм. шк.).

4. Хуторской А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты. – www.eidos.ru/news/compet.htm

5. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования. // “Высшее образование сегодня”. 2003. № 5.

Tanzila SULAYMONOVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti, Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi magistranti

1-SINFDA "TARBIYA" FANINI O'QITISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI MANBALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada kelajak avlod hayotida tarbiyaning ahamiyati va 1-sinf "Tarbiya" fanini o'qitishda xalq og'zaki ijodining turli manbalaridan foydalanishning samaadarligi hamda ota-onaning farzandini tarbiyalashi mobaynida ham moddiy, ham ma'naviy ta'minlashi mas'uliyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Tarbiya, odob, boshlang'ich sinf, o'quvchi, xalq og'zaki ijodi, maqol, ertak, vatan, salomlashish, ota-ona mas'uliyati.

В данной статье значение образования в жизни подрастающего поколения и В преподавании предмета ''Образование'' в 1 классе рассматривается использование различных источников народного творчества.

Ключевые слова. Воспитание, нравы, начальная школа, ученик, народное творчество, пословица, сказка, родина, приветствие.

In this article, the importance of education in the life of the next generation and in the teaching of the 1st grade "Education" subject, the use of various sources of folk art is discussed.

Key words. Education, manners, elementary school, student, folklore, proverb, fairy tale, homeland, greeting.

Barchamizga ma'lumki, farzand dunyoga kelar ekan, avvalo, oila deb ataladigan qo'rg'onda dunyo yuzini ko'rib, o'zligini anglaydi. Shuning uchun ham uning ota-onasi uni moddiy, ma'naviy jihatdan ta'minlashga harakat qiladi. Moddiy jihatdan ta'minlash jarayonida uni o'z vaqtida ovqatlantirib, kerakli ehtiyojlarini qondirishini tushunsak, ma'naviy jihatdan ta'minlashida uning tarbiyasiga mas'ul shaxs sifatida farzandining o'qishi, tarbiyasi va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida suyanch bo'ladi. Ma'naviy jihatdan ta'minlash jarayonida ota-onalar bevosita farzandlarini tarbiyalab ham boradi, shunday qilib bola hayotida ilk tarbiyalovchilar ota-onalar bo'lib qoladi. Bolalar ma'lum yoshgacha oilada ota-onalaridan tarbiya olish bilan birga, maktabgacha va maktab yoshiga yetgach, oila tarbiyasi bilan birga maktabda ham ta'lim jarayoni bilan parallel ravishda tarbiya elementlari bilan qurollantirilib boriladi. Bu ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlash bilan birga o'qituvchilarga yana bir bor mas'uliyat yuklaydi. Kichik yoshdagi o'quvchilarga maktablarda 1-sinfdanoq "Tarbiya" darsi o'qitiladi. Bu fan Prezidentimiz tashabbusi bilan 2020-2021-o'quv yillaridan boshlab, ta'lim jarayonlariga joriy etilgan bo'lib, unga qadar "Odobnoma" fani sifatida o'tilar edi. Bugungi kunda joriy etilgan "Tarbiya" fani uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining mantiqiy davomi sifatida yosh avlodga "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini singdirish, ularni muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish orqali mas'uliyat, majburiyat huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, ma'rifatparvarlik, insonparvarlik, va bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib olgan desak, adashmaymiz. Fan va darslik konsepsiyasin yaratishda Singapur, Yaponiya, BAA, Xitoy, Rossiya va shu kabi bir qancha xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanilgan.

O‘zbekiston ta’lim tizimida bolalar 7 yoshdan umumiy o‘rta ta’limning 1-sinfiga qabul qilinadi va o‘quv yilining boshidan, ya’ni sentabr oyidanoq, o‘quvchilar to‘liq savod chiqarmagan bo‘lsa-da, ularga haftada bir soat, o‘quv yili davomida esa jami 34 soat “Tarbiya” fani o‘tiladi. 1-sinf “Tarbiya” darsligi jami 64 bet, 2 bob va 30 ta mavzuni o‘z ichiga oladi. Darslikdan joy olgan har bir mavzu o‘quvchilarining yoshiga munosib bo‘lib, undan mavzuga mos turli xil rasmlar va o‘yinlar o‘rin olgan. Tarbiya jarayoni birmuncha murakkab jarayon bo‘lib, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchi yoki o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘z ichiga oladi. Negaki, tarbiya jarayonida o‘quvchining ongi shakllanib boradi, atrof-muhitga e’tibori oshib, his-tuyg‘ulari va turli qobilyatlari rivojlanadi, axloqiy, estetik, irodaviy xislatlari shakllanishi bilan birga jamiyatning xulqiy va axloqiy talabalariga muvofiq shakllanadi. Bunga erishish uchun esa o‘quvchilarning ongiga, hissiyotlariga muntazam va davomli ta’sir etiladi. Oddiygina qilib aytadigan bo‘lsak, maktabga kelgan 1-sinf o‘quvchisi jamiyat, aniqroq aytadigan bo‘lsak, maktab jamoasi qo‘ygan talabalarga beixtiyor bo‘ysinadi. Bunday talablarga o‘quvchilarning maktabga doimo maktab formasida va belgilangan vaqtda kelishi, darslarga o‘z vaqtida qatnashib, berilgan vazifalarni aytilgan vaqtda bajarilishini aytishimiz mumkin.

1-sinf “Tarbiya” darslari, asosan, o‘quvchilar tiliga mos, sodda shaklda olib borilishi maqsadga muvofiq, chunki bu yoshdagi o‘quvchilar hali savod chiqarmaslaridanoq bu darslik bilan tanishadilar.

1-sinf “Tarbiya” darsligining quyidagi bob va mavzulardan iborat:

I bob. “Men O‘zbekiston farzandiman”

1-mavzu: Vatan ishonchi;
2-mavzu: Salomlashish odobi;
3-mavzu: Mening orzuyim;
4-5-mavzu: Bilim olish sirlari;
6-mavzu: Maktabim – gulshanim;
7-8-mavzu: Mening sevimli ertak qahramonlarim;
9-10-mavzu: Har narsaning o‘z o‘lchovi bor;
11-12-mavzu: Mening mahallamda yashash yaxshi;
13-mavzu: Notanish kishi kim?
14-15-mavzu: Xavfli vaziyatlarda harakat qilish;
“Zukko o‘quvchi” o‘yini

II bob. “Go‘zal xulq - inson ko‘rki”

16-mavzu: Sehrli so‘zlar;
17-mavzu: Qalb oynasi;
18-19-mavzu: Telefondan foydalanish qoidalari;
20-21-mavzu: Tashqi ko‘rinish odobi;
22-23-mavzu: Yaxshi va yomon odatlar;
24-mavzu: Soy bo‘yida;
25-26-mavzu: Sog‘ tanda - sog‘lom aql;
27-28-mavzu: Dasturxon atrofida;
29-30-mavzu: Jamoat joylarida o‘zini tutish;

Darslikning dastlabki mavzusi “Vatan ishonchi”, deb nomlanib, ushbu mavzu o‘quvchilarning o‘zlashtirish qobilyatlariga mos shaklda tayyorlangan bo‘lib, kichik yoshdagi o‘quvchilarni kindik qoni to‘kilgan joyni sevishga, uning har bir qarichini ko‘z qorachig‘idek asrashga, tug‘ilib o‘sgan yurt kelajagiga befarq bo‘lmay, vatanparvar shaxs sifatida ulg‘ayishiga yordam beradi.

Mavzu matni quyidagicha berilgan: “Men birinchi sinfga borganimda dadam menga G‘afur G‘ulomning she’rini o‘qib bergandilar:

Sen bu kun sinfda shod yurak bilan
Sinov navbatini kutib turasan.
A’lo mamlakatning a’lo farzandi,
Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi.”[1]

Barchamizga ma’lumki, tarbiya jarayonida shaxsiy namuna eng yuqori pog‘onalarni egallaydi. Bolalarga kattalarning o‘z hayotidan aniq dalillar asosida gapirishi ko‘rilayotgan masalaning ahamiyatini yanada oshiradi. Yuqorida keltirilgan “Vatan ishonchi” mavzusida ham aynan shu an’anadan foydalanilganlini ko‘rishimiz mumkin. Maktabga endigina kelib, partada qanday o‘tirish kerakligini, ruchkani qanday ushlash lozimligini o‘rganayotgan jajjigina bolajonlar o‘zlariga berilgan bunday yuksak mas’uliyatni to‘laqonli anglab, uni his qilgan holda “Labbay”, deya javob berishi kerakligini, bunga faqat va faqat yaxshi o‘qibgina qolmay, tarbiyali, odob-axloqli bo‘lish orqaligina erishish mumkinligi ustozlar yordamida tushunadilar.

Mavzuni o‘rganish jarayonida esa hali maktabga kelganiga qo‘l bilan sanoqli kunlar bo‘lsa-da, ular uchun tanish bo‘lgan va oila davrasida oldin ham eshitgan xalq og‘zaki ijodining turli janrlaridan foydalanish mavzuni o‘zlashtirishga yordam bermay qolmaydi. Zero, “Xalq og‘zaki ijodi – insoniyatga tengdosh eng qadimiy san’atdir. Har bir xalqning og‘zak ijodi o‘sha xalqning fe’l-atvori, estetik didi, ruhiyati, urf-odat va an’analari, orzu-intilishlari, geografik sharoiti va tabiatini aks ettiruvchi o‘ziga xos ko‘zgudir.”[2] - deyilgan. Ushbu mavzuni o‘rganish jarayoni vatan mavzusiga oid xalq og‘zaki ijodining turli janrlaridan foydalanish mavzuni o‘zlashtirishni yengillashtiradi va yetarlicha tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Misol uchun: Vatanni ardoqlashga, uni asrab-avaylash targ‘ib etilgan quyidagi xalq maqollaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Vataning tinch – sen tinch.
O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha,
O‘z yurtingda gado bo‘l!
Ona yurting–oltin beshiging.
Vatansiz inson– kuysiz bulbul.
Ona yurting omon bo‘lsa,
Rangi ro‘ying somon bo‘lmas.
Elga xizmat – oliy himmat.

Har birimizning ‘‘kindik qonimiz to‘kilgan joy biz uchun Vatan’’, deyilishi onamiz bitta bo‘lgani kabi Vatanimiz ham bitta bo‘lishini, shuning uchun ham “Ona Vatan”, deya vatanimizni ardoqlashimiz kerakligi, tarixda ota-bobolarimiz Vatanning bir qarichini ham dushmanga bermaslik uchun jang qilganini aytilib, turli videoroliklar orqali ko‘rsatilsa, mavzuni o‘zlashtirish jarayonida yuqori samara beradi, deb ta’kidlaymiz.

Darslikning ikkinchi, mavzusi “Salomlashish odobi” deb nomlanadi. Mavzu matnida “Odamlar nima uchun salomlashishadi?”, “Assalomu alaykum so‘zining ma’nosi nima?” kabi savollar berilgan bo‘lib, mavzu so‘nggida quyidagi salomlashish qoidalari beriladi:

“Bolalar ertalab yuz qo‘llarini yuvib bo‘lgach, ota-onalariga va o‘zidan kattalarga

[1] Ismatova N., Ro’ziyeva D. va boshqalar 1-sinf “Tarbiya” darsligi. –T.: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 64 b.

[2] Ahмedov S. va boshq. Adabiyoт. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. I qism. Uchinchi nashr. – T.: ‘‘Sharq’’ nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2015. – 16 b..

salom beradilar.”, “Xonaga kirgan odam xonadagilarga salom beradi”, “Yurib kelayotgan odam o‘tirganlarga salom beradi”, “Odobli bola doim tabassum bilan: “Assalomu alaykum”, – deb salom beradi”.[3]

O‘z o‘rnida aytish mumkinki, salomlashish qadimiy odat bo‘lib, dunyodagi barcha madaniy xalqlar orasida insoniy munosabat, muomala va muloqotni salomdan boshlashadi. Odatda, salomlashishni kanda qilmaydigan bolalarni “Odobli bola” deb bilamiz. Odob – bu inson kamolotining eng dastlabki omili bo‘lib, u aql buyurgan ravishda harakat qilishi, kishi o‘zini turli xil yomon ishlardan saqlay olishidir. Har bir xalqning salomlashish bilan bog‘liq urf-odatlari bor. Masalan: qo‘l kaftlarini birlashtirgancha peshonalariga tirab, afg‘onlar yuzlarini yuzlariga suykaguncha kift urushtirib salomlashishsa, inglizlar bosh kiyimini olib yengil tabassum qilishadi. Biz o‘zbek xalqida esa salomlashish o‘zgacha ko‘rinishga ega. Ya’ni bir-birimizni ko‘rganimizda “Assalomu alaykum” deya qo‘l olishib ko‘rishamiz. “Assalomu alaykum” iborasi arabcha “Sizga tinchlik tilayman” degan ma’noni bildiradi. Unga javoban “Vaalaykum assalom” iborasi esa “Sizga ham tinchlik tilayman”, deya talqin qilinadi.

Xalqimizda “Salomga yarasha alik” degan ibora ham keng tarqalgan, lekin bu ko‘proq ko‘chma ma’noda ishlatiladi, ammo aslida ham salomga yarasha alik bo‘lishi kerak. Negaki, salom so‘zlari “Assomu alaykum”, “Salom alaykum” va boshqa shaklga keltirilib xato aytilsa, “Sizga o‘lim tilayman” yoki “Sizga yomonlik tilayman” kabi teskari ma’nodagi so‘zga aylanib ketadi. Qolaversa, so‘nggi paytlarda yoshlar o‘rtasida “Assalomu alaykum” o‘rniga “Hello”, “Hi”, “Kimni ko‘ryapman?”, “Salyut”, “Sava”, “O”, “Bormisan?” va shu kabi boshqa salom turlari tarqalganki, biz ulardan voz kechgan holda asriy an’analarimizga bo‘ysinuvchi “Assalomu alaykum” iborasining saqlanib qolishiga o‘z hissamizni qo‘shmog‘imiz darkor.

Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) aytadilar: “Salom – Allohning ismlaridan biridir. O‘rtalaringda salomni yoyingiz. Salomdan avval so‘z boshlamang...” Ikki musulmon uchrashganda ulardan qaysi biri avval salom bersa, o‘sha Allohga sevimliroq bo‘ladi. Avval ko‘rishganga 90, ikkinchisiga esa 10 rahmat beriladi. Salom to‘liq, so‘zlarini buzmay, odob bilan beriladi, (Assalomu alaykum deb), u “salom”, “somaleykum”, “salom berdik”, “privet” kabi buzuq shakllarda bo‘lmasligi lozim![4].

O‘zbek xalqi odob-axloq qoidalariga, ayniqsa, salomlashish odobiga katta e’tibor beradi, shuning uchun, bu mavzu maqollarda, ertaklarda, hatto shoirlarimiz she’rlarida va yozuvchilarimiz asarlarida ham o‘z aksini topadi. Salom haqida xalq og‘zaki ijodidan ko‘plab namunalar keltirish mumkin.

Avval salom, bad’az kalom.
Amri padar – arshdan a’lo.
Salom – farz,
Alik – farz.
Salom – kattadan,
Alif – nuqtadan.
Kattaga salom ber,
Kichikka – kalom.
Inson – odobi bilan,
Osmon – oftobi bilan

[3] Ismatova N., Ro’ziyeva D. va boshqalar 1-sinf “Tarbiya” darsligi – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 64 b.
[4] "Ijtimoiy odoblar". Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf



Odamlarga salomatlik va tinchlik nima uchun kerak, deb o‘ylaysiz?

Salomlashish insonlar orasida mehr-oqibat va do‘stlik tuyg‘ularini paydo qiladi.Chunki salom berish orqali insonlar bir-birlariga salomatlik va tinchlik tilaydilar.

“Salomlashish odobi” mavzusi davomida darslikda yuqoridagi rasm keltirilgan bo‘lib, bu rasm asosida o‘quvchilar og‘zaki hikoya tuzishlari ularning mavzuni o‘zlashtirishiga yaxshi ta’sir qiladi. Rasmga yalmog‘iz kampirning otdagi bolakayga, aynan, salom bergani uchun “Gar saloming bo‘lmaganda, ikki yamlab bir yutardim” – deya xitob qilayotgani tasvirlangan bo‘lib, bunda bolalar bolakayni salomgina yalmog‘iz kampirning yomonliklaridan qutqarib qolganini anglab, salomni sehrli so‘z sifatida biladi. Zero, “Yaxshi so‘z jon ozig‘i, yomon so‘z jon qozig‘i” ekanligini anglab, “Yaxshi gapga ilon ham inidan chiqadi” – degan xulosaga boradi. Salomlashish mavzusiga muqaddas islom dinimizda ham alohida to‘xtalib o‘tiladi. Unga ko‘ra mo‘min bir-birlari bilan salomlashishi sunnat amal hisoblanadi.

Bu haqida “Yaxshi kishilar odobi” kitobida shunday deyiladi: “ Ikki mo‘min bir-biriga duch kelganida, xoh tanish va xoh notanish bo‘lsin, salom berishlari kerak. Salomlashish sunnatdir. Bir kishiga salom berilsa, javobi farzi ayndir, ko‘p kishiga salom berilganida, bir kishi javob qaytarsa, kifoya. Salomni “Assalomu alaykum!” yo “Assalomu alaykum va rahmatullohi va barokatuh!” deb to‘liq aytish kerak. Javobda “Va alaykum assalom!” yoki “Va alaykumus-salamu va rahmatullohi va barokatuh!” deyiladi. Javob, albatta, to‘liq aytiladi, qisqa qilib aytilmaydi. Javob kechiktirilsa, salom beruvchiga eshittirilmasa, farz gardandan tushmaydi. Bir kishi ko‘pchilik mo‘minlarning oldiga kir-

sa, bir kishini emas, barchani qasd qilib salom beradi. Ammo ko‘chada va bozorda bir kishini xoslab salom bersa ham bo‘ladi. Agar bir kishi boshqa kishiga birovdan salom aytib yuborsa, o‘rtadagi odam salomni yetkizsa, darhol javob berish vojib. Agar maktubda salom bitilsa, u holda ham javob lozim bo‘ladi. Salom berishda qo‘l, kaft, bosh bilan ishora qilinmaydi. Bunday qilish makruhdir. Baland ovozda salom beriladi va javob ham salom beruvchiga eshittiriladi. Agar karga yo gungga salom berilsa, ham ovoz chiqariladi, ham qo‘l bilan ishora qilinadi. Agar kar yo gung salom bersa, javobda ham talaffuz, ham ishora bo‘lishi kerak. Katta kichikka, otliq (har qanday ulovdagi odam) piyodaga, yurgan o‘tirganga, boy kambag‘alga, ozchilik ko‘pchilikka salom beradi. Begona kishi chiroyli xotinga salom bermaydi, agar u salom bersa, javob olmaydi. Xotinlarning ham bir-birlariga salom berishlari sunnatdir va javobi shartdir. O‘n bir holatda salom berish makruh, javobi ham lozim emas.

– hojatxonadagi kishiga;

– junub holatdagi kishiga;

– uxlagan odamga;

– hammomdagi yuvuqsiz kishiga;

– taom yeb turgan kishiga (agar taom og‘zida bo‘lsa, salom bermaydi, taom og‘zida bo‘lmasa, salom joiz va javobi lozim);

– xutba o‘qiyotgan imomga;

– azon yo takbir aytib turgan muazzinga;

– namoz o‘qiyotgan kishiga;

– Qur’on o‘qiyotgan odamga;

– duo qilib turgan kishiga;

– hajga ihrom bog‘lagan odam “Labbayka” aytib turganida.

Musulmon kishi o‘zga dindagi odamga salom bermoqchi bo‘lsa, “Assalomu ‘ala manittaba’al huda — to‘g‘ri yo‘lda yuruvchiga salom!” deydi, undaylarga xat yuborilsa, maktub oxirida ham salomni shu tariqada yo‘llaydi, ammo “Assalomu alaykum” demaydi.

Agar g‘ayridin muslimga salom bersa, javobida “Va alaykum”dan boshqa so‘z aytilmaydi. Xayrlashish vaqtida ham salom sunnatdir.”[5]

Xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘zbek xalqi paydo bo‘lgandan buyon u bilan hamnafas yashab kelayotgan, asrlarga teng bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi xalqimiz vakillari uchun har sohada bitmas-tuganmas boy ma’naviy manba sifatida xizmat qilaveradi va kelajak avlodni har tomonlama yetuk, tarbiyali shaxs sifatida ulg‘ayishida dasturulamal vazifasini bajarib yillar, asrlar o‘tsa-da o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahмedov S. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. I qism. Uchinchi nashr. – T.: Sharq nashriyot-matbaa

2. Ismatova N., Ro‘ziyeva D. va boshqalar 1-sinf “Tarbiya” darsligi. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 64b.

3. “Ijtimoiy odoblar”. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf

4. Imomov K., Mirzayev T. va b. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: O‘qituvchi, 1990, – 304 b.

5. Madayev O., Sobitov T. Xalq og‘zaki poetik ijodi (akademik litseylar uchun darslik majmua) – T.: Sharq, 2001, – 206 b.

[5] Muhammad Sodiq Rushdiy “Hidoyat” jurnalining 2003-yil 2-soni

Ozoda YADGAROVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

IRODAVIY XUSUSIYATLARNI MUSTAHKAMLASHDA AUTOTRENING MASHG‘ULOTLARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada insonning irodaviy xususiyatlarini mustahkamlashda yordam beradigan autotrening mashg‘ulotlarini ayrimlari va ularni qo‘llash usullarining afzalliklari bayon etilgan. Inson o‘z oldiga maqsad qo‘yar ekan, maqsadiga ersishish yo‘lida turli ruhiy to‘siqlarga uchrashi tabiiydir, bu kabi muaommolarni yengishda foydalansa bo‘ladigan psixologik mashg‘ulotlarni o‘tkazilish tartiblari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Autotrening, iroda, ruhiy zo‘riqish, autogen mashqlar, relaksatsiya, vizuallashtirish, tasdiqlash, ritm

В этой статье описаны некоторые упражнения аутотренинга, помогающие укрепить силу воли человека и преимущества методов их применения. Когда человек ставит перед собой цель, для него естественно встречать различные психические препятствия на пути к достижению своей цели.

Ключевые слова. Аутотренинг, воля, психическое напряжение, аутогенные упражнения, релаксация, визуализация, аффирмация, ритм.

This article describes some auto-training exercises that help strengthen a person’s willpower and the benefits of their methods of application. When a person sets a goal, it is natural for him to meet various mental obstacles on the way to achieving his goal.

Key words. Auto-training, will, mental stress, autogenic exercises, relaxation, visualization, affirmation, rhythm.

Ma’lumki, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq etishga mo‘ljallangan fanlardan bittasi psixologiya fani hisoblanadi. Psixologik bilimlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga tatbiq etilayotganligi uning nufuzi, mas’uliyati ortayotganligidan dalolat beradi. Istiqlol sharofati tufayli ilmiy yondashuvlarga, oldingi metodologik muammolarga xolisona munosabatda bo‘lish imkoniyati vujudga keldi. Hozirgi kunda psixolog mutaxassislarga nisbatan ijtimoiy buyurtmaning ko‘payishi, psixologlardan nafaqat o‘z fanini chuqurroq bilishni, balki insonlar bilan ishlashda psixologik mash’g‘ulotlardan keng foydalanishni taqozo qilmoqda. Inson o‘z oldiga maqsad qo‘yar ekan, maqsadiga ersishish yo‘lida turli ruhiy to‘siqlarga duch kelishi tabiiy. Biz quyida tavsiya etgan ba’zi autotrening mashg‘ulotlar insonni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishdagi to‘siqlarni yengishda, o‘z irodasini mustahkamlashda, stresslarni yengishda yordam beradi. Shu o‘rinda Autogen mashg‘ulotlar haqida to‘xtalib o‘tsak. Psixologiyada autogen mashg‘ulotlar deganda nimani tushunamiz. Bu kabi mashg‘ulotlarni kimlar va qanday holatda foydalanadi. Autogen mashq (yun. autogenes – o‘zi bajaradigan), autotrening – ichki a’zolar funksiyasi, harakat faoliyati buzilganda o‘z-o‘zini ishontirish va o‘zini-o‘zi boshqarish orqali shu holatdan forig‘ bo‘lishga olib keladigan psixoterapiya (ruhiy davolash) usuli. Bu psixologik usul birinchi bo‘lib, Nemis olimi I. Shuls tomonidan taklif qilingan. Autogen mashq biror texnik moslama (xotira, diqqat trenajeri va boshqalar) yoki kishining o‘z xohish irodasi bilan amal-

ga oshirilishi mumkin. Bu mashg‘ulot nafaqat bemor insonlarga, balki sog‘lom, ammo ruhiy zo‘riqishi bor insonlarga qo‘llasa ham bo‘ladi. Bunda mijozni oyoq-qo‘llarini bo‘sh qo‘yishga, hech narsani o‘ylamaslikka, faqat sog‘ayib ketishga ishontirishga harakat qilinadi. Bu usul boshqa ruhiy davolash usullari bilan birga qo‘shib olib borilganda yaxshi naf beradi. Asosan nerv yuzlarida, ayniqsa uyqu buzilganda qo‘llaniladi. Qisqa muddatli dam olish va ta’kidlaganimizdek, sog‘lom kishilar ham undan foydalanadilar.

Autotrening xayoliy mashg‘ulotning individual dasturi bo‘lib, kishining ma’naviy-ruhiy sohasining rivojlanishi hisoblanadi. U eski stereotiplardan voz kechib, yangi xulq-atvorni yuzaga keltirishni ifodalaydi. Bilamizki, xayol harakatlarimizni boshqarishda ishtirok etadi. Autotrening yordamida kishilarning xayoliy obrazlari turlicha o‘zgarishi mumkin. Ya’ni u o‘z imkoniyatlarimiz doirasidan yuqori darajaga erishish, o‘zimizga bo‘lgan ishonchni oshirish uchun ham autotrening metodikasini qo‘llashni bilishimiz kerak.

Autotrening texnologiyasi nazariy jihatdan t*o*‘rt tamoyilga asoslangan:			
relaksatsiya *Relaksatsiya* – bu tana va psixikaning hamkorlikda ishlashida namoyon bo‘ladi. Relaksatsiya vaqtida kishi bo‘shashadi, hech narsa haqida o‘ylamaydi, diqqatini ichki ovoziga qaratadi	***Vizuallashtirish*** *Vizuallashtirish* – bu *k*o‘rish, eshitish, hid, ta’m va tana sezgilari yordamida ichki obrazni yaratish bilan xarakterlanadi	***Tasdiqlash*** *Tasdiqlash* – bu ichki obraz bilan qayta-qayta takrorlanadigan so‘zlarning uyg‘unlashuvidir. Kishi o‘zini omadining kelishiga, maqsadiga rishishiga ishontiradi. Miyasiga aniq vazifa qo‘yadi. Muayyan so‘z yoki fikrni qayta-qayta takrorlash natijasida, miya kerakli “to‘lqinga sozlanadi”.	***Ritm*** *Ritm – bu* o‘zida ikkita tushunchani mujassamlashtiradi: ya’ni *individual ritm* va *faoliyat ritmi*. Individual ritm kishi tomonidan bajariladigan u yoki bu faoliyatning qanday yuzaga kelishi haqidagi tasavvurdir. Faoliyat ritmi esa, kishining tabiiy ritmi bo‘lib, ayni paytda u yoki bu faoliyatni bajarishi hisoblanadi.

Quyida autotrening texnologiyasining nazariy jihatdan bo‘lingan to‘rt tamoyillariga amal qilgan holda insonlardagi irodaviy xususiyatlarni mustahkamlash mashqlarining ba’zilarini ko‘rib chiqamiz. Bu kabi auto mashg‘ulotlarni o‘tkazishning ma’lum bir talablari ham mavjud.

Aksariyat odamlarda o‘z niyatlarini amalga oshirish uchun iroda yetishmaydi. Irodaviy faollikning ushbu tomonini mustahkamlash uchun autogen mashq jarayonidagi o‘zini o‘zi ishontirishdan foydalanish mumkin. Relaksatsiya holatida (ayniqsa, ertalab, uyg‘ongandan so‘ng) irodaviy faollikni mustahkamlashga qaratilgan o‘zini o‘zi ishontirish mashqlari bajariladi. O‘zini o‘zi ishontirish formulalari mutlaqo individual bo‘lib, ular qisqa bo‘lishi va iloji boricha, tasdiq gap shaklida ifodalanishi lozim. Masalan, ‘‘qaror qat’iy...’’, ‘‘belgilangan vazifani bajaraman...’’, ‘‘diqqatim jamlangan!’’ kabi. Yomon odatlarga qarshi kurashish va nomaqbul xarakterologik xususiyatlarni tuzatish uchun ham o‘zini o‘zi ishontirish usuli foyda beradi. Deylik, juda qattiq gapirishga odatlanganda – “past ovozda gapiryapman’’, haddan tashqari hissiy ta’sirchanlikda – ‘‘men xotirjamman, o‘z his-tuyg‘ularimni oson ushlab turaman”, chekishni tashlashni xohlaganda

“men bemalol chekmay tura otaman... sigaretlar menda nafrat uyg‘otadi” usullaridan foydalaniladi.

Quyida irodaviy xususiyatlarni mustahkamlash mashqlarini ba’zilarini o‘tkazilish tartibini keltirib o‘tamiz:

“Meditativ nafas konsentratsiyasi” – bu mashg‘ulot nafas olish bilan bevosita bo‘gliq bo‘lganligi bois - nafas texnikasi, deb ham ataladi.

Ushbu mashqning maqsadi: to‘laqonli bo‘shashish, nafas jarayonining ritmizatsiyasi, ichki barqarorlik, emotsional reaksiyaga erishish muvaffaqiyati.

Bajarish vaqti: 3-5 daqiqa.

Muolaja yo‘riqnomasi: qulay joylashib oling. Tanangizni bo‘shashtiring. Diqqatingizni nafas olishga qarating. Nafas olishning tabiiy usulini o‘zgartirmang, biroq uni nazorat qiling. O‘zingizga: ‘‘men nafas olishimni his qilyapman, nafas chiqarishimni his qilyapman’’, deb ayting. Mashq bir necha marta bajarilgandan so‘ng parishonlik holati yo‘qolib, diqqatning bir joyga jamlanishi mukammallashib boradi. Mutaxassislarning fikricha, ushbu mashq juda samarali bo‘lib, faqat uni to‘g‘ri qo‘llay bilish lozim.

“Yuqori energiya” mashg‘uloti – bu mashg‘ulot qisqa muddatda o‘tkaziladigan mashg‘ulot bo‘lib, agar to‘g‘ri qo‘llanilsa, insonga yuqori energiya quvvatini hamda kuchini olish berish imkonini beradi.

Ushbu mashg‘ulotningning maqsadi: qisqa muddatli energiya quvvati va uni to‘g‘ri qo‘llay bilish mahoratini shakllantirish.

Bajarish vaqti: 3 daqiqa.

Muolaja yo‘riqnomasi: tungi yorqin osmonni tasavvur qiling. O‘zingiz uchun eng charaqlagan yulduzni tanlang. Mana endi… uni yutib yuboring... u sizning organizmingizda yorilib ketadi va butun tanangizni energiya bilan to‘ldiradi. Energiya organizmning barcha katakchalariga kirib boradi va sizni nimadir qilish, biror narsani o‘zgartirish yoki to‘g‘rilashga undaydi. Oldingizga qo‘ygan maqsadlaringizga erishish yo‘lida paydo bo‘lgan muammolarni bartaraf eta olishingiz uchun energiya, irodaviy kuch beradi. Dadilroq harakat qiling!

“Davolovchi xotira” mashg‘uloti. Bu mashg‘ulot davomida insondan o‘tmishida xotirasida qolgan har bir voqeani sinchiklab ko‘rib chiqishni va tahlil qilishni talab qilganligi bois ham - *kuzatuv texnikasi* deb ham ataladi.

Ushbu mashqning maqsadi: ijobiy emotsiyalar faollashuvi yuzaga chiqarish, ichki resurslarni tiklash, ijobiy tafakkur darajasiga olib chiqish uchun tushkunlik holatidan olib chiqish.

Bajarish vaqti: 5 daqiqa.

Muolaja yo‘riqnomasi: qulayroq o‘tirib yoki yotib oling. Chuqur nafas olib, uni 10 soniya ushlab turing. Shundan so‘ng nafasingizni bir tekisda chiqaring. Mashqni uch marotaba qaytaring va yana odatdagiday nafas oling. Har safar nafas olganingizda tanangiz va ongingiz bo‘shashayotganini his qilasiz…

O‘tmishda siz bilan bog‘liq bir qancha yoqimli hodisalar sodir bo‘lgan. Ammo anchadan buyon ular haqida o‘ylamaysiz. Ularning ayrimlari juda ahamiyatli, ba’zilari esa unchalik emas. Biroq ular sizni xursand qila olgan. Baxtli onlaringiz, daqiqalaringizni, eng orombaxsh lahzalarni bera olgan go‘zal kunlarni hayotingizga qaytaring. O‘sha lahzalarga, omad cho‘qqilarida yurgan vaqtingizga qayting, baxtli o‘tmishingizni his qiling. Xayolan takrorlang, shoshilmang, har bir obrazga o‘zini yana namoyon qilishi uchun imkon bering.

Seans so‘ngida 5 gacha sanang va sekin-asta real hayotga qayting!

Yuqorida sizga tavsiya etib o‘tgam mashg‘ulotlar insonlarga tushkun va stressli vaziyatlardan chiqishlariga yordam beradi. Bundan tashqari **Autogen mashqlarni – xotirjamlik garovi sifatida ta’kidlab o‘tish lozim.** Nemis psixolog olimi Duan Shuls «Standart» deb nomlanuvchi va tasavvurlarni yorqin vizuallashtiruvchi mashqlarni keltirib o‘tadi. Ketma-ketlikda bajariladigan mazkur autogen mashqlar diqqatni aniq maqsad sari yo‘naltirishni talab qilib, insonga xotirjam kayfiyat beradi.

Og‘irlik hissini keltirib chiqarish mashqi. Bunda xayolan mayin ohangda ‘‘men tamoman xotirjamman’’, deyish tavsiya etiladi. Diqqatni xotirjam jamlagan holda 5-6 marta ‘‘mening o‘ng qo‘lim juda og‘ir’’ (chapaqaylar uchun ‘‘mening chap qo‘lim juda og‘ir’’) deya takrorlash kerak. Shundan so‘ng xayolingizda ‘‘men juda xotirjamman’’, deng va bu nafas chiqarish fazasi bilan bir vaqtda aytilishi kerak. Aytilgan gap haqiqatan ham to‘g‘riligini ko‘p marta xayolan tasavvur etish zarur. O‘ng qo‘l mushaklarining bo‘shashishi mashq qilayotgan kishiga og‘irlik sifatida seziladi. Mashq samarasini oshirish uchun o‘ng qo‘lda tosh borligini yoki og‘ir bir narsa uni bosib turganligini tasavvur qilishga harakat qiling.

Og‘irlik hissi paydo bo‘lganligiga ishonch hosil qilish uchun qo‘lni biroz ko‘tarishga harakat qilib ko‘rsa ham bo‘ladi. Mashqlar natijasida og‘irlik hissini avval qo‘lda, keyin har ikkala qo‘l va oyoqlarda bir vaqtning o‘zida, so‘ng butun gavdada his qilasiz. Mashq qiluvchi kishi og‘irlik hissini butun badanda tez va oson hosil qilishga qodir bo‘lganda mashq o‘zlashtirilgan hisoblanadi.

Iliqlik hissini keltirib chiqarish mashqi – bu yuqoridagi mashqning davomi sanaladi. Ya’ni butun tanada og‘irlik hissi hosil qilingach, diqqat-e’tiborni jamlab, xotirjam holda tasavvurda ‘‘mening o‘ng qo‘lim iliq’’ (5-6 marta) va ‘‘men butunlay xotirjamman’’ (bir marta), deb aytiladi. Mashqning samaradorligini oshirish uchun o‘zingizning og‘ir his qilayotgan o‘ng qo‘lingizni iliq suvga solganligingizni tasavvur qilish kerak.

Natijada, iliqlik xuddi og‘irlik hissi kabi ikkala qo‘lga, oyoqlarga va butun gavdaga tarqaladi. Buning uchun yorqin obrazli tasavvurlardan foydalanish zarur.

Yurak faoliyati maromini egallash mashqi. Psixologlar uni bajarish chog‘ida avvalo tomir yoki yurak urishini xayolan hisoblashni o‘rganishni tavsiya qilishadi. Mashq avval chalqancha yotgan holda bajariladi. Bunda o‘ng qo‘l chap nurli arteriya sohasiga yoki yurak sohasiga qo‘yiladi. O‘ng qo‘l mushaklarining zo‘riqishini kamaytirish uchun tirsak ostiga biror yumshoq narsa qo‘yiladi. So‘ngra 5-6 marta ‘‘yuragim xotirjam va tekis urmoqda’’ va bir marotaba ‘‘men batamom xotirjamman’’ deya o‘zini o‘zi ishontirish usulidan foydalanish kerak. Mashqni juda xotirjam tarzda, yurak faoliyatiga hech bir diqqatni jamlamagan holda bajarish kerak. Yuragingiz ishini sezishga intilish kerak emas. Mashqning samarali kechishi yuqorida keltirib o‘tgan tavsiyalarimizning samarasiga bog‘liq albatta.Ammo asabiy, ta’sirchan, o‘z sog‘lig‘i haqida ortiqcha g‘amxo‘rlik qilishga moyil kishilarga ushbu mashq tavsiya qilinmaydi.

Nafas maromini boshqarishni egallash mashqi yuqoridagilarning davomi hisoblanadi. Bu bosqichda ‘‘butunlay xotirjam nafas olyapman’’ va ‘‘men butunlay xotirjamman’’ deb xayolda 5-6 marta takrorlanadi. Xotirjam va bir maromda nafas olayotganingiz mashqning samarali o‘zlashtirilganini bildiradi.

Qorin bo‘shlig‘i va quyosh tuguni sohasida iliqlik hissini keltirib chiqarish – mashqlar orasida eng qiyin. Quyosh tuguni, vegetativ asab tizimining eng muhim tuguni – ‘‘qorin miyasi’’ bo‘lib, u oshqozon orqasida joylashgan. Uning o‘rnini ko‘krakning quyi nuqtasi va kindik o‘rtasidagi joyni topib, aniq belgilash mumkin. Bu yerda oshqozon ortida qorin bo‘shlig‘i organlarining faoliyatini, ular orqali sezgimiz va kayfiyatimizning

muhim komponentlarini boshqaruvchi asab tugunlarining muhim markazi joylashgan. Ushbu mashqda yuqorida bosqichlardan so‘ng 5-6 marotaba ‘‘mening quyosh tugunim issiqlik chiqaryapti’’ yoki ‘‘Qornim yoqimli iliqlik tuyyapti’’ va bir marta ‘‘Men butunlay xotirjamman’’ deb xayolan takrorlash kerak. Bunda diqqat quyosh tuguni sohasiga jamlanishi kerak. Aniqroq his-tuyg‘ularga ega bo‘lish uchun avvalgi mashqlardagi kabi obrazli tasavvurlardan foydalanish (masalan, qorin ustida quyosh tuguni sohasida qandaydir iliq narsa yotganligini tasavvur qilish) yaxshi samara beradi. Mashq yakunida tananing qorin sohasida iliq his-tuyg‘u paydo bo‘ladi.

Peshona sohasida sovuqlik hissini keltirib chiqarish mashqi – barcha autogen mashqlarning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Ushbu jarayonda ham xayolan “mening peshonam yoqimli darajada sovuq” (5-6 marta) va ‘‘men butunlay xotirjamman’’ (bir marta), deyiladi. Aytish kerakki, mashqni o‘zlashtirish ancha qiyin, bunda diqqat peshona va chakka sohalariga jamlanadi. Obrazli tasavvurlardan foydalanish (masalan, peshonaga salqin shabada urayotganligini xayol qilish) yaxshi samara beradi. Peshonaga yengil salqinlik hissi paydo bo‘lsa, demak, muolajalar ijobiy ta’sir qilibdi. Yuqoridagi mashqlarni bajargandan so‘ng, o‘zingizga o‘zingiz ‘‘xotirjamlik...’’, ‘‘og‘irlik...’’, ‘‘iliqlik...’’, ‘‘yurak va nafas xotirjam...’’, ‘‘quyosh tuguni iliq...’’, ‘‘peshona sovuq...’’ deyishingiz kerak bo‘ladi. Eng muhimi, barcha bosqichlarda diqqatni jamlash xotirjam ‘‘passiv’’ xususiyatga egaligini ta’kidlash zarur. Ammo kuch-quvvatni faqat diqqatni jamlashga sarflash ham kerak emas, chunki autogen mashqlar xotirjam, ortiqcha zo‘riqishsiz bajarilishi kerak.

Psixologlarning tavsiyasiga ko‘ra, har bir mashqni ikki hafta mobaynida kuniga 2-3 martadan takrorlash kerak va bunga 12 hafta sarflanadi. Masalan, yuqorida berilgan mashqlardan birinchisi 12 hafta davomida, ikkinchisi – 10, uchinchisi – 8, to‘rtinchisi – 6, beshinchisi – 4, oltinchisi – 2 hafta davom etadi. Bilamizki, o‘zini o‘zi tarbiyalashi natijasida insonning hissiy sohasi, irodasi va hatto, fe’l-atvori jiddiy o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. Autogen mashqlar diqqatning barqarorligini ko‘tarishga, e’tiborni jamlash orqali aqliy imkoniyatlardan yaxshiroq foydalanishga, reminissensiya jarayonlarini yengillashtirishga hamda obrazli tasavvurlarni erkin ishlatishga ham imkon beradi.

Eng muhimi, yuqorida keltirilgan autotrening mashg‘ulotlari xodimga nafaqat sog‘lig‘ini mustahkamlash, balki ishchanlik qobiliyati va o‘z imkoniyatlaridan yanada to‘laroq foydalanish imkonini yaratadi. Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda, shu narsani ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, bugungi tez va shiddat bilan rivojlanib kelayotgan davrdagi har qanday qiyinchiliklarni yengishda irodaviy xususiyatlarni mustahkamlashda autotrening mashg‘ulotlarini o‘rni beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Autogen_mashq
2. Umumiy psixologiya. E. G‘oziyev, 2004 yil, 1 kitob. darslik
3. Umumiy psixologiya. A.K. Shamshetova, R.N. Melibayeva, X.E. Usmanova,
4. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – T., 2002.
5. Гришина Н.В. Психология конфликта. – СПб., 2005.
6. Karimova V. Psixologiya. – T., 2002.
7. Маерс Д. Сотсиалная психология. – СПб., 2005.

Muhayyo KENJAYEVA,
Nizomiy nomidagi TDPU, “Boshlang‘ich ta’limda
ona tili va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti v.b. PhD

ONA TILI FANINI O‘QITISHDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada 6-sinf o‘quvchilarida ona tili fanida tayanch va lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim texnologiyalarning o‘rni, qo‘llanilish ahamiyati, tanishuv texnologiyasi natijasida o‘quvchilarning qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, muloqot yuritishdagi to‘siqlarni bartaraf etishga yordam berishi hamda matnni tahlil qila olish va muomala qilish ko‘nikmalarini takomillashtirish to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Tayanch va lingvistik kompetensiya, tanishuv texnologiyasi, matn tahlili, muomala qilish ko‘nikmalari, o‘quvchi qobiliyati, do‘stona munosabat va erkin fikrlash.

В этой статье обсуждается роль образовательных технологий в развитии базовых и лингвистических компетенций на родном языке учащихся 6-х классов, важность их применения, использование технологии, чтобы помочь учащимся реализовать свои способности, преодолеть барьеры в общении, а также улучшить анализ текста и навыки общения.

Ключевые слова. Базовая и лингвистическая компетенция, технология знакомств, анализ текста, навыки общения, умение читать, дружелюбие и свободное мышление.

This article discusses the role of educational technologies in the development of basic and linguistic competencies in the native language of 6th grade students, the importance of their application, the use of acquaintance technology to help students realize their abilities, overcome barriers to communication, and improve text analysis and communication skills.

Key words. Basic and linguistic competence, dating technology, text analysis, communication skills, reader ability, friendliness and free thinking.

Jahonning bir qancha ilg‘or mamlakatlarida hamda O‘zbekiston Respublikasi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida tayanch va lingvistik kompetensiyaning inson muloqot amaliyoti va faoliyatidagi ahamiyati, tilni o‘rganishda testlardan foydalanishga kommunikativ yondashuvlar va uni innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Dunyo miqyosida ta’lim sifatini oshirish, moduli ta’limni tashkil qilish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy qilish orqali ta’limni axborotlashtirish sharoitida o‘quvchilarda kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasining tizimi ishlab chiqilgan. BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) ning ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha “Ma’rifiy, ilmiy va madaniy mazmundagi materiallarni olib kirish” to‘g‘risidagi bitimida dunyo miqyosida o‘quvchilarni o‘qitish sifatiga nisbatan teng sharoitlar yaratish, ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifa qilib qo‘yilmoqda.

Respublikamiz ta’lim muassasalarida o‘quvchi-yoshlarning erkin, mustaqil fikrlashi, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo‘lishi, dahldorlik va ijtimoiy faollikni yanada rivojlantirish borasida ta’limning sifat samaradorligini oshirishga ahamiyat be-

rilmoqda. Bu esa shaxsning intellektual qirralarini shakllantirishda, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga zamin yaratadi.

Ferdinand de Sossyur "tilshunoslik fanining asosiy vazifasi til lingvistikasini o'rganishdir", deb ta'kidlaydi. U lingvistikani ichki va tashqi lingvistikaga ajratib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi, tilshunoslik fanining asosiy vazifasi ichki lingvistikani o'rganishi kerak, deb hisobladi. Bu fan qadimdan yozuvni yaratish, o'qitish, boshqa tillarni tushunish kabi amaliy ehtiyojlarni qondirish uchun xizmat qilgan. Hozirda esa uning amaliy ahamiyati yanada ortib, ona tilini o'qitish, chet tillarni o'rgatish, tarjima qilish, o'qitishni dasturlash kabi masalalar ham bu fanning vazifalariga aylandi.

O'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo'llashga o'rgatadigan kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan davlat ta'lim standarti ta'lim jarayoniga qo'llanilmoqda. Kompetensiyaviy ta'lim o'quvchilarning ma'lum bilimlar yig'indisini egallashnigina emas, balki shaxsni rivojlantirish, anglash va yaratish qobiliyatlarini o'stirishni mo'ljallaydi. Til ta'limini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda shu fanning o'ziga xosligi mazmunidan kelib chiqqan holda tayanch va har bir fanga doir kompetensiyalarni egallashi belgilangan. Bu tayanch kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

• kommunikativ kompetensiya – o'quvchining ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda muloqotga kirisha olishi, muomala madaniyatiga amal qilishi, moslashuvchan va hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatiga ega bo'lishi;

• axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi – darslik, o'quv qo'llanma va mediamanbalar (radio, televizor, internet va boshqalar)dan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, media madaniyatga ega bo'lish;

• o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi – doimiy ravishda o'zini o'zi mustaqil va ijodiy rivojlantirish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, hayotiy tajribasini mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, mustaqil qaror qabul qila olish;

• ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiya – sinfda, maktabda, oilada, mahallada va jamiyatda o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etish, o'zining burchini bilish, unga rioya qilish;

• milliy va umummadaniy kompetensiya – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, sog'lom turmush tarziga amal qilish;

• matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda jadvalli ma'lumotlarni o'qiy olish.

Ona tili faniga tegishli bo'lgan nutqiy va lingvistik kompetensiyalar quyidagilar:

• o'quvchilarni fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

• o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologoiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish;

• ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrini to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limning asosiy maqsadi – kirishuvchan, yuzaga kelgan muammoning yechimiga turli variantlar topa oladigan ijodkor o‘quvchini tarbiyalashdir.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar tadbiqiy asosini shaxsiy faoliyatli yondashuv, tanqidiy-ijodiy fikrlash, muammolarni xal etish, qaror qabul qilish va jamoada hamkorlikni qaror toptirishga oid pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqarish extiyojini yuzaga keltirmoqda.

O‘quv jarayonida ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas’uliyatni his etish, tahlil qilish, qo‘shimcha vositalardan unumli foydalanishga, eng asosiysi o‘qishga, fanga, o‘zi tanlagan kasbiga nisbatan qiziqishini kuchaytiradi, ta’limda samarali natijalarga erishiladi. Ta’lim texnologiyalari qo‘llanilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilar egallayotgan axborotlarni izlab topishga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratiladi.

Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda “Tanishuv” texnologiyasini hamda texnologiyaning maqsadini namuna sifatida keltiramiz:

- o‘quv jamoasi ishtirokchilarini tanishtirish, samimiy do‘stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish;
- o‘quvchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish;
- sinf xonada ishlash uchun qulay sharoitni vujudga keltirish.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi. Mashg‘ulot boshida o‘qituvchi o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratadi. Har bir kichik guruhga yilning bir faslida tug‘ilgan o‘quvchilarni kiritadi va quyidagi topshiriqni beradi:

❖ o‘zingiz tug‘ilgan faslingizga xarakteristika bering (badiiy–musiqiy, sahnali, hazil-mutoyibali va hokazo ko‘rinishda);

❖ yilning shu faslida tug‘ilganlarning umumiy xarakteri hamda guruh qatnashchilarning o‘xshashliklari va o‘ziga xos tomonlari bilan tanishtiring;

❖ ushbu faslga tarif bering;

❖ boshqa fasldagi guruh qatnashchilariga bag‘ishlangan fikr yoki bag‘ishlov yarating va ijodiy tilaklar bildiring.

O‘qituvchi o‘quvchilarni taqdimot qoidalari bilan tanishtiradi. O‘quvchilar berilgan topshiriqni o‘z vaqtida bajarishi uchun tayyorlanishga vaqt ajratiladi va ular uchun sharoit yaratiladi. Guruhlar tayyorgarlikni boshlaydilar. Ushbu chiqish adabiy-musiqiy kompozitsiya shaklida ham tayyorlanishi mumkin. “Tanishuv” texnologiyasining birinchi bosqichi orqali o‘quvchilarda o‘zaro tanishish va do‘stona munosabatda bo‘lish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi.

Ikkinchi bosqichda guruhlar tayyorlagan ijodiy chiqishlarini namoyish etadilar. Bunda o‘quvchilar 6-sinf ona tili darsligida berilgan mashqlardagi matnlar bo‘yicha fikr mulohaza bildiradilar. Ular matnlarga sarlavha qo‘yib, har biriga izoh beradilar. Dastlab matn turlari: “Hikoya matni”, “Tasviriy matn” va “Muhokama matni” bo‘yicha yozilgan matnlarni o‘qib tahlil qiladilar.

Birinchi guruh: Hikoya matni haqida

Ikkinchi guruh: Tasviriy matn haqida

Uchinchi guruh: Muhokama matni haqida

1-guruh. Hikoya matni, ”Iftixor”.

‘‘Nihoyat, Londondan Toshkentga uchadigan bo‘ldik. Havo kemasiga chiqishimiz

bilan osoyishta va yoqimli ovoz yangradi: ‘‘Assalomu alaykum, xonimlar va janoblar! Sizlarni ‘‘O‘zbekiston havo yo‘llari’’ milliy aviakompaniyasi nomidan muborakbod etamiz!’’ Rostini aytsam, ko‘zimdan yosh chiqib ketdi. Bu so‘zlar mening tilimda, ona tilimda jarangladi! Vatanimdan minglab chaqirim narida, tag‘in yuzlab xorijiy yo‘lovchilar o‘tirgan kemada!.. Aqalli mana shu holatning o‘zi uchun Istiqlolga ming bora ta’zim qilishga tayyorman!” (O‘tkir Hoshimov)

Birinchi guruh ishtirokchilari “Iftixor” sarlavhasi bilan berilgan matn, nega aynan hikoya matnida bo‘lgani va qanday hikoya berilganining ta’rifini aytadi.

2-guruh. Tasviriy matn, “Orol va daryo”.

“Orol o‘sha-o‘sha. Uzoqdan turib qarasang, ko‘z to‘ymaydi. Ilon kabi buralib o‘quvchi daryo shu yerga kelganda, ikkiga ajralgan, uch chaqirimdan so‘ng yana birlashadi. Qo‘shkokil yanglig‘ irmoq orasidagi orol esa yashnab turibdi. Na’matak, yovvoyi jiyda, baqaterak joy talashgandek ayqash-uyqash bo‘lib ketgan. Suvga egilib turgan jiyda barglari kumush kabi tovlanadi. Atrof sokinlik hukmida. Daryoning oqishi ham, oroldagi qalin daraxtzorning epkinda tebranishi ham ulug‘vor.” (Tohir Malik)

Ikkinchi guruh ishtirokchilari “Orol va daryo” sarlavhali tasviriy matnda nima berilgani va unda nimaning tasviri yoritilganini izohlaydi.

3-guruh. Muhokama matni, “Navro‘z”.

Navro‘z o‘zbek xalqining shunday bir qadriyatiki, u millatning borligini, ulug‘ligini namoyon etadi. Navro‘z hech bir shubhasiz, xalqimiz bilan birga yashab, birga ulg‘ayib, taraqqiy topgan bayramdir. Xalq tarixi va madaniyatining ajralmas qismi bo‘lgan Navro‘z qanchalik ko‘hna ildizlarga ega bo‘lsa, ayni paytda shunchalik har yili biz bilan yonma-yon yangilanib, qayta quvvatga kiradi. Ushbu bayramga munosabat xalqimizning o‘tmishi, buguni va kelajagiga munosabatning ramzi sifatida ham namoyon bo‘ladi (Sh.Turdimovning ‘‘Hikmatlar xazinasi’’ kitobidan)

Uchinchi guruh ishtirokchilari “Navro‘z” sarlavhali matnda nimaning muhokamasi berilgani va matn nima haqida ekanligini izohlaydi.

Har bir chiqish tugagach, boshqa guruh qatnashchilari namoyish etilgan ijodiy ishni to‘ldirishlari va mavzuga doir savollar berishlari mumkin. Savollar matn bo‘yicha bo‘lib, ular quyidagicha:

1. Hikoya matni deb nimaga aytiladi?

Javob: Hikoya matnida muayan predmet yoki voqea-hodisalar haqida xabar beriladi, hikoya qilinadi.

2. Tasviriy matn deb nimaga aytiladi?

Javob: Muayyan predmet yoki voqea-hodisalar ta’riflangan, tavsiflangan matn tasviriy matn hisoblanadi. Tasviriy matn badiiy adabiyotda ko‘proq qo‘llanadi.

3. Muhokama matni deb nimaga aytiladi?

Javob: Muayyan predmet yoki voqea-hodisalar haqidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan matn muhokama matn hisoblanadi. Muhokama matni darsliklar va ilmiy kitoblarda ko‘proq qo‘llanadi.

Oxirgi bosqichda o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasar ekan, sinfxonaga quyidagi savollar bilan murojaat qilib, o‘quvchilarni ochiq muloqotga chaqiradi:

– Guruh ishtirokchilari, bir-birlaringiz haqida nimalarni bilib oldilaringiz?

– O‘quvchilarning muomala madaniyati qanday bo‘lishi kerak?

– Qaysi savollar va muammolar hal qilindi?

– Dars davomida matnning qanday turlarini tushunib oldik?

– Har biringiz o‘zingiz uchun qanday xulosa chiqardingiz?

– Demak biz, qandaymiz?

Berilgan savollarga o‘quvchilar o‘z fikr mulohazalarini bildiradi. Ushbu ochiq muloqot orqali har bir o‘quvchida erkin muloqotda bo‘lish va o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi rivojlantiriladi.

“Tanishuv” texnologiyasi natijasida o‘quvchilarning quyidagi qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish mumkin:

- o‘quvchilar bir-biri bilan do‘stona munosabatda bo‘ladi;
- muloqot yuritishdagi to‘siqlarni bartaraf etishga yordam beradi;
- matnni tahlil qila olish va muomala qilish ko‘nikmalari takomillashtiriladi.

Bunda o‘quvchini ta’lim tizimiga moslashtirmay, balki o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishi uchun imkon beriladi. O‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil o‘qish, o‘zligini namoyon etish, faollashtirish xususiyatlari asosida anglash, mushohada qilish, o‘z amaliy faoliyatida sinab ko‘rish, yangi g‘oya va fikrlarni bildirish, mavjud muammolar yechimining samarali yo‘llarini qidirish uchun erkinlik berish, uning ijodiy, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi. Bunday vaziyatda har qanday o‘quvchi o‘ziga xos takrorlanmas tabiati, xarakter xususiyatini faollashtirishga, namoyish qilishga intiladi.

Shu sababli quyidagi amaliy taklifni bildirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1. Oltinchi sinfda “Tanishuv” texnologiyani dars jarayonida muntazam qo‘llash o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonch va mustaqil fikrlashni oshiradi. Natijada o‘quvchilardagi qo‘rquv, ikkilanish holatiga barham beriladi.

2. Har bir o‘quvchining fikrini diqqat bilan tinglash hamda matnni tahlil qilishiga e’tiborni qaratish kerak.

Buning uchun o‘qituvchi tayyor elektron resurslar yordamida dars o‘tish bilan chegaralanmasdan, balki zamonaviy ta’lim texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanib, fan va uning tarkibiga kiruvchi bilimlar mazmunini o‘quvchilarga yetkazish malakasiga ega shaxs sifatida faoliyat olib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. YUNESKO xalqaro me’yoriy hujjatlari. // O‘zbekcha nashrining mas’ul muharriri L. Saidova. – T.: “Adolat”, 2004. –19-62 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 187-son Qarori.

3. Фердинанд де Соссюр. Курс общей лингвистики. Извлечения. Публикуется по книге: В.А. Звегинцев. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях. Часть1. – М.: Издательство “Просвещение’’,1960.

4. Qurbonova X. Ona tili ta’limi mazmunini yangilashning lingvometodik asoslari. Pedagogika fanlari bo‘yicha dissertasiyasi. – Buxoro. 2005. – 155 b.

5. Ishmuhamedov R.J., Mirsolieva M.T. “O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari”. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2014.

6. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – T.: “Tasvir” nashriyoti, 2017.

7. Hoshimov O‘. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2015.

Dilnoza KARIMOVA,
Namangan viloyati Norin tumani XTB, I-toifali o‘qtuvchisi
Nilufar BOSTANOVA,
Andijon mashinasozlik instituti assistenti

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA INTELEKTUAL SALOHIYATNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Davlatimiz bugungi kunda intellektual salohiyatli avloddan O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori bo‘lishdek muhim va istiqbolli ezgu-niyatlar qilmoqda. Maqolada shu niyatlarni amalga oshirishda olib borilgan ishlar va istiqbolli rejalar haqida to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, ta’lim sifatini oshirishda intellektual salohiyatning o‘rni va ahamiyati alohida ta’kidlangan.

Kalit so‘zlari. Davlat, ta’lim, sifat, intellektual, salohiyat, innovatsion, g‘oya, texnologiya, strategiya, raqobat, axborot, maktab, boshlang‘ich, pedagogika, mutaxassislik, standart.

Сегодня наше государство из поколения в поколение с интеллектуальным потенциалом делает такие важные и перспективные начинания, как фундамент развития Узбекистана. В статье рассказывается о проделанной работе и перспективных планах по реализации этих намерений. Особо подчеркивается роль и значение интеллектуального потенциала в повышении качества образования.

Ключевые слова. Государство, образование, качество, интеллектуальный, потенциальный, инновационный, идея, технология, стратегический, конкуренция, информация, школа, начальное образование, педагогика, специальность, стандарт.

Today, our state, from generation to generation with intellectual potential, is making such important and promising initiatives as the foundation for the development of Uzbekistan. The article describes the work done and long-term plans for the implementation of these intentions.The role and importance of intellectual potential in improving the quality of education is emphasized.

Key words. State, education, quality, intellectual, potential, innovative, idea, technology, strategic, competition, information, school, primary, pedagogy, specialty, standard.

Hozirgi kunda dunyoda inson kapitali, intellektual salohiyat, innovatsion g‘oyalar, yuqori texnologiyalar shiddatli va barqaror taraqqiyotning mustahkam poydevori hisoblanadi. Jahonning tobora ko‘proq mamlakatlari axborot, bilim va innovatsiyalarga asoslangan, “axborotlashgan jamiyat”, “bilimlar iqtisodiyoti”, “raqamli iqtisodiyot” bunyod etishga qaratilgan rivojlanish modelini tanlayotgani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga taqdim etgan Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz”.

Boshqacha aytganda, mamlakatimizning rivojlangan davlatlar safidan o‘rin olishini ta’minlashdek ezgu maqsadimizga faqat ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat va innovatsiyalarga tayangan holdagina erishish mumkin. Shu munosabat bilan zamonaviy bilimlarni egallash, ma’rifatli va yuksak ma’naviyatli bo‘lishga intilish har birimizning hayotiy

maslagimizga aylanishi lozim. Binobarin, mamlakatimizda inson kapitaliga investitsiya jalb etish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani bejiz emas.

Har qaysi davlat va xalq avvalo intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratli ekanidan kelib chiqib, O‘zbekistonda 2020-yil “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”, deb e’lon qilindi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarni xalq manfaatlari yo‘lida izchil davom ettirish maqsadida 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Dastur o‘z mohiyatiga ko‘ra keyingi yillarda yurtimizda ilm-fan va ma’rifat sohalarini rivojlantirish, yosh avlodni chuqur bilimli, madaniyatli va yuksak ma’naviyatli insonlar etib tarbiyalash, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish borasida bir necha yo‘nalishda olib borilayotgan tizimli ishlarni tubdan yangi bosqichga ko‘tarishga qaratildi va amalga oshirildi.

Bugungi kunda aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Shu bois, “kreativ jamiyat” barpo etish, yuksak intellektual salohiyatli va ilm-fanning aniq sohalari bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lgan kreativ fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlash ustuvor vazifalarimiz sirasiga kiradi. Butun ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar doirasida barcha fuqarolarni keng qamrovli va sifatli ta’lim bilan ta’minlash, har bir insonning umri davomida bilim olish imkoniyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi say-harakatlar zamirida ham xuddi shu ezgu intilishlarimiz o‘z mujassamini topgan.

Tarbiyalayotgan yosh avlodimiz, qo‘yilgan maqsadga javob bergan holatga kelgandan keyin amaliy faoliyatga (mehnat bozori)ga yo‘llanma beriladi, aks holda qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilanib, intellektual salohiyatli avlod tarbiyasi maqsadiga mos qo‘shimcha ta’lim-tarbiya olib boriladi.

Barkamol avlod tarbiyasining qayd etilgan ilmiy asoslangan ta’lim-tarbiya jarayonida, ayniqsa ta’limni boshqarishda istiqbolli natijalarni qo‘lga kiritish imkonini beradi va eng asosiy “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”, degan ezgu niyatlarimizning og‘ishmay amalga oshishiga fundamental asos bo‘ladi.

Avvalambor, ta’lim sohasining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish choralari ko‘rilmoqda. Keyingi bir necha yilning o‘zida 160 dan ziyod normativ-huquqiy hujjat, shu jumladan, ‘‘Maktabgacha ta’lim va tarbiya” to‘g‘risida’’gi qonun hamda 2030-yilgacha ta’lim tizimining alohida bo‘g‘inlarini rivojlantirish bo‘yicha uchta kontsepsiya qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasida bu borada belgilangan vazifalarni bajarishda shunday sharoitlardan kelib chiqqan holda izchil ish olib borilmoqda. Xususan, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, ma’naviy va jismoniy rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratish, maktabgacha ta’lim tizimi bilan imkon qadar ko‘proq bolalarni qamrab olish, soha pedagoglari va mutaxassislari malakasini oshirish, nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari tizimini rivojlantirish choralari ko‘rilmoqda.

Natijada hozirgi kunda mamlakat bo‘yicha 3 - 7 yoshdagi har 100 nafar bolaga maktabgacha ta’lim muassasalarida 28,1 ta o‘rin to‘g‘ri keladi. Joriy yil yakuniga qadar maktabgacha ta’lim muassasalari qamrovi darajasini 60 foizgacha yetkazish va bunda 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimini tatbiq etish ishlari jadal bormoqda. 2030-yil yakuniga qadar 3 - 7 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalari tizimi bilan qamrash darajasini 80,8 foizga yetkazish, soha pedagog xodimlari sonini esa 247,7 ming nafarga oshirish ko‘zda tutilgan.

Yurtimizda xalqaro tajriba va hozirgi davr talablari asosida umumiy o‘rta ta’limning sifatini oshirishga e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 11 yillik umumiy o‘rta ta’lim qayta tiklandi.

Keyingi yillarda 160 dan ortiq umumta’lim maktabi, shuningdek, Prezident maktablari, ulug‘ allomalarimiz nomlari bilan ataladigan ixtisoslashgan maktablar, ijod maktablari, “Temurbeklar maktabi” timsolidagi innovatsion maktablar barpo etildi. Mavjud umumta’lim muassasalarining kamida 3 foizini – joriy yilda, qariyb 50 foizini 2030-yilga qadar “Zamonaviy maktablar”ga aylantirishga qaratilgan mutlaqo yangi konsepsiya amalga oshirilmoqda..

Farzandlarimizning xorijiy tillarni, shuningdek, informatika, matematika, fizika, ximiya, biologiya kabi muhim va davr talabiga mos fanlarni chuqur o‘zlashtirishlari ta’minlanmoqda. Ayni paytda maktablarda aniq fanlar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarga ta’lim vaqtining atigi 10 foizi ajratilayotgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkichni tadrijiy asosda rivojlangan mamlakatlar darajasiga, ya’ni 30, 50 foizga yetkazish mo‘ljallanmoqda. Shu maqsadda 70 mingdan ziyod sinf xonalari zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlanadi. Bundan tashqari, maktab o‘quv dasturlari ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirilib, darsliklar va o‘quv adabiyotlarining sifati yanada oshirilmoqda.

O‘zbekistonning 2030-yilga kelib PISA – Xalqaro darajada o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha dastlabki 30 ta yetakchi mamlakat safidan joy olishini ta’minlash borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, uzluksiz ta’lim, shuningdek, soha mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimlari mazmun-mundarijasini tubdan yangilash rejalashtirilgan.

Prezidentimizning mashhur besh tashabbusini amaliyotga tatbiq etish doirasida ‘‘Barkamol avlod’’ Respublika va mintaqaviy bolalar maktablari tashkil etildi. Maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini oshirish uchun ochilgan ushbu muassasalarda “STEAM-ta’lim” dasturi tatbiq etilmoqda (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – muhandislik, Art – san’at, Mathematics – matematika).

Oliy ta’lim tizimida ham tubdan takomillashtirish dasturlari amalga oshirilmoqda. Oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda va yangilanmoqda, ular zamonaviy ilmiy-o‘quv laboratoriyalari va AKT vositalari bilan jihozlanmoqda. Ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalar, xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tatbiq etilmoqda.

Oliy ta’lim qamrovi darajasini 50 foizdan ham oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bunda, jumladan, oliy ta’lim tizimida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yuzaga keltirish, sirtqi va kechki ta’lim shakllarini tiklash masalalariga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Bundan tashqari, oliy o‘quv yurtlarining bosqichma-bosqich asosda akademik va moliyaviy mustaqillikka erishishi ta’minlanayotir. Joriy yilda 10 ta oliy o‘quv yurti o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tdi, tanlov asosida saralangan 5 ta oliy o‘quv yurtini esa xorijning nufuzli oliy o‘quv yurtlari bilan yaqin hamkorlikda transformatsiya qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yanada mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda ilm-fanning rolini kuchaytirish, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish, fan bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani mustahkamlash, ilmiy faoliyat va olimlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni davrning o‘zi talab qilmoqda.

Keyingi uch yilda ilm-fan sohasini moliyalashtirish hajmi to‘rt barobar oshdi. Ilmiy xodimlarning oylik maoshlari miqdori uch barobar ko‘paydi, fan doktorlari va nomzod-

lari uchun alohida ustama haqlar belgilandi. Joriy yildan boshlab Fanlar akademiyasi tizimidagi tashkilotlar bevosita Davlat byudjetidan moliyalashtirilmoqda.

Yaqin orada ishlab chiqiladigan ilm-fan sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasida o‘rta va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan ilmiy, texnologik va innovatsion rivojlanish uchun zarur chora-tadbirlar o‘z aksini topadi. Chunki bugun yurtimizda ilm-fan sohasining aniq ustuvor yo‘nalishlari belgilab olingan, matematika, fizika, ximiya va biologiya, geologiya sohalaridagi ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish hamda fundamental va innovatsion tadqiqotlar uchun maqsadli grantlar taqdim etish mexanizmlarini tubdan qayta ko‘rib chiqish choralari rejalashtirilgan.

Zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar barcha sohalarda yetakchi o‘rinni egalladi. Bu barqaror taraqqiyotga, har tomonlama yuksalishga erishishning zarur shartidir.

Shuning uchun mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga o‘tish yaqin besh yillikning ustuvor vazifasi etib belgilandi va joriy yilda bu yo‘nalishda tub burilish yasaydigan o‘zgarishlar amalga oshirilayotir. Xususan, ‘‘Raqamli O‘zbekiston – 2030’’ dasturi ishlab chiqilayapti. Qurilish, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, transport, geologiya, kadastr, sog‘liqni saqlash, ta’lim, arxiv ishlari kabi sohalar to‘la raqamlashtiriladi.

Toshkentda bunyod etilayotgan zamonaviy infratuzilmaga ega IT-park misolidagi ijobiy tajriba asosida Nukus, Buxoro, Namangan, Samarqand, Guliston va Urganch shaharlarida ham xuddi shunday parklar tashkil etiladi. Axborot texnologiyalari sohasi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda “1 million dasturchi” loyihasi amalga oshirildi.

Shu nuqtayi nazardan, butun dunyoda pandemiya inqirozi oqibatlari tufayli ta’lim sohasida ko‘plab muammoli vaziyatlar kuzatilgan murakkab bir davrda O‘zbekistonda yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani diqqatni tortadi. Mamlakatimizda bolalar va yoshlarning ta’lim olishga bo‘lgan huquqlarini ro‘yobga chiqarish va ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish jarayonlari “Yangi O‘zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi” g‘oyasi asosida tubdan takomillashtirilayotgani bu fikrning amaliy ifodasidir.

Maktablarda ta’lim sifati hamda jamiyatda o‘qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023-yildagi eng asosiy vazifalardandir. Ayni yo‘nalishda:

– o‘qituvchilarning maqomini, ularning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishni Konstitusiyada alohida belgilash;

– boshlang‘ich sinflarda mutlaqo yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar bo‘yicha o‘qitishni yo‘lga qo‘yish;

– bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarini puxta o‘zlashtirib, kompyuterda ishlashni o‘rganib chiqishiga erishish;

– farzandlarimizni kasb-hunarlarga, san’at va madaniyatga qiziqtirish;

– o‘quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish zarur.

Mamlakatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, “Mana, maktablarimizga qanday muhit kirib kelishi kerak!”

Barkamol avlod tarbiyasi uchun qayd etilgan ta’lim tizimi tarkibi Davlat ta’lim standartlari talabi asosidagi kadrlar tayyorlashning uzviy tarkibiy qismi bo‘ladi va undan foydalanib jahon ta’limi talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash mumkin. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni joriy etishning ilmiy-uslubiy ta’minoti bevosita intellektual salohiyatli avlod tarbiyasi jarayoni ilmiy-uslubiy ta’minotining asosiy qismi-

dir. Shu sababli kadrlar tayyorlash milliy modelini joriy qilishdagi ilmiy-uslubiy ta'minotlarni quyidagi uch asosiy qismga bo'ldik:

– imiy-uslubiy ta'minot (o'quvchi-talaba, yoshlar, o'quv rejalari va dasturlari, davlat ta'lim standartlari, mutaxassislik, tasnifiy tasnifnomalar, iqtidorli va iste'dodli yoshlar axborot ta'minoti, ta'limni axborotlashtirishning yangi texnologiyalari, ma'naviyat va ma'rifat markazi);

– o'quv, ilmiy ishlab chiqarish va tarbiya jarayoni (o'quvchi yoshlar, axborot ta'minoti, ta'limni axborotlashtirishning istiqbolli usullari, o'quv rejalari va dasturlari, DTS, professor- o'qituvchilar tarkibi, moddiy-texnika baza);

– fan va ishlab chiqarish (professor-o'qituvchilar tarkibi, qayta tayyorlash va malaka oshirish).

Bu qayd etilgan ilmiy-uslubiy ta'minot intellektual salohiyatli avlod tarbiyasining o'zagini tashkil etadi va barkamol avlod tarbiyasi jarayoni to'liq ushbu ilmiy-uslubiy ta'minotni e'tiborga olgan holda olib boriladi.

Barkamol avlod tarbiyasi jarayoniga bunday yondashish kompleks xarakterga ega bo'lib, ushbu jarayondagi ta'lim-tarbiyaning har bir bosqichida puxta tayyorgarlikka ega bo'lishlikni va maqsadga yetishlikni kafolatlaydi. Maqsadga yetishlikni avvaldan ishlab chiqilgan mezonlar asosida olib boriladi. Ta'lim-tarbiya mazmuniga qarab yoki ushbu jarayonni boshqarish mazmuniga qarab maqsadlar tizimi (ketma-ketligi) yoki yaxlit yagona bir maqsad bo'lishi mumkin va u Davlat ta'lim standartlariga yoki mutaxassislarga qo'yiladigan jahon ta'limi talablari asosida shakllangan (tuzilgan) bo'ladi.

Yanada muhimi, 2023-yildan maktab ta'limini xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay isloh qilish boshlanmoqda. Bu ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg'or ta'lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkil etiladi.

Xulosa qilib aytganda, taraqqiyot strategiyasi doirasida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarida amalga oshirilayotgan salmoqli va ko'lamdor ishlar bugungi kunda jahonning yetakchi davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta'limni rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish masalalariga birinchi galdagi vazifa sifatida qaralayotganidan dalolat beradi. Ta'lim sifatini oshirish, mamlakatimiz va milliy iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirishning asosiy garovi hisoblanadi. Bu – O'zbekistonning kuch-qudrati va salohiyatini mustahkamlash, Vatanimizning yanada gullab-yashnashi va xalqimiz farovon yashashining hal qiluvchi omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 3151-son Qarori. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda).

Nurbek IMANKULOV,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

TA'LIM TIZIMIDA "STEAM" TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ASOSLARI

Annotatsiya

STEAM texnologiyasi bugungi zamonaviy ta'limning porloq metodlaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalarni turli fanlar doirasida qo'llash yuqori natija ko'rsatib kelmoqda. Mazkur maqolada STEAM texnologiyasini qo'llash bo'yicha nazariy ma'lumotlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar. STEAM ta'limi, STEAM fanlar, modellashtirish, model komponenti, fundamental fanlar.

Технология STEAM является одним из ярких методов современного образования на сегодняшний день. Применение этих технологий в различных дисциплинах показывает высокие результаты. В данной статье анализируются теоретические данные по использованию технологии STEAM.

Ключевые слова. STEAM-образование, STEAM-науки, моделирование, модельный компонент, фундаментальные науки.

STEAM technology is one of the bright methods of today's modern education. Application of these technologies in various disciplines has been showing high results. This article analyzes theoretical data on the use of STEAM technology.

Key words. STEAM education, STEAM sciences, modeling, model component, fundamental sciences.

Bugungi kunda ilm fan va texnikaning muvaffaqiyat bilan rivojlanayotgan davr talabi har tomonlama savodli hamda ijodkor, zamonaviy texnikaning sir-sanoatlarini chuqur biladigan, hayotidagi aniq maqsadlariga ega, o'z-o'zini rivojlantira oladigan va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan. Aytish kerakki, ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi, hozirgi yoshlarning bilimdon, zukko, mustaqil fikr yurita olishida, ijodkorligida o'zining ijobiy samarasini ko'rsata boshladi.

STEAM ta'lim tizimi butun dunyo tan olayotgan tizimlardan biri hisoblanadi. Uning bir qator afzalliklari mavjud:

• ta'lim berishni o'quv fanlari bo'yicha emas, balki "mavzu"lar bo'yicha integratsiyalab olib boorish;

STEM ta'limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo'lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotga va matematikaga integratsiya qilish yotadi. Bunda muhandislik bilan bog'liq kasblarga bo'lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi.

• ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash;

STEAM ta'limida amaliy mashg'ulotlar yordamida bolalarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanishi namoyish qilinadi. Har bir darsda o'quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi va modelini rivojlantiradi. Ular aniq loyihani o'rganadi, natijada real mahsulotning prototipini yaratadilar.

• tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish;

STEM dasturi bolalarning kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo‘ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, bolalar tez yuradigan mashina modelini yig‘adilar, so‘ngra uni sinovdan o‘tkazadilar.

• o‘z kuchiga ishonish hissining ortishi; bolalar ko‘prik qurish, mashina va samolyot modelini ishga tushirishda har safar maqsadiga yaqinlasha boradilar. Har bir sinovdan so‘ng modelni takomillashtiradilar. Oxirida barcha muammolarni o‘z kuchlari bilan yengib, maqsadiga erishadilar.

• faol kommunikatsiya va komandada ishlash.

STEM dasturi faol kommunikatsiya va komandada ishlash bilan farqlanadi. Muloqot davrida o‘z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiriladi. Bolalar gapirishga va taqdimot o‘tkazishga o‘rganadilar. Ular doimo o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan muloqotda bo‘lib, jarayonlarda faol qatnashsalar o‘tilgan mashg‘ulotni yaxshi eslab qoladilar.

STEAM so‘ziga izoh:

S – sciences (fanlar)

T – technology (texnologiya)


E – engineering (muhandislik ishi)

A – art (san’at)

M – mathematics (matematika)

Bundan ko‘rinadiki, matematika STEM ta’limi texnologiyasining asosini tashkil etadi.

Shunday qilib, nazariy olingan bilimlarni amaliyotga qo‘llashda birinchi va ikkinchi holatlarning o‘zaro bog‘liqligini tushuntirishda integratsiyalashgan ta’limdan foydalanish muhim sanaladi hamda bu ta’limni amalga oshirishdan STEAM fanlar ta’limi va integratsiyasi yuzaga keladi (1-rasm).



STEAM ta’limini amalga oshirish yuqoridagi ikkita holatdan kelib chiqib, raqamlashtirish, modellashtirish va modellar orqali amalga oshiriladi. Masalan, STEAM fanlarini o‘zaro integratsiyasini, fan formulalarini, chizmalarini, vertual tasvirlarini, hodisalardagi jarayonlarni modellashtirish va raqamlashtirish orqali tushuntirib bersa, STEAM fanlari ta’limini amalga oshirishda modellar jarayonlar aspektlarini sodda ko‘rinishda ifodalaydi va oddiy konseptual eskizlar hamda murakkab prototiplardan

tortib, so‘ngi matematik modellargacha bo‘lgan oraliqlarni o‘z ichiga oladi. Muhandislikdagi modellar asosan funksional nuqtayi nazardan aniqlanadi. Modellashtirish hamda modellardan muammolarni hal qilish, yechimga olib boruvchi yo‘llarni taxmin qilish, turli yechimlarni tanlashda to‘g‘ri qarorni qabul qilish, muammoni yechishda qulay ta’lim vositalarini tanlash va shunga o‘xshash boshqa sabablar mummolarning yechimini topish imkonini beradi.

Integratsiyalashgan ta’lim – bu ikki va undan ortiq fanlarning ilmiy aloqadorligi asosida bir fanni o‘rganishda ikkinchi fandan foydalanib o‘qitilishidan paydo bo‘ladi. Matematika-fizika, kimyo-matematika, fizika-kimyo, biologiya-kimyo, va boshqalar. STEAM yondashuvli STEAM fanlar ta’limi integratsiyalashgan ta’limdan anchagina katta tushuncha bo‘lib, u kamida to‘rtta fanning fanlararo bog‘liq integratsiyasi asosida o‘tiladigan ta’limdir.

STEAM fanlar ta’limi va integratsiyasini yuzaga keltiruvchi toifa sifatida quyidagi holatlarni keltirib o‘tishimiz mumkin:

• fan mavzulari uzluksiz va tartiblangan ketma-ketlikni o‘zida mujassam qilishi;

bir mavzu keyingi mavzuni tushuntirishda xizmat qilishi va bir mavzu boshqasida asoslanishi uchun mavzularni tartiblashdan iborat. STEAM mavzulari ketma-ket o‘qitiladi, biri ikkinchisidan oldin keladi, shunda bir mavzu keyingisini to‘ldiradi. Misol uchun, matematika darsida vektor o‘rgatiladi va keyin bu tushunchani fizika fani darsida kuchlar haqidagi mavzuni tushuntirishda o‘rganish uchun qo‘llaniladi.

• STEAM fanlari va ularning mavzularini parallel ravishda bir vaqtda o‘qitish; tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, hozirgi ishlab chiqarish – texnika sohalarining o‘quv rejalarida fanlar parallel ravishda qo‘yilgan ammo fan dasturlari mazmuni va mavzularining o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor qaratilmagan. Mavzular ketma-ketligiga va mavzularni o‘rganishda bir mavzu ikkinchi mavzuga yordam berishiga ahamiyat berilmagan. O‘quv rejalaridagi fanlarning parallel joylashishi bu albatta, yaxshi ta’limni yangi bosqichga chiqarishda fan dasturlari mavzularini ketma-ketligini ko‘rib chiqish hamda o‘zviyligini ta’minlash talab qilinadi.

• fanlarni o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatish uchun STEAM fanlarini vaqti-vaqti bilan turli fan o‘qituvchilari mavzularni birga o‘tishi yoki qisman birga o‘qitishi; STEAM fanlari ba’zan alohida sohalar sifatida o‘qitiladigan ko‘rinsada, ushbu fanlarning o‘zaro aloqadorligini ko‘rsatish uchun ba’zan bir-biri bilan birgalikda o‘rgatilishi talabalarga o‘zlarining noyob obyektivlarini qanday qilib bir-biriga mos kelishini tushunishiga yordam berishi mumkin.

• STEAM fanlarining bir fan mavzusini boshqa fan mavzularidan foydalanib mustahkamlash; bunda birinchisi, mavzularni o‘tilgan mavzular yordamida mustahkamlashda ustunlikka ega bo‘lsa, ikkinchisi, o‘qitish jarayonida ustunlikka ega bo‘ladi.

STEAM fanlari komponentlarga ega bo‘lgani kabi modellar ham komponentlariga ega va ular quyidagilardan iborat:

– ***aqliy modellar*** (kognitiv taqdimotli modellar);

– ***ifodalangan modellar*** (boshqalar izohlashi mumkin bo‘lgan modellar);

– ***konsensus modellari*** (hozirda mavjud va foydalanib kelinayotgan modellar);

– ***ilmiy modellar*** (bashorat vositalariga aylanadigan, sinovdan o‘tgan va hozirda foydalanilib kelinayotgan modellar);

– ***tarixiy modellar*** (rivojlangan modellarning dastlabki holatidagi modellar);

– ***o‘quv modellari*** (o‘quv jarayonlarida foydalanib kelinayotgan, oldindan mavjud modellar);

– ***o‘qitish modellari*** (tarixiy va o‘quv modellarini sharhlashda yordam beradigan modellar).

Xulosa va munozara o‘rnida shuni aytish kerakki, STEAM ta’limi yondashuvni amalga oshirish fundamental va amaliy bilimlar, zamonaviy texnologiyalarning kombinatsiyalari va eng asosiysi, ulardan amaliy maqsadlarda samarali foydalanish muhandislik innovatsion faoliyatining asosiy mezoniga aylanmoqda. Buning natijasi sifatida muhandislik ta’limotida yangi yondashuv shakllanadi. Modellar kompanentlarini o‘rganish va ulardan to‘g‘ri foydalana olish STEAM fanlari ta’limini amalga oshirishda muhim o‘rin egallaydi.

E’tiborlisi, davlatimiz siyosatida ham STEAM ta’limiga alohida e’tibor qaratilmoqda. STEAM ta’limiga o‘tishda “STEAM ta’limi mazmuni qanday bo‘lishi kerak?”, “STEAM ta’limidan qanday foydalanamiz?”, “STEAM ta’limi bo‘yicha pedagogik amaliyotni qanday tashkil etish zarur?”, “STEM ta’limini rivojlantirish ta’lim muassasalarida qanday amalga oshiriladi?” kabi savollarning yechimi mazkur ta’limning mamlakatimizda keng rivojlanishiga imkon beradi.

Mamlakatimizda ilk bor STEAM ta’limi umumta’lim maktablarida Tabiiy fanlarning o‘qitilishida joriy qilinishi yaqqol misoldir. Har qanday yondashuv amaliyotga joriy etilganda, birinchidan, STEAM ta’limi modulida o‘quvchining yoshi va uning psixologik xususiyatlari inobatga olinishi, ikkinchidan, uning tarkibiy qismida uzviylik ta’minlanishi, uchinchidan, u ta’limiy natijani berishi, ya’ni o‘quvchida bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishi, to‘rtinchidan, bolalarni nafaqat individual, balki jamoa bilan ishlashga o‘rgatishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘aniyeva H. (2022). Increasing lesson efficiency for preschool and primary educational children using interached english methods and technologies . Maktabgacha ta’lim jurnali, 1(Preschool education journal). Retrieved from https://journal.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/4867

2. G‘aniyeva H. (2021). Communicative language teaching approach in EFL context. Maktabgacha ta’lim jurnali, 4 (Preschool education journal). Retrieved

3. Aliyev A. (2021). About the features of the perspective of simple geometric shapes and problems in its training. ZbirniknaukovixprasSCIENTIA.

4. Jabbarov R., Rasulov M. (2021). further formation of students’creative abilities by drawing landscapes in painting.

5. Авазбаев А., Жураев Й., Турсунхужаева З. (2021). Условия организатсии протсесса технологического образования на основе кредитно-модулной системы. Общество и инноватсии, 2(4/С)ю

6. Critical Review of STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts and Mathematics) Page 18 of 22 printed from the oxford research encyclopedia, education (oxfordre.com/education).

Ra’no UMAROVA,
Andijon davlat universiteti, Axborot texnologiyalari va kompyuter injiniringi fakulteti ‘‘Kompyuter injiniringi’’ kafedrasi o‘qituvchisi

TA’LIMNI AXBOROTLASHTIRISH SHAROITIDA O‘QUVCHILAR INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’limni axborotlashtirish sharoitida o‘quvchilar intellektual salohiyatini rivojlantirishning metodologik asoslari haqida fikrlar bayon etilgan. O‘quvchilar intellektual salohiyatini rivojlantirish quyidagi jihatlar bilan bog‘liq: zamonaviy axborot texnologiyalari o‘quvchilarga axborotning noan’anaviy manbalariga murojaat qilishga, mustaqil ishlar samaradorligini oshirishga va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishlariga keng imkoniyat yaratadi. Shuningdek, yangi STEAM va SMART ta’lim yondashuvlari yordamida ta’lim tizimida intellektual salohiyatli yoshlarning rivojlantirish usul va vositalarini ishlab chiqish hamda amaliy jarayonga tatbiq etish ta’limni takomillashtirish omili yortilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, intellektual salohiyat, STEAM va SMART ta’lim yondashuvlari, intellektning yumshoqligi va egiluvchanligi, mustaqillik va originallik, intellektning tanqidiyligi.

В данной статье описаны методические основы развития интеллектуального потенциала обучающихся в условиях информатизации образования. Развитие интеллектуального потенциала обучающихся связано со следующими аспектами: современные информационные технологии предоставляют обучающимся широкие возможности обращения к нетрадиционным источникам информации, повышают эффективность самостоятельной работы, включаются в творческую деятельность. Также фактором совершенствования образования считается разработка методов и инструментов развития молодежи с интеллектуальным потенциалом в системе образования с помощью новых образовательных подходов STEAM и SMART и их внедрение в практический процесс.

Ключевые слова. Образование, интеллектуальный потенциал, STEAM и SMART образовательные подходы, мягкость и гибкость интеллекта, самостоятельность и оригинальность, критичность интеллекта.

This article describes the methodological foundations for the development of the intellectual potential of students in the context of informatization of education. The development of the intellectual potential of students is associated with the following aspects: modern information technologies provide students with ample opportunities to access non-traditional sources of information, increase the efficiency of independent work, and engage in creative activities. Also, a factor in improving education is the development of methods and tools for the development of young people with intellectual potential in the education system using new educational approaches STEAM and SMART and their implementation in the practical process.

Key words. Education, intellectual potential, STEAM and SMART educational approaches, softness and flexibility of intellect, independence and originality, criticality of intellect.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi turli xil ma’lumotlardan foydalanishga asoslangan bo‘lib, u “raqamli jamiyat”, deb nomlangan jamiyatning rivojlanishiga, bu esa ta’limning axborotlashtirish jarayonini jadallashishiga turtki bo‘ldi. Ta’limni axborotlashtirish – bu birinchi navbatda global zarurat. Bunday

texnologiyalardan foydalanishning jadal rivojlanishi, ta'lim sifatini oshirishga qo'llanilishi va innovatsion yondashuvlarning ta'limga ta'siri natijasida ta'lim tizimi bo'g'inlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari yuzaga keldi.

O'quvchilarda intellektual salohiyatni rivojlantirish tizimlilik va uzviylikni talab etadi. Shuningdek, intellektual salohiyatni rivojlantiruvchi muhit bilan birga o'quv adabiyotlari, jumladan elektron adabiyotlarni ahamiyati ortib bormoqda. Intellektual salohiyatni rivojlantirish jarayoni o'quvchilarning intellektual faoliyati rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Intellektual ko'nikmalar o'zida xotiraning rivoji, idrok etishning rivoji, tasavvurlarning rivoji, diqqatning rivojini aks ettiradi.

Intellektual salohiyatni rivojlantirish o'z navbatida intellektual qobiliyatlar tushunchasi bilan uzviy bog'liq. Ilmiy manbalarda intellektual qobiliyat quyidagicha tasnif etilgan: intellektual qobiliyatlar – bu shaxsning ta'sirchanligi, predmetni idrok qilishining kuchliligi va yaxlitligi, u to'g'risida keng ma'lumotlarga ega bo'lish, tafakkur o'zgaruvchanligi va tezkorligi (tez, xilma-xil, o'ziga xos), mantiqiy va savodli mulohaza yuritish, tizimli harakatlar, sintez-tahlil-sintez, ijodiy ifodalay bilish, umumlashtirish va xulosalash, o'z fikriga ega bo'lish, ishni oxirigacha etkazish, ishchanlik, o'z bilimlarini boshqalarga etkaza olish kabi asosiy kreativ fazilatlar majmui bo'lib, nafaqat yuksak ijodiy rivojlanishni, balki umuman shaxs rivojlanishining muhim omili, har qanday faoliyatdagi muvaffaqiyatning garovi, kishilar bilan muloqot, kundalik faoliyatdagi yutuqlar omilidir.

Bizningcha, intellektual salohiyat – bu o'quvchining kognitiv qobiliyatlar va ijodkorlikning mosligini hisobga olib, maqsadga erishish uchun o'z harakatlarini rejalashtirish, tartibga solish va boshqarish qobiliyatidir. Intellektual salohiyat axborotlashib borayotgan jamiyatda uzluksiz yangilanib boradi. Har bir faoliyat turi o'ziga xos axborot makonini tashkil qiladi. Uni o'qitish va foydalanish usuli intellekt faoliyatini tashkil etish tamoyillariga asoslanadi. Axborot makoniga yangi ma'lumotlarni kiritishni tashkil etish tamoyillari, saqlash va ko'paytirish usullari ham intellekt ishining o'ziga xos xususiyatlariga, ya'ni xotirani tashkil etishga mos keladi. Shu sababli, axborot makoni ham intellektual makondir, chunki u allaqachon rejalashtirish, unumli foydalanishni tashkil etish va maqsadga erishish uchun bosqichma-bosqich boshqarish tamoyillarini o'z ichiga oladi.

O'quvchilar intellektual salohiyatining muhim xususiyatlari – bu qiziquvchanlik va ong chuqurligi, uning moslashuvchanligi va harakatchanligi, izchillik, dalillarga asoslangan fikrlash, to'g'ri xulosalash, tanqidiy fikrlash hamda tafakkur kengligidir.

J.S. Iskenderovning psixologiya va pedagogika fanlari oralig'ida amalga oshirgan tadqiqotiga ko'ra shaxsda intellektning har xil darajada shakllanganligi bois bir nechta sifatlari mavjud: intellektning tushunarliligi; intellektning mantiqiyligi; intellektning chuqurligi yoki o'ylovchanligi; intellektning kengligi; intellektning yumshoqligi va egiluvchanligi; mustaqillik va originallik; intellektning tanqidiyligi[1].

Jamiyatda yosh avlodning intellektual salohiyatni rivojlantirish darajasini oshirish uchun ijtimoiy texnologiyalar sharoitida, umumta'lim maktablarining intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv harakatlarining tizimini joriy etish kerak. Ushbu jarayonda umumta'lim maktablarining intellektual muhitini asosiy ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi va ular quyidagilar bilan bog'lanishi mumkin (1-rasmga qarang):

[1] Iskenderov J.S. Pedagogika kolleji o'quvchilarida xarakterning intellektual va irodaviy xususiyatlarini shakllantirish: psix. fan. nomzodi. ... diss. – T.: 2009. – 37-38 b.

Birinchi	Ikkinchi	Uchinchi	To‘rtinchi
intellektual rivojlangan shaxsning ijtimoiy so‘rovi	o‘qituvchilar va o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish vazifalarining mavjudligi	ilmiy maktablar va an’analarning mavjudligi	intilishni rivojlantirish, intellektual faoliyatda o‘zini namoyon qilish

1-rasm. Umumta’lim maktablaridagi intellektual muhitning ko‘rsatkichlari.

Biz tanishib chiqgan adabiyotlarni tahlil etgan holda, intellektual salohiyat tushunchasiga mualliflik yondashuvini ilgari surdik. Intellektual salohiyat – bu shaxsning ham, mamlakatning intellektual, kasbiy, ijodiy qobiliyatlari rivojlanish darajasining murakkab belgisidir. Intellektual salohiyat insonning bilimlari, ko‘nikmalari va qobiliyatlari, uning kreativligi, yangi ma’lumotni qabul qilish, o‘rganish, qayta ishlash, yangi sharoitlarga moslashish xususiyati.

Zamonaviy sharoitda intellekt darajasini oshirish va aqlni samarali ishlashga undovchi turli xil usullar mavjud bo‘lib, mazkur tadqiqotda intellekt darajasini oshirishning oddiy va ilmiy jihatdan sinalgan usuli taqdim etildi: aql kuchidan foydalanish; kitobxonlik madaniyatini egallash; hissiyotlarga erkinlik berish; kundalik harakatlarga o‘zgarish kiritish; intellektual o‘yinlar o‘ynash; o‘z-o‘zi bilan suhbatlashish; fikrlarni qisqa bayon etish; turli xil tillarni o‘rganish; aqlli insonlar bilan ko‘proq muloqot qilish.

Ta’limni axborotlashtirish sharoitida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish quyidagi jihatlar bilan bog‘liq: zamonaviy axborot texnologiyalari o‘quvchilarga axborotning noan’anaviy manbalariga murojaat qilishga, mustaqil ishlar samaradorligini oshirishga va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishlariga keng imkoniyat yaratadi; axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va yangi axborotni yaratish bilan shug‘ullanuvchi texnologiyalarni kompyuter asosida joriy etish, yangi axborot texnologiyalarini vujudga keltiradi. Shuningdek, yangi STEAM va SMART ta’lim yondashuvlari yordamida ta’lim tizimida intellektual salohiyatli yoshlarning rivojlantirish usul va vositalarini ishlab chiqish hamda amaliy jarayonga tatbiq etishga shart-sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-maydagi “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi farmoni.www.lex.uz

2. Musurmanov R. Ta’lim muassasasini boshqarishda axborot kommunikatsiyalardan foydalanish zarurati. Конституция Республики Узбекистан-образование и воспитание молодежи. Материалы второй традиционной научно-практической конференции.10-11декабря 2013 года – Т.: -2013.– С.103-106.

3. Yuldashev U.Yu, Zakirova F.M. “ Informatika o‘qitish metodikasi”. – T., 2007

4. M.E. Musayeva, G.T. Boymurodova. “Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan interfaol metodlar”. – T., 2017.

5. Sobirov, Dilshod. Informatika fani darslarida kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan ta’lim / Dilshod Sobirov, K. A. Iskandarov. – Tekst : непосредственный // Молодой учёный. – 2016. — № 29.3 (133.3). – С. 31-32.

Toxir HAQQULOV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti, ‘‘Pedagogika va psixologiya’’ fakulteti Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari

TARBIYAVIY ISHLARDA ARTPEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarbiya jarayonlarida art pedagogikadan foydalanish orqali yoshlarni ma’nan kamol toptirsh mumkinligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Shaxs, talaba-yoshlar, o‘qituvchi, san’at, madaniyat, badiiy-ijodiy, ta’lim-tarbiya, milliy qadriyatlar.

В данной статье рассматривается возможность духовного совершенствования молодежи путем использования арт-педагогики в воспитательных процессах.

Ключевые слова. Личность, студенческая молодежь, учитель, искусство, культура, художественно-творческие, учебно-воспитательные, национальные ценности.

This article discusses the possibility of spiritual improvement of youth through the use of art pedagogy in educational processes.

Key words. Personality, student youth, teacher, art, culture, artistic and creative, educational, national values.

Bugungi kunda yoshlarni har tomonlama komil inson sifatida shakllantirishda san’atning o‘rni alohida ta’kidlanmoqda. Bu borada davlatimiz tomonidan juda katta imkoniyatlar yaratilmoqda. So‘zining isboti uchun quyidagi ma’lumotlarni keltiriamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2022-yildagi PQ-112-son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida, aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlarini ko‘rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, madaniyat va san’at sohasida iste’dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo‘llab-quvvatlash, ta’lim muassasalarini milliy cholg‘ular, musiqa darsliklari, notalar to‘plamlari va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq:

1. 2022/2023-o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste’dodlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilansin:

a) umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida:

– o‘quvchilarga mazkur qaror ro‘yxatida keltirilgan milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko‘nikmalari o‘rgatiladi hamda bu haqda ularning ta’lim to‘g‘risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritiladi;

– musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o‘quv soati hamda unga qo‘shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish amaliy to‘garaklari va

fakultativ darslari o‘tkaziladi;

– mazkur qarorga 1-ilovadagi ro‘yxatda keltirilgan milliy cholg‘ulardan kamida bittasida, 2023/2024-o‘quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo‘lish musiqa fani o‘qituvchilari uchun majburiy hisoblanadi;

– musiqa fani uchun ajratilgan o‘quv soatlari doirasida ‘‘Hayotimga hamrohdir cholg‘u’’ shiori ostida cholg‘u ijrochiligi dars mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yiladi” kabi imkoniyatlar yaratilgan. Biz o‘z ilmiy tadqiqot ishimizning maqsadidan kelib chiqqan holda tarbiyaviy ishlar jarayonida art pedagogikadan foydalanishda yaxlit pedagogik jarayonni qamrab olishga harakat qilamiz. Yaxlit pedagogik jarayonda olib boriladigan pedagogik faoliyatning asosiy turlari sifatida o‘quv va tarbiyaviy ishlar e’tirof etiladi. Yaxlit pedagogik jarayonda o‘qish, o‘qitish, tarbiya, shakllantirish, rivojlantirish masalalariga turli xil yondoshuvlar berilgan. Ko‘pgina olimlar tomonidan ‘‘maqsadli jarayon’’, ‘‘talaba va o‘qituvchining o‘zaro munosabati’’, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish’’ kabi iboralar ostida yaxlit pedagogik jarayonga ta’riflar berilgan. Biz ulardan ijtimoiy tarmoqlarda keltirilgan manbalardan foydalanishimiz mumkin.

Tarbiyaviy ishlarda art pedagogikadan foydalanishda san’at har doim insonlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar bilan tanishtirishning eng samarali vositasi sifatida e’tirof etilib kelingan. San’at bizni qurshab turgan olamga, unda sodir bo‘layotgan voqea va hodisalariga munosabatimizni ifodalab unga mos ravishda dunyoqarashimizni shakllantiradi. Shuning uchun ham art pedagogika doimiy ravishda bizni madaniy qadriyatlar va insoniy munosabatlar dunyosiga olib kiradi va munosabatlar jarayonida ijodkorlik qobiliyatlarni yanada rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shib boradi. “Shaxsni shakllantirish, uning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, insonning o‘zini o‘zi anglashi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida uning hissiy farovonligi muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun hozirgi vaqtda maktab o‘quvchilarini badiiy va badiiy-ijodiy faoliyat (tasviriy, musiqiy, teatr va o‘yin) orqali rivojlantirish va tarbiyalash tizimida artpedagogika kabi yangi yo‘nalishga qiziqish bejizga ortib borayotgani yo‘q. Artpedagogikani o‘rganish va tadqiq etishning dolzarbligi faol rivojlanib borayotgan psixoterapiya bilan chambarchas bog‘liqligi bilan belgilanadi. So‘nggi paytlarda uning yangi usullari, shakllari, texnologiyalari va modellari faol o‘zlashtirilmoqda”.

Bugungi kunda art pedagogikaga rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni san’at orqali rivojlantirish masalasi, deb qaralayotgan bir davrda, bunga har tomonlama sog‘lom bolalarni jalb qilish ham pedagogikaning oldida turgan asosiy masalalardan biri, desak bo‘ladi. Art pedagogika - pedagogikaning mustaqil tarmog‘i hisoblanib, u san’at vositasi orqali tarbiya qonuniyatlarini o‘rganadi va insonlarni ma’nan shakllantirishga hissa qo‘shadi. Tarbiyaviy ishlarni olib borishda – bolalarni san’at orqali o‘zligini anglatish bilan bir qatorda uning atrofida yurgan bolalar dunyosiga kirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan bir qatorda badiiy-ijodiy faoliyatga yo‘naltirib boriladi. O‘quvchilarni badiiy – ijodiy faoliyatga yo‘naltirib borish orqali ularni tarbiya jarayonlarining faol ishtirokchilariga aylantirish masalasini birinchi o‘ringa olib chiqiladi.

Tarbiyaviy ishlarda badiiy pedagogikadan foydalanish bolani rasm chizish, biron bir narsani yaratish, sahna ko‘rinishini tayyorlash emas, balki badiiy jarayonda to‘laqonli o‘zini namoyon qilishga o‘rgatishdir. Qachonki bolalar tarbiyaviy ishlar jarayonlarida o‘zlariga topshirilgan vazifalarni ongli ravishda bajarishga kirishib uning mohiyatini ko‘rsatib berishga harakat qilsa demak, u maqsadni aniq belgilagan hisoblanadi. Badiiy pedagogik vositalar bolalarni o‘z his-tuyg‘ulari va kayfiyatlarini erkin ifoda etish bilan bir qatorda o‘zligini kashf qilishga yordam beradi.

“Badiiy pedagogikada ta’lim va rivojlanish maqsadlari didaktik maqsadlardan ustun turadi. Ijodiy faoliyat jarayonida o‘qituvchi va talabaning o‘zaro ta’siri talabaning hissiy va shaxsiy rivojlanishi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, o‘zini o‘zi bilish, o‘zini takomillashtirish, rivojlantirish va o‘zini anglash jarayoniga yordam beradi. Boshqa tomondan, artpedagogik metodlardan foydalanish o‘qituvchiga bolalarni yaxshiroq tushunishga, ularning shaxsiy va ijodiy salohiyatini, psixologik xususiyatlarini ochib berishga va o‘quvchilarini rivojlantirish va o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi”

Tarbiyaviy ishlar metodikasini bo‘lajak o‘qituvchilarga tushuntirish va tarbiya jarayonlarida artpedagogik texnologiyalaridan foydalanish metodikasini o‘rgatib borish orqali tarbiya samaradorligini oshirish mumkin. Bu jarayonda san’atning barcha turlari bilan bog‘liq bo‘lgan art pedagogik texnologiyalar quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) Tarbiyaviy ishlar jarayonida o‘quvchilarning har tomonlama yuksalishini ta’minlaydigan badiiy muhitni yaratish;

2) O‘quvchi shaxsini rivojlantirishda art-pedagogik texnologiyalardan (musiqa, san’at, maktab teatri va boshqalar) foydalanishda sub’ekt-badiiy yondashuvni amalga oshirish;

3) O‘quvchining ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq ehtiyojlarini san’at orqali qondirish;

4) Ta’lim muassasalarining badiiy madaniy asoslarini tarbiya jarayonlarida boyitish orqali tarbiyaviy ishlarda art pedagogikadan foydalanish bugungi kun talabiga javob beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan ‘‘Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” PF-60-son Farmoni.

3. Pedagogika: pedagogika o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik.

4. https://si-sv.com/Posobiya/teor-pedag/Tema_3.htm

5. Муромцева О.В. Использование артпедагогики в учебном процессе школы/ https://www.econf.rae.ru/article/6408

Rushana TUXTASHEVA ,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MASOFALI O‘QITISHNING SHAKLLARI VA IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishning kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish hamda o‘quv kontentlari bilan ishlashda masofali o‘qitishning muammo, kamchiliklari va yutuqlari haqida so‘z yuritiladi. Shuhnigdek, masofali o‘qitishning nazariy va didaktik asoslari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. An’anaviy ta’lim, model, blended learning, aralash ta’lim, elektron ta’lim, on-line muloqot, virtual sinf, faol talaba, texnologiya, kompyuter.

В данной статье рассматриваются проблемы, недостатки и достижения дистанционного обучения в организации самостоятельного обучения студентов по кредитно-модульной системе обучения в высших учебных заведениях, а также в работе с учебным контентом. Также изложены теоретические и дидактические основы дистанционного обучения.

Ключевые слова. Традиционное обучение, модель, смешанное обучение, смешанное обучение, электронное обучение, онлайн-общение, виртуальный класс, активный студент, технология, компьютер.

This article will talk about the problems, disadvantages and achievements of distance learning in the credit-modular system of teaching in higher education institutions, organizing independent education of students and working with educational content. Theoretical and didactic foundations of distance learning are described.

Key words. Traditional education, model, blended learning, mixed education, e-learning, on-line communication, virtual classroom, active student, technology, computer.

Prezidentimiz tomonlaridan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning 3-tashabbusi doirasida aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan, shuningdek, ularni axborot texnologiyalari sohasida tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish maqsadida respublika bo‘yicha 102 ta raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son hamda “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori qabul qilindi, unga ko‘ra:

1. 2020/2021-o‘quv yilidan boshlab respublika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish tartibi joriy etildi.

2. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Internet texnologiyalarining kirib kelishi bir necha asrlar davomida o‘zgarmay kel-

gan holatlarni o‘zgartirib yubordi. Bu odatdagi xat yozishmalari elektron pochta bilan, kutubxonalar esa web-saytlar bilan almashinishida namoyon bo‘ldi.

Endilikda esa ta’lim tizimida ta’lim olishning an’anaviy shakllari o‘rniga masofaviy ta’lim elementlari kirib keldi.

Zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalari vositalarini ta’lim jarayoniga kirib kelishi an’anaviy o‘qitish usullariga qo‘shimcha ravishda yangi o‘qitish shakli - masofaviy o‘qitish yaratilishiga omil bo‘ldi.

Masofaviy ta’limda talaba va o‘qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o‘zaro maxsus yaratilgan o‘quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo‘ladilar. Internet texnologiyasini qo‘llashga asoslangan masofaviy o‘qitish jahon axborot ta’lim tarmog‘iga kirish imkonini beradi, integrasiya va o‘zaro aloqa tamoyiliga ega bo‘lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi.

Masofaviy o‘qitishda turli xil axborot va kommunikasiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya’ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog‘liq. Masalan, an’anaviy bosma usuliga asoslangan o‘qitish vositalari (o‘quv qo‘llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma’lum vaqt orasida o‘zaro muloqotda bo‘lishga, elektron pochta to‘g‘ri va teskari aloqa o‘rnatishga, ya’ni xabarlarni jo‘natish va qabul qilishga mo‘ljallangan. Oldindan tasmaga muhrlangan videoma’ruzalar talabalarga ma’ruzalarni tinglash va ko‘rish imkonini bersa, maksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o‘zaro teskari aloqa orqali o‘qitish imkonini beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ta’lim jarayonida ayni vaqtda qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta’riflarni keltirib o‘tamiz.

Masofaviy o‘qitish – eng yaxshi an’anaviy va innovasion metodlar, o‘qitish vositalari va formalarini o‘z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta’lim singari axborot va telekommunikasiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim formasidir.

Masofaviy o‘qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikasiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta’lim tizimidir. U ta’lim oluvchiga ma’lum standartlar va ta’lim qonun-qoidalari asosida o‘quv shart-sharoitlari va o‘qituvchi bilan muloqotni ta’minlab berib, o‘quvchidan ko‘proq mustaqil ravishda shug‘ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o‘qish jarayoni ta’lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo‘lishiga bog‘liq emas.

Masofaviy ta’lim – masofadan turib o‘quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o‘qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta’lim oluvchilarga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi ta’lim majmuaidir.

Masofaviy o‘qitish tizimi – masofaviy o‘qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o‘qitish tizimi. Barcha ta’lim tizimlari singari masofaviy o‘qitish tizimi o‘zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

‘‘Nima uchun masofaviy ta’lim kerak bo‘lib qoldi?’’ – degan savol tug‘ilishi tabiiy. Javob tariqasida esa quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

– ta’lim olishda yangi imkoniyatlar (ta’lim olishning arzonligi, vaqt va joyga bog‘liqmasligi va boshqalar);

– ta’lim maskanlariga talaba qabul qilish sonining cheklanganligi;

– ta’lim olishni xohlovchilar sonining oshishi;

– sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi;

– xalqaro integrasiyaning kuchayishi.

Yuqorida sanab o‘tilgan sharoit va imkoniyatlar masofaviy o‘qitishga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi.

Masofaviy o‘qitishning ta’lim tizimida bir-biridan farqlanuvchi model va shakllari mavjud bo‘lib, ular quyidagi qo‘llanish shartlari bilan farqlanadi:

– geografik shartlar (masalan, mamlakat territoriyasi, markazdan uzoqlikda joylashuvi, iqlimi);

– mamlakatning axborotlashuvi va kompyuterlashtirish umumiy darajasi;

– kommunikatsiya va transport vositalarining rivojlanish darajasi;

– ta’lim jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qo‘llanish darajasi;

– ta’limda qo‘llaniladigan an’analari.

Yuqoridagilarni xulosa qilib shuni aytish mumkinki, masofaviy ta’lim elementlarini ta’lim muassasalariga joriy etilishi har tomonlama foyda keltiradi. Oliy ta’lim tizimida bu kompleksni joriy qilish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Axborot kommunikasiya texnologiyalari ta’lim jarayonida (xususan, masofaviy ta’lim jarayonini) qo‘llash asosan ikki xil ko‘rinishda amalga oshiriladi. Birinchi sharti – bu texnik jihozlar bo‘lsa, ikkinchi sharti esa maxsus dasturiy ta’minotlar bilan ta’minlanganligidir.

1. Texnik jihozlar bilan ta’minlanganlik: kompyuterlar, tarmoq qo‘rilmalari, yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari, video konferensiya jihozlari va hokazo.

2. Dasturiy ta’minotga: Mavjud qurilmalarni ishlatadigan dasturiy ta’minotlardan tortib, shu soha uchun mo‘ljallangan dasturlar to‘plami kiradi.

So‘nggi yillarda G‘arbda ta’lim tizimini boshqarishda qo‘llanilib kelinayotgan Internet yoki Internet tarmog‘i orqali elektron shakldagi ta’lim turini Elearning (elektron ta’lim) atamasi bilan kirib keldi.

Elektron ta’limi – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi ta’limning turli ko‘rinishlarini anglatuvchi keng tushunchadir. Elearning o‘z ichiga elektron o‘quv kontenetlarni bilim oluvchiga yetkazish usulidan kelib chiqqan holda guruhlarga ajratish mumkin. YUNESKO institutining 2000-yildagi tahliliy tadqiqot materiallarida (“Distance Education for the Information Society: Policies, Pedagogy and Professional Development”) keltirilgan masofali o‘qitish modellarini keltiramiz:

Birlamchi (Yagonalik) modeli. Ushbu model tashkiliy tuzilishiga ko‘ra, faqat masofali o‘qitishda va “masofali” talabalar bilan ishlash maqsadida tashkil etiladi. O‘qitish shunday amalga oshiriladiki, bunda ta’limning kunduzgi shakli zarur bo‘lmaydi. Barcha o‘qitish masofadan amalga oshiriladi. Ushbu modelda o‘qitishda hududiy markazlar bo‘lib, ularda talabalar o‘qituvchilardan maslahatlar olishi yoki yakuniy imtihon topshirishlari mumkin. Bunday oliygohlarda o‘qituvchilarga ham talabalarga ham o‘quv faoliyatining shakl va uslublarini tanlashda katta erkinlik beriladi. Vaqt va o‘quv jadvallariga qat’iy chegaralar qo‘yilmaydi. Bunday tamoyilda o‘qitish Ochiq universitetlarda, masalan, Buyuk Britaniyaning Ochiq universiteti (United Kingdom Open University – http://www. open.ac.uk) da tashkil etilgan.

Ikkilamchi (Ikkilangan) modeli. Bunday tizimda oliygoh kunduzgi talabalarni ham, qisman kunduzgi va qisman masofali dastur asosida o‘qitadi. Har ikkalasida ham dars jadvallari, o‘qitish dasturlari, imtihonlari va baholash mezonlari bir xil bo‘ladi. Odatda ikkilangan modelni rivojlantirayotgan oliygoh kunduzgi talabalar soni masofali o‘qiyotgan talabalar sonidan katta bo‘lgan ana’naviy oliygohlardir. Shuning uchun bir universitetning o‘zida ikki shaklning birgaligida ko‘proq o‘zlarida katta o‘quv materiallaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan kunduzgi ta’lim olayotgan talabalar yu-

tadilar. Bunday oliygohlarda masofali kurslar har doim ham foyda keltirmaydi, ba'zan u qisman kunduzgi talabalarni o'qitish hisobidan amalga oshiriladi. Bunday holatlarda asosiy urg'u tajribaga, pedagogika va uslubiy innovatsiyalar tadqiqotiga va boshqalarga beriladi. Masofali o'qitishning bunday modeli Avstraliyaning yangi Angliya universiteti (University of New England, Australia – http://www.une.edu.au) da tashkil etilgan.

Aralash model. Ushbu model universitet talabalarini masofali o'qitishning turli shakllarini, aniqrog'i shakllarning integrasiyasini nazarda tutadi. Masalan, kunduzgi shaklda o'qiyotgan talabalar masofali o'qitish kurslarining dasturlaridagilarni yoki ushbu universitetning o'qituvchisi o'qiyotgan kunduzgi kurslari bilan parallel ravishda qisman o'qiydilar. Shuningdek, bu modelda an'anaviy kurslar doirasida virtual seminarlar, taqdimotlar, ma'ruzalar ko'rinishidagi mashg'ulotlar alohida shakllarining birlashmasi bo'lishi mumkin. Universitet axborot va kommunikasiya texnologiyalari vositalari bilan qanchalik yuqori jihozlangan bo'lsa, shunchalik o'qitish shakllari turli-tuman bo'ladi. Integrallashgan bunday kurslar Yangi Zelandiyadagi Massey universitetida (Massey University, New Zealand – http://www.massey.ac.nz) tashkil etilgan.

Konsorsium. Ushbu model ikki universitetni birlashmasidan iborat. Bunda ular o'quv materiallari bilan almashadilar yoki ba'zi vazifalarni bo'lishib oladilar. Masalan, bir universitet masofali o'qitish uchun o'quv materiallar ishlab chiqaradi, boshqasi virtual o'quv guruhlarini o'qituvchilar bilan ta'minlaydi yoki masofali o'qitish dasturlarini rasmiy akkreditatsiyasini o'tkazadi. Bunday hollarda universitet butunlay yoki uning alohida markazlari, fakultetlari, xatto ta'lim xizmati bozorida ishlayotgan tijorat yoki davlat tashkilotlari hamkor bo'lishlari mumkin. Konsorsiumlar faqat qa'tiy markazlashgan boshqarish va yaratilayotgan ashyolarning mualliflik hamda material huquqlarini rioya etish shartlaridagina samarali bo'ladi. Kanadadagi Ochiq o'quv Agentligi (Open Learning Agency, Canada – http://www.ola.bc.ca) konsorsiumga misol bo'lishi mumkin.

Franchayzing. Franchayzing tamoyilida tashkil etilgan masofali o'qitish modelida hamkor universitetlar bir-birlariga o'zlarining masofali kurslarini beradilar. Bunda ta'lim xizmati bozorida o'zini ko'rsatgan qandaydir universitet o'zida ishlab chiqqan kurslarini masofali o'qitishni endigina tashkil qilayotgan va masofali o'qitish uchun o'quv ashyolarini mustaqil ishlab chiqish tajribasiga ega bo'lmagan boshqa oliygoh – hamkorlariga o'qitish huquqini berishi mumkin. Bunday modelning qiziq tomoni shundaki, talabalar o'zlarining universitetida o'qishga yozilib, konsorsiumga kirgan ilg'or oliygoh talabasi kabi o'sha hajmda va o'sha sifatda ta'lim xizmatlariga, o'qishni bitirganlaridan keyin xatto diplomlariga ega bo'ladilar. Bunda ilg'or universitetning barcha atributikalari o'z kuchini saqlab qoladi. Franchayzing modeliga misol sifatida Buyuk Britaniyaning Ochiq universiteti qoshidagi Biznes Maktabi (Open University Business School, Great Britain) va uning Sharqiy Yevropadagi universitetlari bilan aloqasini olish mumkin.

Validasiya. Masofali o'qitishning juda keng tarqalgan modeli bo'lib, bunda ta'lim muassasalari masofali o'qitish bo'yicha xizmatlarni barcha hamkorlari teng darajada bajarishlari haqida kelishuv imzolab oladilar. Ularning biri diplom validasiyasi, kurs va dasturlarni akkreditatsiyasini qiladi, rasman tan olinadigan diplom va sertifikatlarni berishga mas'ul bo'ladi, ilmiy darajalar beradi va hokazo. Bosh oliygoh (davlat akkreditatsiyasiga ega bo'lgan taniqli oliygoh) va uning hududlardagi ko'p sonli filiallari orasidagi munosabatlar ham shu model asosida tashkil etiladi.

Uzoqlashtirilgan auditoriyalar. Bu modelda zamonaviy axborot texnologiyasi vositalari faol foydalaniladi. Qandaydir oliygohda o'tkazilayotgan o'quv kurslar,

ma’ruzalar yoki seminarlar talabalar yig‘iladigan uzoqlashtirilgan o‘quv auditoriyalarga sinxron teleko‘rsatuv, videoanjuman, radioeshittirish ko‘rinishida telekommunikasiya kanallaridan uzatiladi. Bunda bir o‘qituvchi bir vaqtni o‘zida talabalarning katta auditoriyasi bilan ishlaydi. Ushbu model bo‘yicha AQSH ning Viskonsiya universiteti (Wisconsin University, USA) da, shuningdek, Xitoyning markaziy radio va televedeniye universiteti (China Central Radio and TV University) da masofali o‘qitish tashkil etilgan.

Loyihalar. Davlat ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot dasturi doirasida keng qamrovlik loyihani amalga oshirish uchun mo‘ljallangan masofali o‘qitish modelidan iborat. Ushbu modelda asosiy ahamiyat o‘quv materiallarini ishlab chiquvchi asosiy mutaxassis xodimlar, masofali kurslarni olib boruvchi o‘qituvchilar va olimlar yig‘iladigan ilmiy – uslubiy markazga qaratiladi. Markazda ishlab chiqiladigan masofali kurslar u yoki bu davlat (hudud) ning katta auditoriyasiga uzatiladi. Bunday o‘qitish vaqtinchali hisoblanib, loyihada mo‘ljallangan ishlar bajarilgandan yoki tugagandan so‘ng tugatiladi. Bu modelga misol sifatida Afrika va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan davlatlarida turli xalqaro tashkilotlar o‘tkazgan qishloq xo‘jaligi, agrotexnikaning yangi uslublari, ekologiya bo‘yicha masofali o‘qitish kurslarini olish mumkin.

Masofaviy ta’lim jarayonini amalga oshirish bosqichlari.

Elektron ta’limni tashkillashtirishning ko‘pgina manbalari orasidan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

• Mualliflik dasturiy mahsulotlari (Authoring tools);

• Virtual ta’lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar LMS (Learning Management Systems);

• Ichki kontentni boshqaruv tizimlari CMS (Content Management Systems).

Hozirgi vaqtga kelib, virtual axborot ta’lim muhitini yaratishning hojati qolmagan, chunki Web muhitiga moslashgan har hil turdagi dasturiy majmualar jonkuyar dasturchi va ta’lim sohasida ishlab kelayotgan xodimlarning hamkorlikda ishlashlari, shuningdek, ta’limga yo‘naltirilgan fondlar tomonidan qo‘llab quvvatlanishi natijasida, erkin va ochiq kodli dasturiy ta’minotlar yaratilgan. Bu o‘quv modulimizda masofaviy ta’lim jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi erkin va ochiq kodli dasturlar majmuasining tahlili keltiriladi. O‘quv modulida keltirilgan dasturiy majmualar tahlili ko‘p yillar davomida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida yozilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov M.X., Peregudov L.V., Tohirov 3.T. Oliy ta’lim (lug’at-ma’lumotnoma). – T.: “Moliya” nashriyoti, 2003, – 456 b.

2. Madatov I.Y. Talabalar mustaqil ta’limini samarali tashkil etishni blended learning texnologiyasi asosida takomillashtirish (pedagogika va psixologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishi misolida). Dissertatsiya avtoreferati. Samarqand – 2023 y.

3. Madatov I.Y. Mustaqil ta’limni blended learning texnologiyasi asosida tashkil etish. Integratıon of scıence, educatıon and practıce. scıentıfıc-methodıcal journal, - 2022/6/23, – 126-131 b. link:https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sZUQpYUAAAAJ&citation_for_view=sZUQpYUAAAAJ:u-x6o8ySG0sC

4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2007. – 3 b.

Gavxar RADJABOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, “Maktab menejmenti” kafedrasi dotsenti

TA’LIM TIZIMI VA TA’LIM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim tizimining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Ta’lim nafaqat alohida shaxslar uchun balki butun jamiyat uchun foydalar oqimini yaratadi. Davlat jamiyatning ta’lim, ilmiy va madaniy darajasini oshirishdan manfaatdor bo‘lib, mamlakatning intellektual salohiyatini saqlash va yuksaltirishga hissa qo‘shishi kerak. Yuqori sifatli ta’lim har bir davlat iqtisodiyotining izchil o‘sishini ta’minlashning ajralmas mexanizmidir. Ta’lim xizmatlari bozori o‘ziga xos va etarlicha o‘rganilmagan, ayniqsa inqirozli vaziyatlarda. Shu munosabat bilan muallif ushbu bozorning hozirgi holatini, ta’lim xizmatlari bozorini tashkil etish va faoliyatining dolzarb muammolarini tahlil qilgan.

Kalit so‘zlar. Davlat, ta’lim, Oliy ma’lumot, iqtisodiyot, davlat tomonidan tartibga solish, ta’lim xizmatlari bozori.

В статье рассматриваются социально-экономические аспекты системы высшего образования. Образование создает поток благ не только для отдельных людей, но и для общества в целом. Государство заинтересовано в повышении образовательного, научного и культурного уровня общества и должно способствовать сохранению и совершенствованию интеллектуального потенциала страны. Качественное образование является неотъемлемым механизмом в обеспечении прогрессивного роста экономики каждого государства. Рынок образовательных услуг имеет специфику и недостаточно изучен, особенно в условиях кризисных ситуаций. В связи с этим автор проанализировал современное состояние данного рынка, актуальные проблемы организации и функционирования рынка образовательных услуг.

Ключевые слова. Государство, образование, высшее образование, экономика, государственное регулирование, рынок образовательных услуг.

The article deals with the socio-economic aspects of the higher education system. Education creates a flow of benefits not only for individuals, but for society as a whole. The state is interested in raising the educational, scientific and cultural level of society and should contribute to the preservation and improvement of the intellectual potential of the country. High-quality education is an integral mechanism in ensuring the progressive growth of the economy of each state. The market of educational services is specific and insufficiently studied, especially in crisis situations. In this regard, the author analyzed the current state of this market, the current problems of the organization and functioning of the educational services market.

Key words. State, education, higher education, economics, state regulation, market of educational services.

Zamonaviy sharoitda davlat organlari, ish beruvchilar, universitetlar bitiruvchilari va umuman jamiyatning oliy ta’limning milliy tizimlariga qo‘yadigan talablari ortib bormoqda, bu esa oliy ta’lim tizimiga o‘z sub’ektlarining tashqi guruhlari o‘z manfaatlarini himoya qilish funktsiyasini bajaradigan turli tuzilmalar faoliyatida namoyon bo‘ladi. Natijada oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning quyidagi global tendentsiyalari shakllanadi:

1) Oliy ta’lim tizimida byudjet mablag‘larini taqsimlash xarakteri, universitetlar faoliyati ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda o‘zgarmoqda;

2) Universitetlar faoliyati ustidan davlat va jamiyat tomonidan hisobdorlik va nazorat mexanizmlari shakllantirilmoqda;

3) Zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda, universitetlarning ta’lim dasturlarini mehnat bozori talablariga javob berishga yo‘naltirish ortib bormoqda;

4) Oliy ta’lim sifatini baholashda yagona xalqaro standartlar qabul qilinadi.

Oliy ta’lim sohasidagi institutsional o‘zgarishlar unda erishilgan natijalarning ahamiyatini oshirishga, shuningdek, ushbu natijalarning alohida subyektlar va butun jamiyat manfaatlariga mos kelishi zarurligini keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimiga nisbatan ko‘rib chiqilayotgan o‘zgarishlarning dolzarbligi, bir tomondan, uning jahon ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi bilan, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotning innovatsion, yuqori texnologiyali tarmoqlari ulushi ustun bo‘lgan tarkibiy diversifikatsiyalangan iqtisodiyotni shakllantirish bo‘yicha mamlakatning strategik rivojlanish maqsadlariga erishishni ta’minlay olmasligi bilan belgilanadi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim sohasida, mohiyatiga ko‘ra, oliy ta’lim sifatini tubdan oshirish maqsadiga yo‘naltirilgan institutsional o‘zgarishlar jarayoni amalga oshirilmoqda. Shu bois, oliy ta’limning asosiy muammolarini hal etish mahalliy olimlar, hukumat tuzilmalari vakillari tomonidan aynan institutsional jihatdan ko‘rib chiqilishi zarur. Shu sababli, ta’lim xizmatlari bozorini tartibga solishning samarali institutlarini tanlash va amaliyotga joriy etish muammosi dolzarbdir.

Oliy ta’lim xizmatlari bozorini shakllantirish jarayoni A.B. Aralov, I.V. Ilyinskiy, S.A. Mamontov, A.P. Pankruxin, E.N. Sagindiqov, E.M. Skarjinskaya, V.V. Chekmarev, A.I. Shcherbakov, V.P. Shchetinin va boshqalar tomonidan tahlil etilgan.

Oliy ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning marketing strategiyasini ishlab chiqish borasida ilk tadqiqot G. Axunova tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, eng so‘ngi dissertatsion tadqiqot G.S. Sa’dullayeva tomonidan amalga oshirilgan. G.S. Sa’dullayeva tadqiqotida oliy ta’lim muassasalarini guruhlarga ajratgan holda alohida marketing strategiyalari taklif etilgan.

Ushbu tadqiqotga yondashuvda qo‘llaniladigan usullar empirikdir. Amaliy iqtisodiy axborot manbalari davriy matbuotdagi nashrlar va statistika organlaridan olingan ma’lumotlardir. Tadqiqot jarayonida bilishning turli umumiy ilmiy usullaridan: tahlil, sintez, abstraksiya, umumlashtirish, iqtisodiy tahlilning mantiqiy usuli va usullaridan foydalanilgan.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ta’lim sohasida davlat ustunligini tugatish, tijoratlashgan ta’limni shakllantirish, jamiyat hayotining o‘zgarishi axborot bozori va mehnat bozori bilan bir qatorda ta’lim sohasiga faol ta’sir ko‘rsatayotgan ta’lim xizmatlari bozorining paydo bo‘lishiga olib keldi. Iqtisodiyot va jamiyatni axborotlashtirish va raqamlashtirish, davlat va biznes tuzilmalari faoliyati uchun institutsional sharoitlarning o‘zgarishi telekommunikatsiya texnologiyalari, informatika va boshqalar bilan bog‘liq turli xil ta’lim xizmatlariga talabning oshishiga olib keldi.

Jahondagi global ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar, sivilizatsiya siljishlari, yangi antropogen voqelik arafasida o‘rnatilgan ta’lim tizimi va paydo bo‘ladigan ijtimoiy ehtiyojlar o‘rtasidagi nomuvofiqlikni tobora ko‘proq ochib bermoqda. Bu nomuvofiqliklar vaqti-vaqti bilan oliy ta’lim tizimini isloh qilishga urinishlarni keltirib chiqaradi. Ushbu urinishlarga qaramay, ko‘plab tadqiqotchilar ta’lim sohasining holatini tanqidiy, deb

baholaydilar. Ta'lim tizimining inqirozli hodisalari tabiiy ravishda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning aksi bo'lib, quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'limning odatiy maqsadlarining deformatsiyasi;
- moliyalashtirishning keskin yetishmasligi;
- barcha ta'lim tizimlariga va umuman jamiyatga xos bo'lgan inertsiya.

Ammo inqiroz faqat ushbu muammolar qatoriga tushirilsa, uni yengish faqat vaqt va O'zbekiston oliy ta'lim tizimini isloh qilishda muvaffaqiyat masalasi bilan bog'liq bo'lar edi. Biroq, mahalliy va xorijiy olimlarning ta'lim muammolariga jiddiy e'tibor qaratishlari, birinchi navbatda, insoniyatning dunyoqarashi evolyutsiyasi bilan bog'liq bo'lib, u insonni makrokosmosning bir qismi sifatida dunyoning ilmiy manzarasi markaziga qo'yadi. Shundan keyin ta'lim muammolari birinchi o'ringa chiqadi, chunki ular asosiy umuminsoniy qadriyatlarga ta'sir qiladi, bu ularni ko'rib chiqishga sivilizatsiyaviy yondashuvni talab qiladi. Bu masalalarga quyidagilar kiradi:


- ijtimoiy va me'yoriy bosim va shaxsning ijtimoiy-psixologik avtonomiyaga bo'lgan istagi o'rtasidagi muvozanatni izlash, ijtimoiy tuzum "ehtiyojlari" va manfaatlarining nomuvofiqligini bartaraf etish sifatida shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni optimallashtirish muammosi;
- innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda boshlang'ich nuqtaga aylanishi mumkin bo'lgan yangi ijtimoiy va ta'lim paradigmasini yaratish va amalga oshirish jarayonida ta'lim mazmunining parchalanishini bartaraf etish muammosi;
- ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarni innovatsion yondashuvlar bilan muvofiqlashtirish va integratsiyalash muammolari;
- monologdan dialogik muloqotga bosqichma-bosqich o'tish orqali o'quvchilarda muammoli fikrlashni rivojlantirish muammosi;
- ta'lim jarayonini har tomonlama tizimli tahlil qilish asosida yagona ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish orqali turli tipdagi ta'lim muassasalarida ta'lim natijalarining kamaytirilmasligini bartaraf etish muammosi;
- ijtimoiy tabaqalanish muammosi va ta'lim sifati.

Umuman olganda, umumiy ta'lim va kasb-hunar ta'limining optimal kombinatsiyasi hali topilmagan. O'sha davr ruhiga to'g'ri kelmaydigan ko'plab kamchiliklar, me'yor va qoidalarni fosh etgan jiddiy tanqiddan so'ng ta'lim avvalgidan ko'ra moslashuvchan bo'lib bormoqda. Lekin uning malakali mutaxassislar tayyorlashdagi o'rni va mas'uliyati hali talab darajasidan yiroq.

Bugungi kunda oliy ta'lim oldida qiyin tanlov – uni yanada rivojlantirishning eng yaxshi yo'llarini topish turibdi. Amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni baholash noaniq, chunki jamoatchilik kayfiyatida jamoatchilik fikri juda xilma-xil, shu jumladan, diametral qarama-qarshi nuqtai nazarlar mavjud. Biroq, taklif va mulohazalar, mohiyatiga ko'ra qanchalik ziddiyatli bo'lmasin, jamiyatning ilmiy-ma'rifiy salohiyatni ta'minlash va yanada yuksaltirishdan chuqur manfaatdorligini aks ettiradi.

O'zbekistondagi ta'lim xizmatlari bozori uni butun dunyodagi ta'lim xizmatlari bozoridan keskin ajratib turadigan xususiyatlarga ega. Bu u taqdim etayotgan xizmatlarning o'ziga xosligi bilan emas, balki uni shakllantirish uchun nisbatan qisqa vaqt ajratilganligi bilan bog'liq. Tahlilchilarning fikriga ko'ra, u endigina ozmi-ko'pmi sivilizatsiyalashgan shaklga kira boshladi.

Ta'lim xizmatlari bozori tuzilishini quyidagicha tasvirlash mumkin (1-rasm):



1-rasm. Ta’lim xizmatlari bozori sxemasi

Umumlashgan tarzda aytish mumkinki, ta’lim xizmati deganda, bir taraf (o‘quv markazi) ikkinchi tarafga (tinglovchiga) bilim, ko‘nikma, kasbiy va shaxsiy malaka darajasida miqdor va sifat o‘zgarishiga erishmog‘i uchun taklif etadigan, hissiyotlar orqali anglashilmaydigan faoliyat turi ko‘zda tutiladi. Ta’lim xizmatini ko‘rsatish tinglovchilarga servis xizmatlari ko‘rsatish bilan, o‘quv jarayonining boshqarish sifati bilan va tanlangan marketing strategiyasi bilan ham chambarchas bog’liq. Ta’lim muassasasi tomonidan taklif etiladigan ta’lim xizmatlari pirovardida, unga nisbatan iste’molchilarning e’tiborli munosabatini shakllantiradi va olinadigan foydaning ko‘payishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirish davlat uchun strategik ahamiyatga ega, shuning uchun u ma’lum darajada davlat tomonidan tartibga solish, nazorat qilish va boshqarish obyekti bo‘lishi kerak. Davlatning ta’lim xizmatlari bozoriga bunday ta’siri bir qator yo‘nalishlarda, jumladan:

- ✓ oliy o‘quv yurtlarini tashkil etish, ro‘yxatga olish va litsenziyalash, ularni akkreditatsiyadan o‘tkazish tartibini belgilash;
- ✓ ta’limni boshqarish organlari, shu jumladan, oliy va oliy o‘quv yurtidan keyingi organlar faoliyatini tashkil etish;
- ✓ turli darajadagi hokimiyat organlarining ta’lim tizimini rivojlantirishda vakolatlarini tabaqalashtirish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- ✓ davlat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy va ta’lim siyosati va davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish;
- ✓ mutaxassislarni tayyorlash va ularni taqsimlash, ishga joylashtirish bo‘yicha davlat buyurtmasini amalga oshirish;
- ✓ talabalar, o‘qituvchilar va oliy o‘quv yurtlari xodimlari uchun ijtimoiy imtiyozlar va kafolatlarni belgilash amalga oshirish va boshqalar.


Iqtisodiyotning har qanday bozor modeli faqat davlatning tadbirkorlik sohasiga, shu jumladan aholiga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq aralashuv darajasini belgilaydi, lekin uni hech qanday tarzda tartibga solish funksiyalari va majburiyatlaridan ozod qilmaydi. O‘zbekistonga kelsak, davlatning milliy manfaatlarning vakili va kafolatchisi sifatidagi roli uning tarixiy an’analariga to‘liq mos keladi va tarkibiy, texnologik va institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish bilan bog’liq salbiy tendentsiyalar bu rolni yanada muhimroq qiladi.

Davlatning iqtisodiyotga ta’siri muammosini hal qilish xalq xo‘jaligining eng muhim sohalaridan biri sifatida oliy ta’lim tizimida ham xuddi shunday muammoni hal qilish bilan bog’liq. Bunga ehtiyoj deyarli hech kim tomonidan muhokama qilinmaydi, ammo muammoning o‘zi muhokama mavzusi bo‘lib qolmoqda. Bu yerda, shuningdek, davlat-

ning zamonaviy iqtisodiyotdagi rolini baholashda nuqtai nazarlar qutbli: davlatning oliy ta'lim sohasiga ta'sirini kuchaytirish talablaridan, bunday ta'sirni kamaytirishga chaqiradi, bu inson kapitaliga kiritiladigan investitsiyalarning o'ziga xos ijtimoiy xususiyati bilan belgilanadi.

Bizningcha, oliy ta'lim faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi konsepsiyasining uslubiy asosi "aralash iqtisodiyot" nazariyasi bo'lishi kerak. Ushbu yondashuv umumiy manfaatlarni hisobga olish zarurati bilan belgilanadi, ta'lim sohasining strategik ahamiyati butun jamiyat hayotini ta'minlash uchun yetarlicha muhim bo'lib, uni rivojlantirmasdan turib, u shunchaki yashay olmaydi. Yana bir yondashuv, nisbiy o'z-o'zini tartibga solish rejimida ishlaydigan universitetlar faoliyatini muvofiqlashtirishning bozor mexanizmining nomukammalligi bilan bog'liq. Bozor mexanizmining nomukammalligi ta'lim xizmatlarining stixiyali bozorini jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib davlat tomonidan tartibga solish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

OTMlarini rivojlantirish strategik rejasini ishlab chiqishning tahliliy bosqichida ma'lumotni birlashtirish uchun ta'lim xizmatlari bozorida mavjud bo'lgan bir nechta tadqiqot usullarini ikkita bozor subyekti - ta'lim xizmatlarining iste'molchilari va xaridorlarining xatti-harakatlari va qarorlariga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish bilan to'ldirish kerak (2-rasm).



2-rasm. Ta'lim xizmatlari bozorini tadqiq qilish metodologiyasi

Ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishi va rivojlanishi butunlay o'z-o'zidan emas, balki uni talab va taklifda ham tartibga solish kerak, lekin turli chegaralarda va turli usullar shu bilan birga, ta'lim xizmatlari bozori, boshqa bozorlar kabi, o'zini-o'zi tartibga soluvchi tizim bo'lib, dinamik muvozanat holatidadir. Bunday vaziyatda ta'lim sohasi, ayniqsa, oliy ta'lim oraliq o'rinni egallaydi. Gap shundaki, uning xizmatlari ham shaxsiy yo'naltirilgan obyektlar, ham o'zlashtirish va yiroqlashtirish obyektlari bo'lishi mumkin,

garchi har qanday xizmat ko‘rsatishda bo‘lgani kabi, bu yerda yiroqlashtirishning tabiati shartli.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim sohasidagi bozor munosabatlarini o‘rganish va ta’lim xizmatlari bozori infratuzilmasini rivojlantirish ularning murakkab va qarama-qarshiligini aniqlash imkonini berdi. Bir tomondan, ko‘plab universitetlarning faol moslashuv faoliyati, shuningdek, umumrespublika darajasida va ayrim mintaqalarda ko‘rilgan bir qator chora-tadbirlar natijasida ijobiy tendensiyalar paydo bo‘ldi va rivojlanmoqda: yangi qonunchilik bazasi shakllantirilmoqda, boshqaruv funktsiyalari qayta taqsimlanmoqda, ko‘p kanalli moliyalashtirish elementlari paydo bo‘lmoqda, nodavlat ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatmoqda, muassasalar, ta’lim dasturlari mazmuni yangilanmoqda va hokazo. Boshqa tomondan, bir qator muammolar ham yuzaga keldi, ular moliyalashtirishning yetarli darajada emasligini, shuningdek, byudjet mablag‘larini taqsimlashning samarasiz va shaffof bo‘lmagan mexanizmini kiritish; sifatli ta’lim olishda ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytirish; asosiy vositalarning amortizatsiyasi; o‘qituvchilar tarkibining ketishi va qarishi. Bundan kelib chiqadiki, hozirgi vaqtda universitetlar faoliyatini va ta’lim xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning roli va mas’uliyati ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аванесов Ю.А., Клочко А.Н., Васькин Е.В. Основы коммерции на рынке товаров и услуг: учебник /– М.: Люкс-Арт, 1995. – С. 176. (Avanesov Yu.A., Klochko A.N., Vaskin E.V. Fundamentals of commerce in the market of goods and services: textbook / – M .: Lux-Art, 1995. – 176 p.)

2. Аверкин В.Н., Иванова Н.М. Экономическая политика в условиях демократизации образования / – Новгород: Новгородский региональный центр развития образования. Новгород, 1997. – С. 14. (Averkin, V.N., Ivanova, N.M. Economic policy in the context of the democratization of education / – Novgorod: Novgorod regional center for the development of education. Novgorod, 1997. – 14 p.)

3. Александрова Н.А. Образовательная услуга: основные свойства и социальная роль / – Кострома, 1995. – С. 140. (Alexandrova N.A. Educational service: basic properties and social role / - Kostroma, 1995. – 140 p.)

4. Альтбах Ф.Дж. Глобальные перспективы высшего образования / – М.: Высшая школа экономики, 2018. – С. 547. (Altbach F.J. Global perspectives of higher education / – M.: Higher School of Economics, 2018. – 547 p.)

5. Ахметова А.М. Совершенствование системы экономического обеспечения высшей школы: автореф. дисс. канд. эконом. наук: 08.00.05 /– Саранск: Мордовский университет, 1997. – С 24. (Akhmetova A.M. Improving the system of economic support for higher education: Ph.D. diss. cand. economy Sciences: 08.00.05 / - Saransk: Mordovian University, 1997. – 24 p.)

6. Болотов В.А. О состоянии, тенденциях и перспективах системы образования в России /– URL: http://www.pomor.rU//ScientificLife/Library. (Bolotov V.A. On the state, trends and prospects of the education system in Russia /– URL: http://www.pomor.rU//ScientificLife/Library)

Feruza HOMIDJONOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

15 YOSHLI KURASHCHI QIZLARNING KUCH, JISMONIY SIFAT KO‘RSATGICHLARINI ANIQLAB OLISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada olib borilgan ilmiy tatqiqotlar va ilmiy izlanishlar yosh kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda turli xil vositalardan, jumladan, harakatli oyinlardan samarali foydalanish katta samara berishi asoslab berilgan va muallif bu yonalishni yanada chuqurroq o‘rganib uni ilmiy asoslab beradi. Shuningdek, jismoniy tarbiya nazariyasining asoschilaridan biri P.F Lesgaft bolalar o‘z harakatlarini boshqarib borishga o‘rganishlarida va ularda bunday mahoratni rivojlantirib borishda harakatli o‘yinlarning muntazam ravishda o‘tkazilib turilishi yaxshi yordam berishini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Jismoniy yuklamalar, jismoniy sifatlar, chidamkorlik, tezkorlik, chaqqonlik, kuch, egiluvchanlik jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari.

Научные исследования и научные изыскания, проведенные в статье, обосновывают, что в развитии физических качеств юных борцов большое значение имеет эффективное использование различных средств, в том числе подвижных игр, и, углубляясь в это направление, дают его научное обоснование. Также одним из основоположников теории физического воспитания является П.Ф. Лесгафт отмечал, что регулярное проведение подвижных игр хорошо помогает детям научиться управлять своими движениями и развивать у них такой навык.

Ключевые слова. Физические нагрузки, физические качества, выносливость, быстрота, ловкость, сила, гибкость, показатели физического развития.

The scientific research and research carried out in the article substantiate that the effective use of various means, including outdoor games, is of great importance in the development of the physical qualities of young wrestlers, and, delving into this direction, give its scientific justification. Also, one of the founders of the theory of physical education is P.F. Lesgaft noted that regular outdoor games help children learn to control their movements and develop such a skill.

Key words. Physical loads, physical qualities, endurance, quickness, agility, strength, flexibility indicators of physical development.

Hozirgi kunda kurash sport turi bo‘yicha ko‘plab yuqori malakali murabbiylarning yosh sportchilar bilan olib borayotgan mashg‘ulot jarayonlari yuqori natijalrni qayt etib mamlakatimiz sharafini yanada yuksaklarga ko‘tarishgan bo‘lsa, ko‘plab olimlarimiz ham ushbu sport turi bo‘yicha o‘z izlanishlari bilan yoshlarning mashgu‘ulot jarayonlarida sportchilarga berilayotgan jismoniy yuklamalarning to‘g‘ri taqsimlanishi va yosh sportchilarning xato kamchiliklarini aniqlab ularni bartaraf etishga ko‘maklashmoqda.

Umumiy jismoniy tayyorgalik darajalarninig shakilanib borish ko‘rsatkichlari har bir belgilangan nazorat sinovlari orqali aniqlab olindi.

15 yoshli kurashchi qizlarning kuch jismoniy sifat ko‘rsatgichlarini aniqlab olish

uchun amaliy nazorat sinovlari o‘tkazildi. Ushbu yoshda kuch sifatini aniqlashda past turnikda 90º tortilish sinama mashqi tanlab olindi. Tajriba va nazorat guruhi kurashchilari yil boshida ko‘rsatgan natijalarida deyarli farq yo‘qligi aniqlandi (14.2±1.5; 14.3±1.8) yil oxiriga kelib tajiriba guruhi natijalari 17±2.12 marotaba tortilishgan bo‘lsa, variatsiya koeffisiyenti 12.47 foizni tashkil qildi. Yil boshiga nisbatan solishtirganimizda yil oxirida yosh kurashchi qizlarni 3,2 foizga o‘sish kuzatilganini ko‘rish mumkun. Statistik farqlar ishonchliligi t=2.92 p<0.05 ga teng.

Nazorat guruhi kurashchilarida ham yil oxirida ko‘rsatgan natijalari yil boshida ko‘rsatgan natijalariga nisbatan 1.9 foizga yaxshilangan.

Turgan joyda uzunlikka sakrashda tajriba guruhi kurashchilarining pedagogik tajribadan oldin ko‘rsatgan natijalari 1.71±0.63 (metr) variatsiya koeffitsiyenti 36.8 foizni tashkil qildi. Yil oxiriga kelib yosh kurashchi qizlarning ko‘rsatgan natijalar 1.85±0.65 (metr) masofaga sakrashdi. Variatsiya koeffitsiyenti 35.13 foizga teng bo‘ldi. Tajriba o‘rtasidagi o‘sish farqi 0.14 foizni tashkil qildi.

Nazorat guruhi kurashchilari yil boshida ko‘rsatgan natijalari 1.72±0.55 (metr) variatsiya koeffitsiyenti 31.9 foizga teng bo‘lsa, yil so‘ngiga kelib ushbu ko‘rsatgich natijalarida 0,06 foizga o‘sish kuzatildi. Statistik farqlar ishonchliligi aniqlandi (T=1.12 >0.05).

Kuch sifati o‘zgarishlarini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhlarida yil boshida olingan tajribamizda ko‘rsatgan natijalari o‘rtasida sezilarli darajada farq yo‘qligi aniqlandi.

Navbatdagi olingan amaliy nazorat sinovi orqali eguluvchanlik jismoniy sifat ko‘rsatkichlari aniqlab olindi. Unga ko‘ra oldinga egilish mashqi tanlab olindi. Tajriba guruhi kurashchilarida tik turgan holda oldinga egilish pedagogik tajribadan so‘ng 16.5±2.4sm ni, (V=14.54 foiz) ga, nazorat guruhida esa 14.5±3.4 sm (V=23.44 foiz) ga teng bo‘ldi. Tajriba guruhi nazorat gurihiga qaraganda ko‘rsatgan natijalari yaxshi ekanligini va statistik farqlar ishonchliligi aniqlandi (p>0.05).

Dinamik egiluvchanlik – dinamik xususiyatlarga ega mashqlarda namoyon bo‘ladigan egiluvchanlikdir. Statik egiluvchanlik – statik egiluvchanlikka ega mashqlarda namoyon bo‘ladigan egiluvchanlikdir.

Umumiy egiluvchanlik – turli yo‘nalishlarda eng yirik bo‘g‘imlarda katta amplituda bilan harakatlarini bajarish qobiliyatidir.

Yuqorida o‘tkazilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili anketa so‘rovnamasi, suhbat pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash usularidan foydalangan xolda o‘tkazilgan ilmiy izlanishlarimizdan olingan natijalar xulosalariga tayangan holda yosh kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda harakatli o‘yinlarning qo‘lanilish shiddati xajmi va meyorlarini aniqlab tatbiq etishning samarodorligini aniqlash maqsadida 15 yoshli kurashchi qizlarda pedagogik tajriba o‘tkazildi.

Pedagogik tajriba o‘tkazish maqsadida 15 yoshli kurashchi qizlarni ikki guruhga ya’ni tajriba guruhi va nazorat guruhiga ajratib olindi. Yosh kurashchi qizlarning tezkorlik jismoniy sifati qay darajada ekanligini bilish maqsadida 100m masofaga yugurish mashqi tanlab olindi. Pedagogik tajriba natijalariga ko‘ra tajriba guruhi kurashchilari yil boshida ko‘rsatgan natijalari 17.8±1.3 sekund variatsiya koeffitsiyenti V=7.30 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, yil oxiriga kelib ushbu ko‘rsatkich 16.5±1.8 sekund variatsiya koifisenti V=10.60 foiz natija ko‘rsatishdi. Ular o‘rtasidagi farq 1.3 foizga yaxshilandi. Nazorat guruhi kurashchilarida ham ushbu sinov mashqi olindi, yil boshida va yil oxirida ko‘rsatgan natijalari tajriba guruhi bilan deyarli farq qilmadi. (17.4±1.2s V=6.89

foiz;) (16.9±1.2s V=7.10 foiz), statistik farqlar ishonchliligi t=0.69 p>0.05 ga teng bo‘ldi.

Nazorat guruhi kurashchilari ko‘rsatgan natijalari 4.54.0±0.33 (minut) variatsiya koeffitsiyenti V=7.26 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, yil so‘ngiga kelib ushbu ko‘rsatkichlarda o‘sish kuzatildi. 4.32.0±0.41 (minut) natija ko‘rsatishgan variatsiya koifisenti V=9.4 foizga teng bo‘ldi. Olingan tajribada ko‘rinib turibtiki, nazorat guruhida ham yil so‘ngiga kelib ma’lum miqbdorda o‘sish kuzatildi. Statistik farqlar ishonchliligi (t=1.12 p>0.05) .

Bizning nuqtayi nazarimizda ilgari surilgan ilmiy farazimizning qanchalik xaqiqatga yaqinligi tajriba guruhida shug‘ilanuvchi kurashchilarning jismoniy sifatlari nazorat guruhida shug‘ilanuvchi tengdoshlari natijalariga nisbatan solishtirilganda o‘sish darajasining foizlarida katta farqlar aniqlanganligi o‘z isbotini topmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yakka kurashchilarda jismoniy sifatlarini rivojlantirish muomolari bo‘yicha ilmiy va o‘quv-metodik adabiyotlarini tahlil qilish orqali, oxirgi vaqtlarda sport soxasidagi mutaxassislarning e’tibori umumiy va maxsus tayyorgarlikning eng samarali vositalari va metodlarini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, ular sportchi organizimining funksional tizimlariga oshirilgan talablarni qo‘yadi, ularning imkonyatlari musobaqa foaliyatining muvaffaqiyatli ekanligini belgilaydi.

Yani o‘yinlar ularni katta tezlik, chaqqonlik va epchilik ko‘rastib, aniq maqsadni ko‘zlagan holda harakat qilishga o‘rgatadi. Bunda ular qoidalarni bajarishga, o‘z-ozini boshqarishga, o‘rtoqchilikni qadrlashga ham o‘rgatib boradilar. Jismoniy sifatlarning rivojlanganlik darajasini ifodalovchi test mashqlari natijalariga ko‘ra, tajriba va nazorat guruhlarida yil boshida ko‘rsatgan natilari bir-biridan deyarli farq qildi.

Jismoniy sifat ko‘rsatkichlari, jumladan, kuch, tezkorlik, chidamkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik kabi sifatlar 14-15 yoshli kurashchilarda yetarli darajada rivojlanganligi ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, tajriba va nazorat guruhlarini jismoniy holatlari yahshi darajada ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4881-son Qarori / lex.uz

2. Abdullayev Sh.A. Erkin kurash. –Toshkent, axborot press 2017 y.

3. Адбулхаков М.Р. Борться чтобы побеждать. Спорт в твоей жизни. – М., 1990 г. -144 с.

4. Aliyev I.B. Kurash bilan shug‘ullanuvchi talabalarning mashg‘ulot yuklamalari. – T., 2012 y.

5. Bobomurodov F.I. Kurashchilarning morfologik xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishga differensial yondashuv. Ped.f.b.f.d (PhD). diss. avtoreferati.

Sherzod RO‘ZIYEV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA VOLEYBOL TO‘GARAKLARINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Voleybol – dunyodagi eng ommabop sport turi, futboldan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Voleybol – bu raqobatbardosh sport turi bo‘lib, o‘yinchilar va ularning oilalarini g‘alaba qozonishga intilishlari mumkin bo‘lgan raqobat ruhi. Bu tennis, basketbol, gandbol va beysbol kabi boshqa tanish sport turlarining ijodiy kombinatsiyasi sifatida tasvirlangan. Voleybol to‘garagini ochish qiziqarli bo‘lishi mumkin, lekin bu ham mashaqqatli ish. Maqolada oliy ta’lim muassasalarida voleybol to‘garaklarini tashkil etishning ahamiyati xususida taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar. Voleybol, to‘garak, matonat, tavsiya, jismoniy tarbiya, mashaqqat, jismoniy tarbiya.

Волейбол – самый популярный вид спорта в мире, уступающий только футболу. Волейбол – это соревновательный вид спорта с соревновательным духом, который может заставить игроков и их семьи хотеть побеждать. Его описывают как творческое сочетание других знакомых видов спорта, таких как теннис, баскетбол, гандбол и бейсбол. Открыть волейбольный клуб может быть весело, но это также и тяжелая работа. В статье предложены предложения и рекомендации относительно важности организации волейбольных клубов в высших учебных заведениях.

Ключевые слова. Волейбол, кружок, упорство, рекомендация, физическое воспитание, трудолюбие, физическое воспитание.

Volleyball is the most popular sport in the world, the second only to football. Volleyball – is a competitive sport with a competitive spirit that can make players and their families want to win. It is described as a creative combination of other familiar sports such as tennis, basketball, handball and baseball. Starting a volleyball club can be fun, but it’s also hard work. The article offers suggestions and recommendations regarding the importance of organizing volleyball clubs in higher education institutions.

Key words. Volleyball, circle, perseverance, recommendation, physical education, hard work, physical education.

Voleybol jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish vositasi sifatida ham eng ommaviylashgan sport turiga mansubdir. 1996-yil iyul oyida AQSHning Atlanta shahrida bo‘lib o‘tgan Butunjahon Kongressida e’lon qilinganidek, ushbu sport o‘yini jahon miqyosida fiitboldan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi. Voleybol o‘zining hammabobligi, go‘zal o‘yin mazmuni, kattayu kichik yoshdagi insonlar diqqatini o‘ziga rom qiluvchi hujum va himoya kombinatsiyalari bilan nafaqat shahar va tumanlar markazlarida, balki uzoq qishloqlarda, mahallayu maskanlarda, to‘y va bayramlarda bahs-raqobat, sihat-salomatlik, jismoniy va ruhiy barkamollik vositasi sifatida turli yosh va qatlamga mansub aholi hayotiga kirib bormoqda. Voleybol o ‘quv fani va salomatlik manbai sifatida barcha ta’lim muassasalari o ‘quv rejasiga kiritilgan. Ayniqsa, so‘nggi yillarda voleybolni “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada”, “Xotin-qizlar spartakiadasi”, “Faxriylar” musobaqalari kabi ko‘p bosqichli va muntazam o‘tkazilib kelinayotgan nufuzli sport tadbirlari dasturidan joy olishi uni geografik chegarasi hamda

shug‘ullanuvchilar soni keskin orta borishligiga zamin yaratdi. To‘garakda malakali, fidoyi murabbiylarni topish voleybol to‘garakini qurish harakatlarining asosiy maqsadlaridan biridir. Iqtidorli murabbiylar katta hurmatga sazovor bo‘lsada, ba’zida uzoq soatlar va raqobat stressidan so‘ng xodimlar almashinuvi samara beradi.

Voleybol 1895-yilda AQSHda ixtiro qilingan va birinchi voleybol klubi 1900 yilda yaratilgan. O‘shandan beri dunyo bo‘ylab klublar soni sezilarli darajada oshdi. Hozirda xalqaro musobaqa va chempionatlarda ishtirok etuvchi professional voleybol klublari ko‘p. Voleybol klublari Rossiyada 1920-yillarda paydo bo‘lgan. O‘shandan beri ular mashhur bo‘lib, ularning ko‘pchiligi uzoq tarix va an'anaga ega. Ba'zi mashhur rus voleybol klublari: Dinamo-Moskva, Zenit-Qozon, Lokomotiv-Novosibirsk, Yaroslavich va boshqalar.

Yangi texnologiyalar va mashg‘ulot usullari paydo bo‘lishi bilan voleybol klublari o‘z o‘yinchilarining o‘yinini yaxshilash uchun yangi yondashuvlardan foydalana boshladilar. Klublar ham o‘z saflariga ko‘proq odamlarni jalb qilish, voleybolni ommalashtirish maqsadida o‘z ijtimoiy tarmoqlari va veb-saytlarini faol rivojlantirmoqda. So‘nggi yillarda o‘smirlar jamoalari va bolalar voleybolini rivojlantirishga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Ko‘pgina to‘garaklar bolalar va o‘smirlarning sport bilan shug‘ullanishi va voleybol bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus dasturlar tashkil etadi.

Voleybol klubi – bu sevimli sport turi bilan shug‘ullanish, o‘yin mahoratini oshirish va hamfikrlarni topish mumkin bo‘lgan joy. Klublar turli darajadagi musobaqalarda qatnashish, shuningdek, jamoa bilan birgalikda rivojlanish imkoniyatini beradi. Yangi texnologiyalar va yondashuvlar paydo bo‘lishi bilan voleybol klublari rivojlanishda davom etmoqda va bu sport turiga tobora ko‘proq odamlarni jalb qilmoqda.

Voleybol to‘garagining asosiy maqsadlari:

– aholini turli qatlamlarining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi manfaatlarini qondirish uchun qulay sharoit va imkoniyatlar yaratish;

– voleybol mashg‘ulotlarini olib boruvchi Perm shahri ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

To‘garakning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– har tomonlama shaxs shaxsini rivojlantirish;

– bolalar, o‘smirlar, yoshlarni Rossiyaning yuqori darajadagi madaniyatli fuqarosi sifatida tarbiyalashni takomillashtirish;

– odamlar o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik tuyg‘usini tarbiyalash;

– Akulovskiy mikrorayon aholisi va maktab o‘quvchilarining munosib bo‘sh vaqtlarini tashkil etish.

Voleybolchilar sport hayotining muhim qismiga aylanganini tushunish ularning mashg‘ulotlari muntazamligini ko‘rib chiqish kifoya. Voleybol barcha a’zolarni birlashtiradi. Shakllangan sport to‘garagi o‘ziga xos xususiyat va talablarga ega bo‘lishi lozim. Unda mikroiqlim va sport tarbiyasi madaniyati bo‘lishi kerak. Bu muhitga sho‘ng‘ish orqali har bir ishtirokchida umumiylikni topsa bo‘ladi. Voleybol a’zolarni birlashtiradi va kuchliroq qiladi.

To‘garakning rivojlanishi uchun uchta yo‘nalish bo‘lishi lozim: yangi boshlanuvchilar uchun mashg‘ulotlari, turnir va musobaqalar tashkil etishi, professional to‘garaklar o‘yinlariga sayohatlar. Zotan, jismoniy tarbiya va sportning ulkan ijtimoiy salohiyatidan manfaat va farovonlik yo‘lida to‘liq foydalanish zarur. Bular ma’naviy va jismoniy majburiy tiklanishning eng arzon va samarali vositalaridir. Ular, eng avvalo, insonning, jamoaning va jamiyatning yaxshi niyatiga, axloqiy-psixologik munosabatiga asoslana-

di. Voleybol jamoaviy o‘yin ekanligini hamma biladi. To‘garakda har bir o‘yinchini maksimal darajada qo‘llab-quvvatlashga, nafaqat yangi boshlanuvchilar va havaskorlar, balki professional o‘yinchilar uchun ham imkon qadar yaqin va qulay bo‘lishga intilish lozim. Yosh umuman muhim emas – hamma ishtirok etadi.

Darvoqe, sport menejmenti bozor iqtisodiyoti sharoitida sport sanoati korxonalarini samarali boshqarish amaliyoti va nazariyasidir. Bu jarayon voleybol to‘garaklari istiqboli uchun ham muhim bosqichdir. Zero, so‘nggi yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislar ishining muhim bo‘g‘ini, qoida tariqasida, shunga o‘xshash tashkilotlar bilan raqobatda tijorat asosida ko‘rsatiladigan turli sog‘lomlashtirish xizmatlarini ko‘rsatishga aylandi.

Bozor sharoitida jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari xususan, voleybol to‘garaklarining mustaqilligi, ular bajarayotgan ish xarakterining murakkablashishi va faoliyat hajmining oshishi boshqaruv sohasini sezilarli darajada kengaytirishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, yosh voleybolchilarni dastlabki tayyorgarlik mashg‘ulotlari ularni voleybolchilarga muvofiq bo‘lgan jismoniy fazilatlari tezkorlik, chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Voleybol o‘yini texnikasi va taktikasining asosiy shakllari bo‘yicha malaka va ko‘nikmalar egallanishi uchun tayyorgarlik olib borilishi kerak. Asosan voleybolchining sakrash, yugurish, o‘tirish va tashlanish harakatlari hamda o‘yinga to‘p kiritish, to‘p qabul qilish, to‘p uzatish harakatlari texnikasi o‘rgatiladi. Taktik harakatlardan voleybol o‘yinida ishtirok etish, soxta harakatlar, fintlar bajarish bo‘yicha malakalar hosil qilinadi.

Yosh sportchilarning trenirovka mashg‘ulotlari davrlarga bo‘lib tashkil etiladi. Tayyorlov davrida yosh voleybolchilar voleybol o‘yini texnika va taktikasi elementlarini egallab boradilar va jismoniy fazilatlari rivojlantiriladi. Shu bilan birga yosh sporchilarda ma’naviy, axloqiy hamda ruhiy iroda tayyorgarligi tashkil etiladi. Tayyorlov davri musobaqalar boshlangunga qadar olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kodirova M.A., Pulatov A.Л., Ummatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. –T.: Fan va texnologiya, 2018, – 480 b.

2. Qo‘chqarova O.V., Qipchoqov V.V., Boltayev G.V. Voleybol. O‘quv qo‘llanma, –T., 2001 y.

3. Salomov R.S., Kerimov F.A. Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma, –T., 2002 y.

4. Usmonxodjayev T.S. va boshqa. Bolalar va o‘smirlar sporti mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyatlari. –T., 2005 y.

5. https://fayllar.org/download/voleybol-togaragini-tashkil-qilishning-metodik-xususiyatlari.doc

Muqaddas ABDULLAYEVA,
Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markaz direktori, p.f.n., dotsent

O‘QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH – QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH DOLZARB MASALA

Annotatsiya

Pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifasi hamda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar har qachongidan kengayib bormoqda. Mazkur maqolada muallif aynan pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish orqali ta’lim-tarbiya masalasiga e’tiborni kuchaytirishda pedagog o‘qituvchilar o‘zlariga talabni kuchaytirishlari buning uchun o‘z ustida tinimsiz ishlashlari, shundagina o‘quvchilarga ijobiy ma’noda ta’sir ko‘rsata olishlari mumkinligi, kutilayotgan natija ijobiy bo‘lishligi haqida fikr yuritilgan. O‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan tajriba sinov natijalari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish, yagona tizim, ta’lim, tarbiya, pedagog, tajriba, ommaviy madaniyat, qayta tayyorlash, malaka oshirish.

Сегодня расширяются реформы в сфере образования и проводятся работы по организации системы непрерывного профессионального развития педагогических кадров. В данной статье автор указывает, что именно, через непрерывное профессиональное развитие у учителей педагогов есть возможность неустанно работать над собой для повышения своей востребованности, для усиления внимания к проблеме образования и воспитания, и, в конечном итоге, оказания положительного влияния на учащихся. Представлены результаты опытно-экспериментальной работы, проведенной среди учителей.

Ключевые слова. Непрерывное профессиональное развитие, единая система, образование, воспитание, педагог, опыт, массовая культура, переподготовка, повышение квалификации.

Establishing a system of continuous professional development of teachers is an urgent task of today, and the reforms implemented in the field of education are expanding more than ever. In this article, the author thinks that in order to increase attention to the issue of education through the continuous professional development of teachers, they should work tirelessly on themselves for this purpose, and only then they can have a positive effect on students, and the expected result will be positive. The results of an experiment conducted among teachers shown.

Key words. Continuous professional development, unified system, education, upbringing, pedagogy, experience, public culture, retraining, professional development.

XXI asrda yoshlar va ularning muammolarini o‘rganish va hal etish bugungi kundagi ahamiyatli va dolzarb masalalardan biridir. Yoshlar ongiga turli ko‘rinishda ta’sir o‘tkazish orqali ularning milliy, insoniy va ma’naviy ildizlaridan ayirishga va manqurt kimsalarga aylantrishga urinayotgan kuchlar mavjud bo‘lib, ular “Ommaviy madaniyat” niqobi ostida o‘zlarining virtual ko‘rinishdagi, me’yorlarga ega bo‘lmagan, ahloqsiz va mantiqsiz “ommaviy madaniyat”ni yoyishga urinishmoqda.

Ushbu muammolarni hal etish uchun ta’lim muassasalarida mehnat qilayotgan va ta’lim-tarbiya berayotgan o‘qituvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy ishlar samaradorligini oshirishga oid bilim, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Har bir o‘quv mashg‘uloti orqali o‘quvchilarni turli yot, mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish mehanizmlarini yangilash zarur.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishning maqsadi - xodimlarning egallab turgan lavozimlari, mutaxasisliklari yoki dars beradigan fanlari bo‘yicha kasbiy va pedagogik mahorati doimiy ravishda o‘sib borishini, ularning ilg‘or pedagogik va axborot texnoligiyalari, shuningdek, o‘qitishning interaktiv usullari bo‘yicha kasbiy bilimlari, malaka, ko‘nikmalari muntazam ravishda yangilanib borishini ta’minlash hamda ularni davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va sohaga oid qonunchilik bilan doimiy tanishtirib borishdan iborat ekanligi ko‘rsatildi. Shu bilan birga, uzluksiz kasbiy rivojlantirishning aniq vazifalari ham belgilab berildi:

– xodimlarni doimiy kasbiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadigan muhitni yaratish;

– mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini singdirish va xodimlarning qobiliyatini rivojlantirish hamda yangi bilimlar berish orqali o‘z ustida mustaqil ishlash va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

– xodimlarning individual kasbiy rivojlanish traektoriyasi asosida kompetentlik darajasini oshirish va kasbiy mahoratini takomillashtirish;

– ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish;

– umumiy o‘rta ta’lim sifatini oshirishning asosiy manbasi sifatida xodimlarning kasbiy rivojlanishini, tashabbuskorligini, ilmiy tadqiqotlarga intilishini va ijodiy mahoratini rag‘batlantirish.

Ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy - texnikaviy taraqqiyot jadallashgan sari fan, texnika va texnologiya taraqqiyotining yangi va eng yangi yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlarni qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Uzluksiz ta’limning yagona tizimini nazariy-metodologik va tashkiliy-pedagogik ta’minlash muammosiga nazar tashlar ekanmiz, maktabgacha, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi, oliy ta’limni takomillashtirish bilan bir qatorda, katta yoshdagi, ishlayotgan pedagoglarni ham ta’lim bilan qamrab olishga, bugungi kun talabini xar bir fan yo‘nalishlari bo‘yicha ular tajribasiga singdirishlikka e’tibor berilayotganini ta’kidalamaslik mumkin emas. Rivojlangan mamlakatlarning ko‘pchiligida malaka oshirish, kadrlarni qayta tayyorlashning aniq shakllangan shakli va tizimi xozirgacha yetarli darajada shakllanmagan.

Fan texnika taraqqiyoti bozor iqtisodiyotiga talab oshayotgan bir paytda, yuqori malakali xodimlar oldiga katta fazifani yuklaydi va bunda ularning moddiy ahvoli ta’lim va malaka darajasiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Tabiiyki, bu o‘z navbatida odamni o‘zining mehnat vazifalarini sifatli bajarishi uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni olishga yo‘naltiradi. Xodimlarga yuklatilgan vazifalarning uzluksiz murakkablashib borishi, raqobat ular tomonidan yuqori umumta’lim darajali kasbga sifatli tayyorlanishni, kasbdagi yangiliklarni qisqa muddatda oson o‘zlashtirishni, ishlab chiqarishning tez o‘zgaruvchan sharoitlariga moslasha olishini, yuqori umumiy madaniyatni egallashni taqozo etadi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishdan maqsad o‘qituvchining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, uning shaxsiy sifatlarini, kasb bilimlari va

umumiy saviyasini takomillashtirish, pirovard maqsad esa, o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash sifatini keskin oshirishdan iboratdir.

Shuningdek, o‘qituvchi shaxsining psixologik qiyofasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Malaka oshirish kursi tinglovchilarining ijtimoiy-psixologik portretini baholash tizimini shakllantirishga qaratilgan metodikalarni ishonchliligi, ularning obyektivligini tekshirish maqsadida Ijtimoiy gumanitar va tabiiy fanlar yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan va tahsil olayotgan kurs tinglovchilari ustida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Tajriba-sinov natijalarida o‘qituvchining psixologik qiyofasining tabiiy va gumanitar yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar o‘ziga xoslikni, o‘xshash va farqlarni izohlash imkonini beradi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, gumanitar (5.00) va tabiiy (5.33) yo‘nalishda tahsil berayotgan o‘qituvchilarda “psixoemotsional holati”da ularning asablari ancha sezgirligi, kayfiyatlari ko‘proq tashqi omillarga bog‘liqligi, noqulay vaziyatlarda esa ular asbiylashadilar. Ular o‘zga kishining holatini qabul qilish va unga hamdard bo‘lishga qodirlar. Noqulay vaziyatlar ularni qiyin ahvolga solib qo‘yishi mumkin. Bunday hollarda ular asabiylashib, bezovtalanadilar. Ojizaliklarini namoyon etadilar va bu ularning ish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Noqulay holatlarni barataraf etishga hamisha ham qodir emaslar. Ammo ular o‘zlarining his-tuyg‘ularini boshqara olishlari kerak va lozim.

O‘qituvchilarning “O‘zini-o‘zi baholash” shkalasida gumanitar (5.36) va tabiiy (4.95) yo‘nalish o‘qituvchilarida birinchi variant ustuvor bo‘lib, u holda ular o‘zlarini ijobiy qabul qila oladilar. Ular ijodiy fikrlaydilar, darsda jonli muloqot muhitini yaratishga qodirlar, o‘quvchilar bilan hamjihatlikda ishlab, ularga psixologik yordam ko‘rsata oladilar. Ular o‘quvchilarni shaxs sifatida qabul qila oladilar va ularni qadrlaydilar. Bu esa o‘quvchilarning hissiy rivojlanishiga va o‘zlari haqidagi tasavvurlarining reallikka aylanishiga olib keladi. Ular shijoatli, yorqin xulq-atvorlari, ijodiy yondashuv va demokratik tomoyillarga amal qilishlari bilan ajralib turadilar.

Shuningdek, o‘qituvchilarning yo‘nalganliklari tahlil etilganda, gumanitar va tabiiy yo‘nalish o‘qituvchilarida o‘ziga va odamlarga yo‘nalganlikdan ko‘ra “faoliyatiga” (15.77 va 17.70) yo‘nalganlik motivlari yuqori ko‘rsatkichlarni ko‘rsatdi.

Xulosa qilganda, pedagog shaxsini ijobiy yo‘nalishda o‘zgartirmoq darkor. Pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari va sifatlarini tahlil etish o‘qituvchilarning muvaffaqiyatli ishlari uchun zarur bo‘lgan asosiy omillarni aniqlab beradi. Bu hol malaka oshirishni mavjud shakllari va usullariga tanqidiy yondashishga va mazkur usullar bo‘yicha tajribalar o‘tkazishga da’vat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yo‘ldoshev J.G‘. Malaka oshirishning nazariy va metodologik asoslari: – T.: “O‘qituvchi”, 1998.– 208 b.

2. Malaka oshirish – ta’lim-tarbiya omili. – T.,1993. – 136 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi 25-sonli Qarori

4. Turg‘unboyeva K., Ortiqova M. Pedagogik innovatsiya asoslari. (o‘quv qo‘llanma).

5. O‘zbekiston qahramoni K. G‘opirov, “Siz murabbiy”, Bo‘lajak va yosh o‘qituvchi hamda tarbiyachilar uchun esdaliklar.

6. Tohir Malik. M-21 Tanlangan asarlar: “Xusni xulq” – T.: Sharq, 2010. -704 b.

Ahmad BAHRIYEV,
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, “Musiqa pedagogikasi” kafedrasi dotsenti, pedagogika fandari doktori

JANR XUSUSIYATLARI NEGIZIDA O‘QUVCHILARNING MUSIQIY TINGLOVCHILIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada musiqa pedagogikasining dolzarb masalalaridan biri – janr xususiyatlari negizida o‘smir o‘quvchilarning musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish, buning uchun birinchi navbatda xalq, mumtoz, zamonaviy milliy va xorijiy musiqaning yuksak badiiy namunalarini o‘zlashtirish, ular bilan muloqot qilish bo‘yicha to‘plangan tajriba, turli musiqiy uslub, janr va shakllar borasida egallangan bilimlar asosida musiqaning obrazli-semantik mazmunini emotsional idrok etish qobiliyatini shakllantirish masalalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar. Musiqa janri, musiqa shakli, musiqiy emotsional ta’sir, musiqiy kechinma, musiqiy did, tenglovchilik madaniyati.

В статье анализируется один из актуальных вопросов музыкальной педагогики – развитие музыкальной слушательской культуры школьников-подростков на основе жанровых особенностей.

Ключевые слова. музыкальный жанр, музыкальная форма, музыкально-эмоциональное воздействие, музыкальное переживание, музыкальный вкус.

The article analyzes one of the topical issues of musical pedagogy - the issue of the development of the musical listening culture of adolescent schoolchildren based on genre features.

Key words. Musical genre, musical form, musical and emotional impact, musical experience, musical taste.

Uzluksiz musiqa ta’limi va tarbiyasida tayanch konseptual asoslar va qadriyatlarga tayangan holda o‘quvchilarda musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish zamonaviy musiqa ta’limi nazariyasi va amaliyotining dolzarb muammosi sanaladi. Musiqa o‘zining dastlabki tashqi unsurlari – janr, shakl va ritmik xususiyatlari orqali muhim emotsional ta’sir vositasiga aylanadi. Uning ichki imkoniyatlari – tovushlar yo‘nalmasi, tovush tembri xususiyatlari, interval va akkordlar munosabati, faktura, ansambl va orkestr vositasida ifodalanadigan ohanglarni anglash uchun ma’lum darajada tinglovchilik tajribasiga zarurat paydo bo‘ladi.

Shu bois, musiqa tinglashni faollashtirish o‘quvchilarda ijodiy tasavvur, xayolot, fantaziya va ijodiy ilhom imkoniyatlarini kengaytiradi, tinglash jarayonida badiiy obrazlarning asar dramaturgiyasida tutgan o‘rnini adekvat aks ettirish tajribasi kengayib boradi. Bu esa o‘quvchilarning musiqiy mazmunni teran anglash, musiqiy obrazlar xususiyatlarini to‘laqonli idrok etishiga olib keladi va musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Tinglash faoliyatining asosiy vazifasi o‘quvchining musiqiy tinglovchilik madaniyatini shakllantirishdir. Bu, birinchi navbatda xalq, mumtoz, zamonaviy milliy va xorijiy

musiqaning yuksak badiiy namunalarini o‘zlashtirish, ular bilan muloqot qilish bo‘yicha to‘plangan tajriba, turli musiqiy uslub, janr va shakllar borasida egallangan bilimlar asosida musiqaning obrazli-semantik mazmunini emotsional idrok etish qobiliyati, shuningdek, tinglash faoliyatiga nisbatan mavjud ehtiyoj shakllanishi bilan belgilanadi.

Tinglangan asarning emotsional intonatsiyasi – bu idrok ob’ektidir. Tinglash faoliyati mazmuni: musiqiy obraz; estetik-axloqiy asos (bastakor faoliyat ko‘rsatgan davr va estetik-axloqiy qarashlari); badiiy tasvir (tinglovchi tomonidan kodlangan va amalga oshirilgan ijodiy tajriba, fikrlarning mantiqiy ketma-ketligi). Musiqiy faoliyatlarni amalga oshirish darsning ajralmas qismidir. Bu o‘quvchiga musiqiy ijroning mohiyatini his qilishiga, musiqani idrok etish, bilish va uni o‘z faoliyatida tasarruf etishga qodir tinglovchi sifatida o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Musiqiy-til kodlari intonatsiyada aks etadi, uning mohiyati esa kechinmalar va munosabatlar ramzlaridadir. Bu tushuncha aynan musiqa tinglash mexanizmlarining ayrim xususiyatlarini aks ettiradi. “Zamonaviy musiqa pedagogikasida musiqani janr tahlili asosida o‘qitishda katta tajriba to‘plangan. Musiqashunoslikda o‘rganilgan janr tasnifi deyarli barcha o‘quv dasturlarida musiqa materialini tanlash va tartibga solish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi”.

Musiqaning tasarrufi darajasi turli musiqiy didga ega o‘quvchilar, auditoriyaning tinglash faoliyatiga tayyorgarligi, badiiy dunyoqarashi, musiqiy bilimi hamda tajribasiga bog‘liq. “Musiqa oddiy yoki murakkab tuzilgan bo‘lishi, dag‘alroq yoki nozik, ommaviylashgan yoki o‘ziga xos bo‘lishi mumkin”. Bularning barchasi o‘quvchilarda shakllanadigan musiqiy did darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

O‘tmishda kuzatilmagan bunday holat musiqiy hayot subyektlari bo‘lmish o‘smirlar faoliyatini ma’lum darajada murakkablashtirdi. Zamonaviy muallif o‘z asarining taqdiri bilan qiziqishi, matbuot, tinglovchilar fikrlarini o‘rganishi zarur. U albatta, ma’lum doiradagi tinglovchilar, referent guruh fikriga tayanadi. Biroq, ularning bahosi hamisha ham keng sonli real tinglovchilar bahosi bilan bir xil bo‘lavermaydi. Shuning uchun tinglanadigan musiqa asarlariga bildiriladigan munosabat o‘smirlar tomonidan ushbu asarlarga beriladigan baho tarzida qabul qilinishi maqsadga muvofiq.

Yillar davomida maktab o‘quvchilarining musiqiy idroki etalon darajasidagi ijrolarda muqobil ijrolarsiz rivojlantirilgan. Bugun bir asar ijrosining turli talqinlarini qiyoslash bolalar tomonidan musiqadagi mazmunni idrok etishning samarali metodiga aylandi. Texnik imkoniyatlar o‘qituvchiga bir asar ijrosining turli talqinlarini, masalan Internet resurslari vositasida qiyosiy tahlil qilishga imkoniyat yaratadi. Kuylashda eshitish va ko‘rish sezgilarining shartlanganligi eshitish va kuylash malakalarini birgalikda mustahkamlaydi. Oddiy musiqa asarlarini kuylash bolalarning eshitish diqqatini faollashtiradi, musiqiy eshitish tasavvurlarini rivojlantiradi.

“Musiqiy ladlar bir-biridan tubdan farq qiladi, ularni tinglaganda bizda turli kayfiyatlar paydo bo‘ladi, biz har bir ladga bir xil munosabat ko‘rsatmaymiz: masalan, miksolidiy va boshqa nisbatan “yumshoq” ladlarni tinglab, kayfiyatimiz yumshaganini his qilamiz, boshqa ladlar o‘rtacha muvozanatli kayfiyatlarni hosil qiladi”.

Har qanday janrdagi musiqani muntazam tahliliy tinglash tovush balandligini eshitish qobiliyatini rivojlantiradi, bu ayniqsa, solfedjio mashg‘ulotlari orqali keng rivojlanadi. Badiiy obrazlarni intellektual o‘zlashtirish ba’zan butun bir syujetning badiiy mazmunini to‘laqonli anglashga sharoit yaratadi. Agar cho‘zimi nisbatan katta bo‘lsa, vibrato musiqa jumlasining yakunlovchi notasida ijobiy effekt hosil qiladi.

“Kompozitor – ijrochi-tinglovchi” triadasi (uchligi)ni tahlil qilib, badiiy obraz yaratish

va uning talqini borasida asosiy uchta yo‘nalishni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ularning dastlabkisi, subyektiv yondashuvdir. Ikkinchisi, diqqatni ijro etiladigan yoki tasvirlanadigan asarning obyektivligiga qaratish bilan bog‘liq. Uchinchi yo‘l ushbu ikki yondashuvning birlashtirilishiga erishishdan iborat, ya’ni musiqa asari yaratilishi, ijro etilishi va tinglovchi tomonidan idrok etilishi yaxlit jarayon bo‘lib, ularni bir-biridan ajratish noo‘rindir. Musiqa san’atida badiiy voqelikni kechinmalar orqali aks ettirish muhim, asar qanchalik tabiiy, obyektiv tarzda ijro etiladigan bo‘lsa, uning shunchalik tinglovchiga yetib borishi yengil kechadi.

Kompozitor musiqa yozib, o‘zining hislarini ramzlar tarzida namoyon etadi va bu tajriba unga musiqachilarning oldingi avlodlaridan o‘tadi. Ijrochi o‘zining bilim, malaka va ko‘nikmalariga tayangan holda, musiqiy ramzlar asosida jonli va real hislar harakatini yaratishi va uning tinglovchiga atalganligini bir zum bo‘lsada, yodidan chiqarmasligi zarur. Shu yo‘ldan borib ham kompozitor, ham ijrochi dramatik teatr aktyori singari o‘zlari yaratgan obrazlar olamiga kirishi zarur. Har ikkalasi o‘z subyektiv hissiyotlarini yoki borlikni obyektiv aks ettirish vazifasini, yoki muallif matnini ifodalashda chuqur mas’uliyatni his etishlari kerak, zero, musiqa yakuniy natija, tinglovchi ongida maqbul tasavvurlar uyg‘otishi lozim.

Bu uchun tinglashga qo‘shimcha tarzda ertaklar, afsonalar, hikoyalar, kinofilmlar, hayotiy voqealardan foydalanish mumkin. Darsda tinglangan musiqa asaridagi voqea-hodisalar borasida hikoya yaratishni so‘rash o‘quvchilarni musiqa asarining rivojlanishini yaxlit tarzda kuzatishga undaydi. Syujetda musiqadagi mavjud kayfiyatni, ifodalangan kechinmalarni teran his etish muhimdir, shundan keyin asarning asosiy intonatsiyalarini tahlil qilishga o‘tish mumkin. Badiiy syujet va musiqalarni taqqoslash o‘quvchilar uchun qiziqarli faoliyatga aylanishiga erishish zarur.

Tinglash materiali sifatida eng ko‘p istifoda etiladigani qo‘shiq janridir. “Xalq og‘zaki ijodining qo‘shiq janri – tugal fikr badiiy ifodalangan, el orasida keng tarqalgan va barcha kishilar tomonidan kuylanishi mumkin bo‘lgan mustaqil to‘rtlikdir. Inson hayotini qo‘shiqsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Qo‘shiqlar faqat to‘yda va bayram tantanalarida emas, balki insonning hayot yo‘lida suyanchig‘i va doimiy hamrohidir”. Musiqa materiali sifatida qo‘shiqlardan keng foydalanish o‘quvchilarda milliy g‘urur va iftixorni shakllantirishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Musiqaning ta’siri, ya’ni insonni o‘ziga rom etuvchi kuy va ritm asosida tinglovchining ichki emotsional holati barqarorligi yanada oshadi, bu estetik emotsiyalar asosidagi erkin, motor-tonik harakatlarda ifodalanadi. Musiqa muskul tonusini oshiradi yoki pasaytiradi, nafas olish ritmini me’yorlashtiradi yoki o‘zgartiradi, qon aylanishi hajmiga, puls chastotasiga, qon bosimiga, insonning jismoniy holatiga ta’sir ko‘rsatib emotsiyalar namoyon etilishini stimullashtiradi. Musiqa psixologik-pedagogik vosita sifatida o‘quvchilarni musiqa san’atiga olib kirish orqali ularning shaxsiy sifatlarini, tushuncha va tasavvurlari doirasini, ma’naviy-axloqiy, intellektual va emotsional sohalarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Keyingi paytlarda ko‘p yozilgan masala – bu musiqada sifat masalasidir. Musiqa og‘zaki muloqotdan farq qiladigan o‘ziga xos til bo‘lib, har doim bizning his-tuyg‘ularimizga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Shu jarayonda biz bilan nima sodir bo‘ladi, to‘liq ayta olmaymiz, biroq, o‘z reaksiyamiz orqali nimadir bo‘layotganligini tushunamiz, ushbu emotsional ta’sir bizga musiqaning to‘liq qiymatini anglashimiz uchun yetarlidir.

Musiqa janrlari borasida o‘quvchilarda mavjud bilim va tasavvurlar ularda tinglovchilik tajribasi kengayishiga imkon yaratadi. Janr – barcha san’at sohalari singari mu-

siqa san’atida ham keng qo‘llaniladigan va musiqa asarlarining shakl hamda psixologik ta’sir imkoniyatlarini aks ettiradigan mezonlardan biridir. Masalan, qo‘shiq yoki kuy janri, cholg‘u yoki vokal janrlar, yakkanavoz yoki jamoaviy ijrochilik janrlari. Bular masalaning umumiy jihatlarini aks ettiradi va tasniflash jarayonida masalaning ichki jihatlari yanada ochilib boraveradi.

Misol uchun, chizgan rasmlarini yoki ijro etgan musiqa namunalarini tahlil qilish orqali o‘quvchilarning tasavvur va tafakkuri yo‘nalganligini, tinglash tajribasi darajasini bilib olish mumkin. Ijodiy ilhom tabiatdan va g‘ayriixtiyoriy ravishda beriladigan imkoniyat bo‘lib, boshqa paytda amalga oshirib bo‘lmaydigan ijodiy ishni uddalashda namoyon bo‘ladi. Ijobiy yoki salbiy bo‘lsin – kuchli emotsional kechinmalar bunda katta rol o‘ynaydi. O‘z-o‘zini ta’kidlashga intilish kuchli bo‘lsa, shaxsni kuchli hissiyotlar qamrab olsa, bu holda musiqaga murojaat qilish – inson ma’naviy hayotini teran aks ettirish va yuksaltirishning yetakchi vositasiga aylanadi. Tinglovchi faoliyati murakkab jarayon bo‘lib, bunda kompozitor o‘z maqsadi va aytmoqchi bo‘lgan fikrini badiiy ifoda orqali ongida aks ettiradi, tasavvuriga joylashtiradi. Tinglovchi faoliyatida badiiy ijoddagi mantiq ustun ahamiyatga ega bo‘lib, tinglayotgan asari mohiyatiga kirishi talab etiladi.

Musiqiy qiziqishlar doirasi qaror topgan turli musiqiy yo‘nalishlarning ommalashuvi darajasiga ham bog‘liq, biroq, shu bilan birga individual hamdir. Musiqiy qiziqishlar uch darajada, ya’ni, bilishga qaratilgan, emotsional va xulq-atvor (xatti-harakat)da namoyon bo‘ladi.

Bilishga qaratilgan darajasida tinglanayotgan asarga nisbatan o‘quvchi reaksiyasi – tanish asarga minimal darajada, yangi tinglanayotgan asar yoki uslubga nisbatan esa maksimal darajada namoyon bo‘ladi. Emotsional darajada asarni tinglash jarayonida, shuningdek, tinglash jarayonini eslash vaziyatida musiqaning inson hissiyotlariga ta’siri namoyon etiladi. Xulq-atvor namoyon etilishi – musiqa tinglash, ya’ni konsertga tushish, audio yoki video rejimda musiqa tinglashi jarayonida namoyon bo‘ladi.

Murakkab shaxs tuzilmasi sifatida musiqa madaniyati bosqichma-bosqich, maktabgacha yoshdan, ya’ni bola musiqiy rivojlanishi davridan shakllana boshlaydi va o‘smirlik davrida ancha yuksak pog‘onaga ko‘tariladi.

Madaniyat fenomenologiyasi tabiiy uzluksizlikni o‘zida aks ettiradi, bu uning tuzilishi, amaliyoti va madaniy tuzilmalarning rivojlanish mexanizmlarida ko‘zga tashlanadi. Aynan musiqa asarlarida ifodalangan emotsional mazmun asosida idrokda baholash mexanizmlari paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Demak, “Insonning musiqa madaniyatini shakllantirish ilk bolalikdan boshlab chinakam yuqori badiiy saviyadagi musiqa asarlarini idrok etishga nisbatan tajribani o‘zlashtirib borishni taqozo etadi”.

Shu bois, musiqiy ma’rifat jamiyatda musiqa madaniyatini shakllantirishning kuchli vositasi bo‘lib, shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda qaysi yo‘nalish va mazmundagi musiqa targ‘ib etilayotganligi ayon. Saviyasi xususida e’tiroz bildirilayotgan ayrim “musiqa asarlari”ni targ‘ib etishda xususiy radio va telekanallar tashabbusni qo‘ldan bermay kelishmoqda. Umuman, yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarlari targ‘iboti bugun talab darajasida emas, bundan tashqari, cholg‘u musiqasiga ham keyingi paytda e’tibor birmuncha pasaydi. Buni radio va televideniyada berilayotgan cholg‘u asarlari miqdori hamda konsert tashkilotlari repertuaridan ham bilish mumkin. Agar bu masalaga yetarli e’tibor qaratilsa, tinglovchilarning, ayniqsa, o‘quvchilarning badiiy-musiqiy saviyasi o‘sishi, musiqiy tinglovchilik madaniyati yuksalishi, ma’naviyatining o‘sishi uchun yanada puxta zamin hozirlagan bo‘lar edik.

Har qanday musiqa asari, avvalo, tinglovchi uchun yaratilishi oddiy haqiqat. Lekin, o‘sha tinglovchi bilan professional musiqachi, kompozitor, aranjirovkachining musiqa asari, undagi badiiy mazmun, ifoda imkoniyatlarini tahlil qila olish saviyasida farq bo‘lishi lozim. Albatta, professionallar tinglovchilarni yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarlari bilan ta’minlashlari zarur. Shundagina musiqa san’atining ezgulik, ertangi kunga ishonch, Vatanga, ona yurtga nisbatan muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish vazifasi to‘la amalga oshirilishi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Ba’zi o‘quvchilarda asar ijrosi jarayonida o‘z kechinmalariga haddan ziyod berilish uchrab turadi, albatta, bu jonli va bevosita hissiyotlar uchun muhim, shunga qaramasdan, personaj hissiyotlaridan tinglovchi hissiyotlari keyingi pozitsiyada turishi lozim. Kechinmalar nazorat qilingandagina maqbul ijodiy jarayon uchun sharoitlar paydo bo‘ladi. Bunda nozik sezgirlik o‘z-o‘zini to‘liq his etish bilan nazorat qilinadi. Tinglash jarayonida paydo bo‘ladigan kechinmalar orqali ijodiy jihatdan asarni to‘la anglash, uning mazmuniga kirib borish maqsadga muvofiqdir. Bunda asarning obyektiv mazmunini aks ettirishdan ko‘ra, hissiyotlar ustun kelishini kuzatish mumkin. Demak, o‘quvchi-tinglovchi badiiy voqelikni idrok etishda nafaqat o‘z hislarini, balki, muallif tasavvuridagi badiiy obraz hayotini ongida aks ettirishi lozim.

Musiqiy tovushlarni tinglab – balandligi, tembri, cho‘zimi va kuchi kabi ifoda vositalari orqali farqlaymiz. Ushbu barcha parametrlar birgalikda olinganda, tinglash orqali paydo bo‘ladigan sezgilarning sifat miqdorini tashkil etadi. Sezgining sifati bir sezgidan boshqasini farqlashdagi asosiy xususiyatdir. Eshitish sezgilari ham boshqa sezgilar singari inersiyaga ega. Baland, kuchli tovushlarni eshitgandan so‘ng ma’lum vaqt qulog‘imizda jaranglab turishi hammamizga ma’lum.

O‘quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatida ularning konsertlarga, teatr spektakllariga, muzeylarga, kartina galereyalariga tushishi ham ijobiy sanaladi va bu maskanlarda ham ma’lum darajada tarbiyaviy muhitdan ijobiy ta’sirlanish va taassurotlarga ega bo‘lish imkoni bor. Umuman, musiqiy tinglovchilik madaniyatini shakllantirish jarayonini kompleks pedagogik-psixologik tadbirlar asosida tashkil etilganda o‘quvchilarda musiqadagi badiiy-estetik mazmunni yanada teran anglash imkoniyatlari kengayib boradi, bu esa barkamol shaxsni tarbiyalashda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Орлова Т.С. Жанровый подход к обучению музыке в условиях дополнителного образования. 13.00.02 – теория и методика обучения и воспитания (музыка). Дисс. канд. пед. наук. Волгоград, 2019. – С. 251.

2. Кандаурова Л. Как слушать музыку. Изд-во “Алпина Дети”, 2020. – С.152.

3. Теплов Б.М. Психология музыкальных способностей: учебное пособие / Б.М. Теплов. – 4-е изд., стер. – Санкт-Петербург: Лан: Планета музыки, 2022. — С. 488.

4. Vohidova N.X. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida xalq og‘zaki ijodi asosida milliy g‘ururni tarbiyalash. Ped. fanl. nomzodi. diss-ya. – T., 2011. – 155 b.

5. Кузуб Т.И. Музыкалная культура XX века как феномен эпохи глобализатции. Автореф. дисс. канд. културологии. 2009. – С. 29.

6. Фадеева С.А. Преемственность в процессах музыкального воспитания и образования (детский сад-школа-колледж-ВУЗ). Автореф. дисс. докт. пед. наук. М., 2007. – С. 55.

Guzal NAZIROVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha pedagogika fanlari doktori

MAKTABGACHA TA'LIM TASKILOTLARIDA PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL ETISHDA RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARNING MAQSADI VA VAZIFALARI

Annotatsiya

Tarbiyachi pedagogik jarayonni tashkil etishda bajariladigan qator vazifalarni belgilab olishi zarur. Maktabgacha ta'lim Rivojlantiruvchi markazlarda mashg'ulot eng asosiy shakl sanalib, u hamma bolalar uchun muhimdir. Unda tarbiyachi dastur mazmunida belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lum o'rin va vaqt ajratilganligiga e'tiborini qaratib, o'zining rahbarligida o'tkaziladi. Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishda Rivojlantiruvchi markazlarning maqsadi va vazifalari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Ilm-fan markazi, sifatli ta'lim olish, kasbiy mahoratlarini oshirish, kasbiy kompetentlik, samara beradigan metod va usullar, malaka oshirish jarayonining tashkiliy-didaktik tizimi, interfaol metodlar, pedagogik tadqiqotlarda tizimli-majmuaviy tashxis.

Воспитателю необходимо определить ряд задач, которые нужно решить в организации педагогического процесса. В дошкольном образовании Центры Развития являются самой базовой формой обучения, и это важно для всех детей. В ней воспитатель определяется в содержании программы, ориентируясь на то, что в повестке дня ему отведено определенное место и время, и она осуществляется под его руководством..

Ключевые слова. Развивающие центры Дошкольно образовательных учреждений повышение квалификации, профессиональная компетентность, эффективные методы и приемы, организационно-дидактическая система процесса повышения квалификации, интерактивные методы, методология дидактического исследования, системно-комплексная.

The educator needs to identify a number of tasks that need to be solved in the organization of the pedagogical process. In preschool education, Development Centers are the most basic form of education, and this is important for all children. In it, the educator is determined in the content of the program, focusing on the fact that he has a certain place and time on the agenda, and it is carried out under his leadership..

Key words. Developing centers of Preschool educational institutions advanced training, professional competence, effective methods and techniques, organizational and didactic system of the professional development process, interactive methods, methodology of didactic research, system-integrated.

Tarbiyachi pedagogik jarayonni tashkil etishda bajariladigan qator vazifalarni belgilab olishi zarur. Maktabgacha ta'limda Rivojlantiruvchi markazlarda mashg'ulot eng asosiy shakli sanalib, u hamma bolalar uchun muximdir. Unda tarbiyachi dastur mazmunida belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lum o'rin va vaqt ajratilganligiga e'tiborini qaratib, o'zining rahbarligida o'tkaziladi.

Rivojlantiruvchi markazlarda tarbiyachi mashg'ulotda bolalarni yangi bilimlardan

xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarni esa aniqlab, mustahkamlaydi, buning uchun tarbiyachi avvaldan mashg‘ulotga mos materiallarni yig‘ishi , unga xos holda mashg‘ulotda obrazga kirishishga yetarli malakasi bo‘lishi muhim sanaladi. Shudan so‘ng, u bolalarning amaliy mashg‘ulotini tashkil etadi.

Maktabgacha ta’limda yosh guruhlar bilan bog‘liqlikda mashg‘ulotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Kichik yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarning maqsadi bolalarning nutqi va harakatini rivojlantirib borishdir. Katta va tayyorlov guruhlaridagi mashg‘ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarkib toptirib boriladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, mas’uliyat hissi takomillashtirilib boriladi, ularda aqliy mehnat qilish malakasi va xohish-istagi tarbiyalanadi.

Maktabgacha ta’lim muassasada mashg‘ulotlar bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Bu mashg‘ulotlarda bolalar o‘quv faoliyati ko‘nikmalari hosil qiladilar, ancha intizomli, uyushgan bo‘lib boradilar. Ularda barqaror diqqat, diqqatni bir narsaga qarata olish, irodaviy zo‘r berilish qobiliyati rivojlanadi. Sistemali o‘qish natijasida bilishga qiziqish paydo bo‘ladi.

Bolalarni jamoada o‘qitish muayyan afzalliklarga ega: birgalikda ishda ular bir-birlariga aktiv ta’sir etadilar, tashabbus, faxm-farosat ko‘rsatish imkoniga ega bo‘ladilar.

Bolalar oldilariga ko‘pchilikdan kuch-g‘ayrat talab qiladigan vazifalar quyilganda birgalikdagi kechinmalar paydo buladi, kollektivizm tuygusi vujudga keladi. Ekskursiyalar, rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, qurish yasashga oid ishlarni birgalikda bajarish, umumiy uyinlarda va musiqa mashg‘ulotlardagi raqslarda, harakatlarni rivojlantirish mashg‘ulotlarida birlashish, badiiy adabiyotni o‘qish tufayli yuzaga kelgan birgalikdagi kechinmalar – bularning xammasi inoq bolalar kollektivini vujudga keltirishda yordam beradi xamda, kollektivda yashash va ishlash ko‘nikmasi hosil qiladi.

Mashg‘ulotlarda ta’lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo‘r berishni talab etadi, ya’ni u bolaning faol harakatlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bola ma’lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg‘ulotga tayyorlanishda bolaning yoshi, imkoniyatini e’tiborga olish zarur. Shuningdek, mashg‘ulotning vaqti, kun tartibidagi o‘rni, dasturning har bir bo‘limlarini to‘g‘ri almashtirib turishni oldindan o‘ylab, aniq belgilab olish zarur. Har bir yosh guruhida necha marta mashg‘ulot o‘tkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg‘ulot yosh guruhlari bo‘yicha necha daqiqa davom etishi ‘‘Bolajon’’ tanyach dasturida ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilab berilgan.

Mashg‘ulotlardagi o‘qitish jarayonida bolalarda maktabga va o‘qishga qiziqish tarbiyalanadi, to‘g‘ri va xulq-atvor ko‘nikmalari, ma’suliyat xissi, ishchanlik, o‘zini tuta bilish, ishda zo‘r berish odati xosil qilinadi.

Bolalarga kerakli bilim va malakalarni mashg‘ulot jarayonida, yangi pedagogik texnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod usullaridan foydalanilsa, bolani yosh, ruhiy fiziologik xususiyatlari inobatga olinsa, tarbiya berishning samaradorligi oshadi.

Bolalar mashg‘ulotlarni turli xil kurinishlarini egallashlari orqali, yoshlari o‘sib borish davomida, maktabga bo‘lgan qiziqishlari ham o‘sib, rivojlanib boradi va ular maktabni xam hech qiynalmay o‘qib, davom ettirib boradilar.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishda tarbiyachi-pedagog avvalo bolalar guruhi jamoasini uyushtira olish mahoratiga ega bo‘lmog‘ligi

muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar guruhi jamoasini tashkil etishda tarbiyachi asosan bolalarga turli bayram tadbirlarida ishtirok etishlariga oid vazifalarni amalga oshirishi, bayram tadbirlarida bolalarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda raqs, she'r, qo'shiq, laparlar, sahna namoyishlarida ishtirok etishlarini ta'minlash bilan birga ulardagi axloqiy munosabatlarda tengqurlarini hurmat qilish, bir-birini fikrini eshita olish kabi fazilatlarni shakillantiradi. Ushbu jarayonda bolalarda o'z Ona Vataniga muhabbat kattalarga hurmat tengqurlarini e'zozlash kabi sifatlar shakllanadi.

Tarbiyachining yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirishda bir qancha vazifalar belgilanadi:

tarbiyachining ko'pqirrali ijodkor bo'lishi;

tarbiyachi ma'naviy-ahloqiy qiyofasi bilan tarbiyalanuvchilarga ibrat bo'lishi;

maktabgacha ta'lim muassasa rahbari va xodimlar jamoasi bilan xamfikr bo'la olish qobiliyatiga ega bo'lishi;

tarbiyachi maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari va maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlar jamoasini ota-onalar bilan hamkorlik o'rnatish tajribasiga ega bo'lishi;

Mashg'ulot turlari va tuzilishi

Mashg'ulot bolalar bog'chasida bolalarga ta'lim berishning asosiy shaklidir.

Maktabgacha ta'lim taskilotlarida mashg'ulot turlari:

Yangi bilim beruvchi: Bolalarni yangi bilimlardan xabardor qilish, tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, tabiatdagi hodisalar, o'simlik va hayvonlarni mavsumiy o'zgarishlari to'g'risidagi bilimlarni aniqlash, kengaytirish, yangi obyektini ko'rinishi, hikoya so'zlab berish.

Mustahkamlovchi: Tabiat bilan tanishtirishdagi to'plagan bilim va tajribalarini mustaxkamlovchi, tizimga soluvchi, idrok etilgan narsalarni anglab olish va dastlabki umumlashtirishga o'rganish, topish, obyektni kuzatish, xona o'simliklarini va hayvonlarni solishtirish didaktik o'yin, suhbat, bilimlarni yangi narsalar, detallar bilan boyitish.

Bilimlarni aniqlovchi: Bolalar dastur bo'yicha o'zlashtirilgan bilim va malakalarini aniqlash. Tarbiyachi kelgusi ish mazmuni metodini belgilaydi. Mashg'ulot kvartal, yarim yil va yilning oxirida mudira va metodistning ishtirokida o'tkazish.

Kompleks: (mujassam) Bolalarga yangi bilim beriladi, egallagan bilimlar mustahkamlanadi va takrorlanadi, tizimga solinadi, olingan bilim va malakalarini amalda qo'llashga o'rganiladi. Tabiat bilan tanishtirishda tasviriy faoliyat, nutqini o'stirish elementar, matematika, musiqa va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan birgalikda tashkil etish (erkin fikrlashga o'rganadi, aqliy vazifalarning birligi va muayyan qiyinchilik bolalarni uyushtiradi, diqqatni ma'lum tomonga yo'naltiradi)

Mashg'ulot-tarbiyachining bolalarni kerakli bilim va malakalardan umumiy holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigienik, xulq madaniyati, nutqi, sanoq-hisob, harakatlari kabi turli tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egallaydi. Mashg'ulotlar bolalar bog'chasida ta'limni tashkil etish shaklidir. U maktabgacha tarbiya yoshidagi hamda bolalar uchun majburiydir, unda dastur mazmuni belgilab berilgan. Kun tartibida unga ma'lum o'rin va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotlarda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarini esa aniqlab mustahkamlaydi. Bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Demak, mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega.


Mashg‘ulot bolalarda barqaror diqqat, irodani, jalb eta olish kabi qobiliyatlari rivojlanadi. Ayniqsa, bolalarga bilim berishni jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega. Birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta’sir etishadi, o‘z tashabbusi, topag‘onligini namoyon qilish imkoniyati tug‘iladi. Bolalar ishiga zo‘r berishni talab etuvchi vazifa qo‘yilganda birgalikda qayg‘urishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish-yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs-o‘yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o‘qishda paydo bo‘lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do‘stona jamoasini yaratishga yordam berib, birga ishlash, yashashga o‘rgatadi. Mashg‘ulotda ta’lim berish orqali bolalarda maktabdagi o‘qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, o‘zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi sifatlar hosil qilinadi.

Mashg‘ulot paytida bolalarda mustaqil fikr yuritish malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga quloq solish , hikoya qilinayotgan voqeadagi asosiy g‘oyalarni ajrata olish, qisqacha umumlashtirish, kabi malakalarni rivojlantirishga katta e’tibor beriladi. Tayyorlov guruhlarida mashg‘ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarbiyalab boriladi.

Mashg‘ulot jarayonida bolalarda kuzatuvchanlik, javobgarlik hissi takomillashtirib boriladi, ularda mehnat qilish malakasi va xohishi tarbiyalanadi. Bolalar bog‘chasida kichkintoylarni tevarak-atrofdagi hayot, tabiat bilan tanishtirish, ularning nutqini, eng oddiy matematik tasavvurlarini o‘stirish mashg‘ulotlari, musiqa mashg‘ulotlari, tasviriy san’at mashg‘ulotlari, ko‘rib yasash, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari olib boriladi. Mashg‘ulotlar boladan aqliy va jismoniy kuchlarni talab etadi, ya’ni u bolaning faolligi bilan, bog‘liq bo‘lib, bola ma’lum natijaga erishish uchun intiladi. Bu esa boladan uzoq ixtiyoriy diqqatni talab etadi.

Mashg‘ulotlarni kunning birinchi yarmida o‘tkazish maqsadga muvofiq, birinchidan, bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, xona tabiiy yorug‘lik bilan yaxshi ta’minlangan bo‘ladi. Har bir yosh guruhida necha marta mashg‘ulot o‘tkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg‘ulot yosh guruhlari bo‘yicha qancha davom etishi bolalar bog‘chasi tarbiya dasturida ularning yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan holda belgilab berilgan.

Bolalarning bilimlarini sinovchi mashg‘ulotlardan maqsad, tarbiyachi bolalar dasturda belgilangan bilim va malakalarni o‘zlashtirish darajasini bilib oladi va o‘zining keyingi ishi mazmuni, metodlarini belgilaydi. Kompleks mashg‘ulotlar bolalar bog‘chasi tajribasida keng tarqalgan bo‘lib bunday mashg‘ulotlar bolalarga yangi bilim beradi. Egallangan bilimlar mustahkamlanadi.



BOLALARNI UYUSHTIRISH	- MTM da turli yosh guruhlarida mashg‘ulotlarini uyushtirishda-bolalar jamoasini tashkil etish, Ona Vatanga muxabbatini uyg‘otish, kattalarga va tengqurlariga xurmatini shakillantirish.

ASOSIY QISM	-Tarbiyachi mashg‘ulotga kerakli bo‘lgan jixozlarni qo‘llashi, kerakli metodlarni qo‘llash maxoratiga ega bo‘lishi.
YAKUNLOVCHI QISM	-Tarbiyachi mashg‘ulotni yakunlovchi qismida bolalarning olgan bilimlarini savol-javob orqali aniqlashtiradi umumlashtiradi va mustaxkamlaydi

Bolalar mashg‘ulotga qiziqish va faollik bilan ishtirok etishi uchun mashg‘ulot mazmuni va metodikasi puxta o‘ylab olinishi kerak. Bolalar o‘quv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar, tarbiyachini e’tibor bilan tinglab, o‘yindan mashg‘ulotga osonlik bilan o‘tadilar.

Fiziologiya, gigiena, psixologiya, pedagogika sohasida olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida bolalar bog‘chalarida kichkintoylar hayotini tashkil etishning quyidagi tamoyillari ishlab chiqildi:

1. Har bir yosh guruhida bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalash va ularning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan bir xil shart-sharoitlar yaratish.

2. Bolalarni yosh guruhlariga taqsimlashda har bir guruhga faqat bir xil yoshdagi bolalarni tanlash va shunga qarab ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.

3. Bolalarning har xil faoliyat bilan shug‘ullanishlari va bir-birlari bilan muloqotga kirisha olishlari uchun zarur bo‘lgan moddiy muhitni yaratish. Buning uchun guruh xonasi va maydonchani gigiyenik, pedagogik, estetik talablar darajasida kerakli asbob-anjomlar bilan ta’minlash.

4. Bolalarning yoshiga mos kun tartibiga rioya qilish va uning barqarorligini ta’minlash.

5. Bolalar shaxsini shakllantiradigan faoliyat turlarini tashkil etish va bu faoliyatlar uchun kun tartibidan ma’lum vaqt ajratish.

Bolalarning har xil faoliyatlarini ilmiy asoslangan tamoyillar asosida almashtirib borish bolalar bog‘chasining har xil yosh guruhlarida bolalar haètini to‘g‘ri tashkil etishni ta’minlaydi.

Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir.

Tarbiya masalalari ta’lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg‘ulotlarda ta’lim berish orqali, ijodiy va qoidali o‘yinlar, bolalarning mustaqil faoliyati, ularning o‘z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, sayrlar, gigienik tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Ta’lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bolalar bog‘chasidagi pedagogik jarayonning har bir faoliyat turini to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liqdir. Bolalar bog‘chasining pedagogik jarayonida ta’lim muhim ahamiyat kasb etadi va kundalik hayot, o‘yin, mehnat, mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg‘ulotda ta’lim va tarbiya vazifalari hal etiladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutq o‘stirish, savod o‘rgatish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo‘yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka hamda ko‘nikma sistemasini egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalar bolalar bog‘chasi dasturida belgilab berilgan bo‘lib, u bolalarning umumiy rivojlanishi va ularni maktab ta’limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mashg‘ulotlarda ta’lim berish didaktika tamoyillari asosida bolalarning èsh va o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olib, ma’lum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Natijada u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo‘ladi.

Dasturda har bir yosh guruhida hafta davomida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar soni va har bir mashg‘ulot qancha davom etishi belgilab qo‘yilgan. Tarbiyachi mana shunga asoslanib, o‘zining haftalik mashg‘ulotlar jadvalini tuzadi, bu ta’limning hamma bo‘limlari bo‘yicha belgilangan ta’lim-tarbiya ishlarini to‘g‘ri taqsimlash va bir xilda amalga oshirishga imkon yaratadi.

Mashg‘ulotlar jadvalini tuzishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

1. Dasturning hamma bo‘limlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni haftaga teng taqsimlash.

2. Haftaning birinchi va oxirgi kuniga osonroq mashg‘ulotlar qo‘yiladi. 3. Haftaning seshanba, chorshanba va payshanba kunlarida bolalardagi aqliy faoliyat tezlashadi, shuning uchun bu kunlarga murakkabroq ishlar rejalashtiriladi.

4. Kun davomida birinchi bo‘lib bolalardan aqliy zo‘r berishni ko‘proq talab etadigan, kam harakatli mashg‘ulotlar rejalashtiriladi (tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishtirish, ona tili, matematika). Tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa va shunga o‘xshash mashg‘ulotlar keyinroqqa rejalashtiriladi.

5. Kun davomida mashg‘ulotlar quyidagicha tartibda almashtirib boriladi: matematika va jismoniy tarbiya, ona tili va tasviriy faoliyat va h.k.

Mashg‘ulotlarni bunday taqsimlash bolalarning dastur materialini yengilroq o‘zlashtirib olishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y. 14-son, 213-modda, 22-son, 406-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr. O‘RQ-637-son. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son)

3. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr. O‘RQ-595-son. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son)

4. Alvested M. Pedagogy and interdisciplinarity: Research on the reformed kindergarten teacher education (KTE) in Norway

5. Azizova Z.F. Qo‘g‘irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. Avtoref. p.f.n – T., 2020. – 52 b.

6. Азаров Ю.П. Мастерство воспитателя. М.: “Просвещение”, 1971.– С.126.

7. Azizxodjayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003. – 175 b.

8. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: “Fan va texnologiya” 2008. – 132 b.

Madinaxon ARSLANOVA,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi p.f.f.d. dotsent v.b.

INKLYUZIV MAKTABGACHA TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK TAMOYILLARI

Annotatsiya

Maqola inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonining tashkiliy-pedagogik tamoyillari va ularning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan. Shuningdek, muallif inklyuziv maktabgacha ta’limni rivojlantirish istiqbollariga doir o‘z fikr va mulohazalarini berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalar, inklyuziv ta’lim, maktabgacha ta’lim, tashkiliy-pedagogik sharoitlar, pedagogik texnologiya, ijtimoiy muhit.

Статья посвящена организационно-педагогическим принципам образовательно-воспитательного процесса в дошкольных образовательных организациях с инклюзивными группами и их особенностям. Также автор высказал свои мысли относительно перспектив развития инклюзивного дошкольного образования.

Ключевые слова. Дети с особыми образовательными потребностями, инклюзивное образование, дошкольное образование, организационно-педагогические условия, педагогическая технология, социальная среда.

The article is devoted to the organizational and pedagogical principles of the educational process in preschool educational organizations with inclusive groups and their features. The author also expressed his thoughts on the prospects for the development of inclusive preschool education.

Key word. Children with special educational needs, inclusive education, preschool education, organizational and pedagogical conditions, pedagogical technology, social environment.

Butun dunyoda ta’limning eng insonparvar shakli sifatida e’tirof etilgan inklyuziv ta’limga bosqichma-bosqich o‘tish davlatimizning ijtimoiy va ta’lim siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan birini tashkil etmoqda. “Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir[1], deya ta’kidlagan edi, davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev. Demak, yurtimizda inklyuziv ta’limning joriy etilishi “Inson qadri uchun” tamoyilining yana bir amaldagi ifodasi va “inklyuziv jamiyat”ga o‘tishning dastlabki qadamlaridan biridir.

Inklyuziv ta’limning asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlaridan biri bo‘lgan “Salamanka dekloratsiyasi”da imkoniyati cheklangan bolalarning barcha xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/5774

bilan bog‘liq qator vazifalar belgilangan[2]. Keyingi yillarda yurtimizda inklyuziv maktabgacha ta’limni joriy etish bo‘yicha qabul qilingan qator qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bu tizimning normativ-huquqiy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etib, uning asosiy tamoyillari, yo‘nalishlari va faoliyat tartib-tamoyillarini belgilab berdi.

Ma’lumki, inklyuziv ta’lim – bu o‘quv jarayonini barcha bolalarning ruhiy, jismoniy, aqliy, madaniy, etnik va boshqa xususiyatlarini hamda maxsus ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda, shu bilan birgalikda, ularni boshqa tengdoshlaridan ajratmagan holda, yashash joylariga yaqin va qulay sharoitlarda tashkil etishdir[3]. Ya’ni inklyuziv ta’lim **Alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning** boshqa tengdoshlari bilan bir xil imkoniyatlarda ta’lim olishi, shu bilan birgalikda ularga o‘ziga xos sifatli pedagogik-psixologik-korreksion yordam tizimini ham taqdim etishni ifodalaydi.

Shundan kelib chiqib aytganda, maktabgacha inklyuziv ta’lim quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

Birinchidan, bolaning individual rivojlanish xususiyatlari ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy “kompas”i bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim-tarbiya jarayoni **alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalar** uchun mo‘ljallangan guruhlardagi har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib tashkil etiladi, shu asosda, ta’limning shakllari, metodlari va vositalari tanlanadi. Bolaning haqiqiy holatini to‘g‘ri tashxislash natijasida har bir bolaning ma’lum ta’lim-tarbiya dasturlari asosidagi rivojlanish yo‘nalishi ishlab chiqiladi. Inklyuziv maktabgacha ta’lim tashkiloti bolaga teng imkoniyatlar asosida rivojlanishi bilan birgalikda, o‘z individualligini saqlab qolishi uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi.

Ikkinchidan, bolaning mustaqil faolligini qo‘llab-quvvatlash bo‘lib, maktabgacha ta’lim tashkiloti bolaning qadam qo‘yadigan, nafaqat birinchi ta’lim muhiti, balki, oiladan keyingi ilk katta ijtimoiy muhit hamdir. Bolaning ushbu ta’lim-tarbiya muhitda shakllangan faolligi uning kelajakda boshqa ijtimoiy muhitlardagi faolligi va integratsiyasi uchun ham zamin yaratadi.

Inklyuziv maktabgacha ta’lim tashkilotida bola ta’lim-tarbiya muhitidagi g‘amxo‘rlikni his etgani holda, uning imkon qadar ongli va faol ishtirokchisiga aylanib borishi kerak bo‘ladi. Bunday yondashuv bolaning ilk rivojlanish davridanoq undagi “ojizlik”, “boqimandalik” kabi ruhiy to‘siqlarni bartaraf qilish bilan birgalikda, o‘ziga ishonch, atrofdagi shaxslar, narsalar, voqyea va hodisalarga nisbatan mustaqil va erkin yondashuvi va munosabatlarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, inklyuziv muhitdagi bola bu muhitni yana, oilada ko‘p kuzatiladigan, “ayirish”, “haddan tashqari g‘amxo‘rlik”, “o‘rinsiz ta’qiqlar” yoki “chegaralash” sifatida qabul qilmasligi lozim.

Uchinchidan, ta’lim jarayoniga barcha ishtirokchilarni faol jalb etish: bunda bola, ota-ona va mutaxassislar ta’lim tashkilotida kichik inklyuziv jamiyatni barpo etishlari lozim bo‘ladi. Bolaning ta’lim-tarbiyasi bilan bog‘liq barcha jarayonlar o‘zaro hamkorlikda rejalashtiriladi va olib boriladi. Inklyuziv ta’lim tashkilotlari pedagoglarining bu jarayondagi mas’uliyati, ko‘proq ota-onalar bilan ishlashda, ularni ta’lim jarayoniga chuqurroq olib kirishda, inklyuziv ta’limga xayrihohligini shakllantirishdan tortib to bola rivojlanis-

[2] Саламанская Декларация Согласно Саламанкской декларации о принципах, политике и практической деятельности в сфере образования лиц с особыми потребностями (Саламанка, Испания, 7-10 июня 1994 г.) https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/pdf/salamanka.pdf

[3] Нигматов З.Г., Ахметова Д.З, Челнокова Т.А. Инклюзивное образование: Казань: Познание, 2014. - стр 12.

hining barcha jarayonlarida, u o‘zlashtirayotgan bilim va ko‘nikmalarni oila sharoitida mustahkamlashga ko‘maklashishda va albatta mutaxassislar bilan doimiy muloqotda bo‘lishlari, ularning tavsiyalari va maslahatlariga doimiy amal qilishlarida tadrijiylikda namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchidan, qator tadqiqotchilarning fikrlariga ko‘ra**,** ta’lim-tarbiya jarayoniga sohalararo yondashuv inklyuziv ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir[4].

Mazkur tamoyil har bir bolaning individual xususiyatlari asosida turli mutaxassislar ishtirokida aniq maqsadli metodlar va vositalarni tanlash yoki belgilashni ifodalaydi, ya’ni maktabgacha ta’lim tashkiloti mutaxassislari (tarbiyachi, logoped, psixolog, defektolog, tibbiyot xodimi va boshqalar) tomonidan bola rivojlanishi jarayonida muntazam olib boriladigan diagnostik ishlar natijasida bosqichli va shaxsga yo‘naltirilgan, ma’lum guruhlar uchun umumiy yoki har bir bola uchun alohida ta’lim-tarbiya, korreksiya va sog‘lomlashtirish rejalari, dasturlari ishlab chiqiladi.

Mutaxassislar ishtirokida tanlangan bola rivojlanishining strategiyasining har bir bosqichida har bir soha o‘zining o‘rniga va vazifalariga ega bo‘lgani holda, bir-birlari bilan uzviy pedagogik-psixologik-korreksion-tibbiy uzviylik zanjirini tashkil etadi.

Beshinchidan, ta’lim-tarbiya jarayonining muqobilligi va variativligi tamoyili bo‘lib, ta’lim-tarbiya dasturlari, metodlari, o‘quv va didaktik vositalari maxsus pedagogika va psixologiyaning zamonaviy yutuqlariga va bevosita ta’lim tashkiloti mutaxassislarining kasbiy mahoratiga bog‘liq holda tanlanadi, rivojlantiriladi.

Inklyuziv muhitda imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim-tarbiyasidan maqsad ma’lum o‘quv-tarbiyaviy dasturlarni o‘zlashtirishdan ko‘ra uni inklyuziv muhitdagi har tomonlama rivojlanishi, mavjud nuqsonlarining bartaraf etilish va tuzatishga qaratiladi. Tadqiqotchilarning fikrlariga ko‘ra, to‘g‘ri tashkil etilgan inklyuziv maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi uchun murakkab nuqsonli bolalar hissasini kamaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi[5]. Shu boisdan inklyuziv maktabgacha ta’lim tashkilotining ta’lim-tarbiya jarayoni muntazam yangilanib va o‘zgarib boruvchi pedagogik jarayondir. Ya’ni, ma’lum guruh yoki ma’lum bolaning rivojlanishidagi o‘zgarishlar amaldagi ta’lim-tarbiya dasturlarini takomillashtirish, muqobil va variativ (bolalarga ijobiy ta’siri va qiziqishlar asosida) dasturlarni joriy etishni taqazo etadiki, bunga muassasa mutaxassislari jamoasi doimiy tayyor bo‘lishlari lozim.

Oltinchidan, inklyuziv maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim-tarbiya modelini doimiy rivojlantirib borishdir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti inklyuziv ta’limni joriy etgach, vaqt o‘tishi bilan o‘zining ma’lum yo‘nalishiga, ijobiy tajribalariga va mutaxassislar jamoasiga ega bo‘lib boradi. Muassasadagi pedagogik jarayonlar natijasida pedagogik modellar shakllanadi va ular muassasa faoliyati sifati va imidjini belgilovchi omillarga aylanadi.

Ta’lim-tarbiya modellarini rivojlantirib borilishi bu muassasaning nafaqat mavjud yoki tavsiya etilgan dasturlar va metodlarni amaliyotga tadbiq etish, balki kichik ilmiy izlanishlar va tajribalar o‘tkaziladigan muhitga aylanishini talab etadi. Ayniqsa, bugungi kunda inklyuziv ta’limga o‘tishda milliy tajribani takomillashtirish maktabgacha ta’lim tashkilotlarining mana shunday ilmiy-amaliy va konsultativ vazifalarini yanada rivojlan-

[4] Qahhorov S.Q., Qahhorova D.S. Inklyuziv ta'lim tahlili. Zamonaviy ta'lim / Современное образование 2015, 8. 43-46 b.

[5] Кириллова Е.А. Инклюзивное образование детей дошкольного возраста с тяжелыми нарушениями речи в России. https://kpfu.ru/staff_files/F1289072995/Statya_Kirillovoj_E._A.2.pdf

tirilishi zaruratdir, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, inklyuziv maktabgacha ta’limni rivojlantirish istiqbollarida quyidagi masalalarni inobatga olinishi zarur, deb hisoblash mumkin:

– keng jamoatchilik o‘rtasida inklyuziv ta’limning afzalliklari, ma’no-mohiyatini keng targ‘ib qilish va tushuntirish maqsadida ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan yanada faol foydalanish, hududiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda, mobil targ‘ibot guruhlari faoliyatini tashkil etish;

– inklyuziv maktabgacha ta’limni tashkil etish va boshqarish jarayonlari samaradorligini oshirish va malakali rahbar kadrlar bilan ta’minlash maqsadida “Inklyuziv ta’lim menejeri” sertifikatlashtirish tizimini joriy etish;

– mamlakatning chekka hududlari va maktabgacha ta’lim qamrovi muammoli hududlarida mobil inklyuziv ta’lim xizmatlarini yo‘lga qo‘yish;

– inklyuziv maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha maxsus loyiha ishlab chiqish va tajriba-sinovdan o‘tkazish;

– keyingi bosqichda inklyuziv maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini rag‘batlantirish uchun tegishli huquqiy va moliyaviy imtiyozlar va ko‘mak berilish tartibini ishlab chiqish shular jumlasidandir.

Xulosa o‘rnida aytganda, yurtimizda uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida maktabgacha ta’lim sohasidagi yangilanishlar va o‘zgarishlar muhim o‘rin tutmoqda. Bu jarayonda davlat tomonidan tizimga jahondagi ilg‘or tajribalarni, jumladan, inklyuziv ta’limni faol joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkiloti bugungi kunda **alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga** rivojlanishining ilk davrlaridanoq sifatli ta’lim-tarbiya berishdek vazifani to‘laqonli bajarishga kirishgan ekan, bu faoliyatning rivojlanish tendensiyalari va istiqboldagi maqsad va vazifalarini aniq belgilash hamda shu asosda yangi dastur va loyihalarni amalga oshirib borish uning muhim missiyalaridan birini tashkil etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/5774

2. Саламанская Декларация Согласно Саламанкской декларации о принципах, политике и практической деятельности в сфере образования лиц с особыми потребностями (Саламанка, Испания, 7-10 июня 1994 г.) https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/pdf/salamanka.pdf

3. Вазирлар Маҳкамасининг қарори. Мактабгача таълим ташкилотлари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. 2019 йил 13 май, 391-сон. www.lex.uz

3. Нигматов З.Г., Ахметова Д.З., Челнокова Т.А. Инклюзивное образование: Казань: Познание, 2014.

5.Qahhorov S.Q., Qahhorova D.S. Inklyuziv ta'lim tahlili. Zamonaviy ta'lim / Современное образование 2015, 8.– 43-46 б.

6. Кириллова Е.А. Инклюзивное образование детей дошкольного возраста с тяжелыми нарушениями речи в России. https://kpfu.ru/staff_files/F1289072995/Statya_Kirillovoj_E._A.2.pdf

Zulfiya MO‘MINOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA GENDER YONDASHUV

Annotatsiya

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda gender yondashuvi masalasi maqola muallifi tomonidan eng muhim masala sifatida ko‘rib chiqilgan. O‘yin – maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining bir turi. Bunda bolalar o‘yinchoqlarining o‘rni beqiyos. Maqolada kattalar va bolalarning birgalikda o‘yinlarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar. Gender, gender ta’limi, gender barqarorligi, axborot va uslubiy yordam, havaskor o‘yin, qo‘lda yasalgan o‘yinchoq.

Автор статьи считает, что важнейшим вопросом в воспитании дошкольников является гендерный подход. Игра является видом деятельности для детей дошкольного возраста. Роль детских игрушек в этом месте несравнима. В статье даны рекомендации по организации совместных игр для взрослых и детей.

Ключевые слова. Гендер, гендерное образование, гендерная стабильность, информационно-методическая поддержка, любительская игра.

The author of the article believes that the most important issue in the education of preschoolers is the gender approach. Play is an activity for preschool children. The role of children’s toys in this place is incomparable. The article gives recommendations on organizing joint games for adults and children.

Key words. Gender, gender education, gender stability, information and methodological support, amateur game.

Yosh avlodni gender asosida tarbiyalash muammosi eng dolzarb murakkab va ziddiyatli muammolardan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalik – bu o‘qituvchilar va ota-onalar uchun bolani tushunishi va unga noyob imkoniyatlarni ochishga yordam berishining qulay payti ekanligini anglab yetish davridir.

Gender ta’limi – bu qiz va o‘g‘il bolalarning gender ijtimoiylashuvi jarayonida nisbatan ijtimoiy boshqariladigan rivojlanish jarayoni – gender munosabatlar madaniyati asoslarini tarbiyalash, tegishli xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarini o‘zlashtirishdir.

Ushbu o‘zgarishlar fonida bolalarning ichki psixologik pozitsiyalari va ularning ongi ham o‘zgaradi: qizlar tajovuzkor va qo‘pol bo‘lib qolmoqdalar, o‘g‘il bolalar esa ayol tipidagi xatti-harakatlarni qabul qilmoqdalar. Ularning ta’kidlashicha, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashning mazmuni, ularning gender xususiyatlarini hisobga olgan holda yetarli darajada ishlab chiqilmagan, bu ularning fikriga ko‘ra, bolalarda jinsga xos xususiyatlarning yo‘qligiga olib keladi: o‘g‘il bolalar ba’zan hissiy chidamlilik, qat’iyatlilik, barqarorlikdan mahrum, qizlar esa – noziklik, kamtarlik, bag‘rikenglik, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga intilishdan mahrum bo‘lmoqda.

Intellektual rivojlanishda ikki jins vakillari turlicha darajaga egaligi fanda o‘z isbotini topgan:

– qizlar odatdagi vazifalarni yaxshiroq bajaradilar;

– tafsilotlarni diqqat bilan ishlab chiqadilar;
– qoidalarni osonroq o‘rganishadilar;
– darsga tezda qo‘shilishadilar;
– ko‘proq e’tiborli bo‘lishadi.

O‘g‘il bolalarda fazoviy fikrlash rivojlangan; ular qidiruv vazifalarini yaxshiroq bajaradilar; yangi g‘oyalar ishlab chiqishni yoqtiradi; monotonlikni yoqtirmaydi; ko‘p bosqichli vazifalarni bajarish qiyinroq; bir vaqtning o‘zida bir nechta muammolarni hal qilishda qiynaladi; eng yuqori samaradorlik ish oxirida sodir bo‘ladi.

Ommaviy amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda maktabgacha ta’lim tizimida gender ta’limi bo‘yicha jiddiy muammolar mavjud. Bugungi kunga qadar butun dunyo bo‘ylab maktabgacha ta’lim tizimi kamdan-kam holatlardan tashqari, asosan “jinssiz” hisoblanadi. Bunga quyidagi faktlar dalildir:

– O‘zbekistondagi maktabgacha ta’lim muassasalarini dasturiy va uslubiy ta’minlash gender xususiyatlarini hisobga olmaydi, natijada tarbiya va ta’lim mazmuni ma’lum bir o‘g‘il va qiz bolalarga emas, balki bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlariga qaratilgan.

– gender barqarorligi shakllanishining eng muhim davrida, maktabgacha ta’lim muassasasida qizlar va o‘g‘il bolalar uzoq vaqt davomida (8-12 soat) faqat ayollar e’tiborida bo‘ladi, natijada ko‘plab o‘g‘il bolalarda erkaklar ishtirokisiz gender barqarorligi shakllanadi;

– maktabgacha ta’lim muassasasida genderga asoslangan o‘yin uslublarini to‘liq amalga oshirish mumkin emas, agar faqat tarbiyachilar ayollar bo‘lganligi sababli va odatda qizlarning xotirjam o‘yinlarini rag‘batlantirsa va aksincha, o‘g‘il bolalarning shovqinli faol o‘yinlarini cheklab qo‘yishadi va hatto taqiqlashadi;

– bolalar bog‘chasida qo‘llaniladigan o‘qitish strategiyasi, bolalar bilan ishlash shakllari va usullari ko‘pincha qizlar uchun mo‘ljallangan.

– odatiy kunlik tartib har xil harakatlarga bo‘lgan ehtiyojni, o‘g‘il bolalar va qizlarning faoliyatini, dam olish almashinuvini hisobga olmaydi;

– gigienik, uxlash, o‘yin va yechinish xonalari barcha bolalar uchun umumiydir;

– tenglashtiruvchi pedagogika, gender o‘ziga xosligini e’tiborsiz qoldirish, shaxsning o‘zini o‘zi anglashi va bolaning individualligini rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlar, maktabgacha ta’lim muassasalari amaliyoti muammolari, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash, o‘qitish, rivojlantirishda gender yondashuvi masalalarida tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini tahlil qilish asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda gender yondashuvini joriy etish muammosi hamda bolalarni gender tarbiyalash jarayonining samaradorligini ta’minlash uchun bir qator shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi. Ushbu qoidalarni ishlab chiqishda quyidagi shartlarni hisobga olish mumkin:

1. Gender muvozanatli ta’lim maydonini yaratish - qisman gender ta’lim dasturlarini amalga oshirish:

– ta’lim jarayoniga gender ta’lim usullarini ishlab chiqish va joriy etish;
– o‘g‘il bolalar va qizlarning o‘zini o‘zi anglashi uchun qo‘shimcha joylarni yaratish;
– teng shartlar asosida o‘g‘il bolalar va qizlarning birgalikdagi faoliyatida hamkorlik tajribasini tashkil etish;
– o‘g‘il bolalarning hissiy o‘zini namoyon qilishidagi an’anaviy, madaniy taqiqlarni olib tashlash, ularni his-tuyg‘ularini ifoda etishga undash;

– qizlarda o‘z-o‘zini rag‘batlantirish va o‘zini o‘zi qadrlash tajribasini yaratish;

– gender sezgirligini o‘rgatish uchun sharoit yaratish (mashqlar va o‘yinlar, saxnalashtirish, rol almashish orqali).

2. Tarbiyachilarning bolalarni ganderli tarbiyalash faoliyatiga kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish.

3. O‘g‘il va qiz bolalarning o‘z jinsini aniqlash hamda o‘zini o‘zi anglash masalalari bo‘yicha tarbiyachilar va ota-onalarni axborot-metodik ta’minlash.

4. Bolalarning gender ta’limi muammosini amalga oshirishda ikkala jinsdagi ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlar tizimini takomillashtirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning gender ta’limini pedagogik qo‘llab-quvvatlashning asosiy shartlaridan biri tabaqalashtirilgan predmetli-makonli va o‘yin muhitini yaratish hamda bolalarni erkin o‘yin faoliyatiga jalb qilishdir.

Mavzuni rivojlantiruvchi muhit nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalar uchun turli xil faoliyat turlarini (jismoniy, o‘yin, aqliy va boshqalar) ta’minlabgina qolmay, balki gender xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning mustaqil faoliyatining asosi hisoblanadi.

Guruhda o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun sharoit yaratishda, o‘g‘il va qizlar boshqacha qarash va ko‘rish, tinglash va eshitish, gapirish va sukut saqlash, boshqacha his qilishlarini unutmaslik kerak. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘g‘il bolalarga qizlarga qaraganda ko‘proq joy kerak. Qizlar va o‘g‘il bolalar uchun u har xil bo‘lishi va har bir yosh bosqichida o‘zgarishi kerak, har ikkala jinsdagi bolalarga mo‘ljallangan o‘yin jihozlarining ulushi kamaymasligi zarur.

Tarbiyachining vazifasi o‘g‘il bolalar va qizlarga atrof-muhitning to‘liq imkoniyatlarini ochib berish, ularning sa’y-harakatlarini har bir bolaning jinsi va individual xususiyatlari hamda ehtiyojlarini hisobga olgan holda uning individual elementlaridan foydalanishga yo‘naltirishdir.

Ushbu muammoning holati va amaliy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi o‘yin faoliyatidagi farqlar, ayniqsa, sezilarli. Olimlar va amaliyotchilar turli xil tarkib va o‘yin uslublarini ta’kidlashadi, bu ko‘pincha ayol tarbiyachilar oila va kundalik mavzularda qizlarning tinch o‘yinlariga yaqinroq bo‘lganligi sababli amalga oshiriladi. O‘g‘il bolalarning shovqinli, harakatli o‘yinlari pedagoglarni asabiylashtiradi, chunki ular ‘‘bunday o‘yinlar shunchaki ma’nosiz yugurish va jarohatga olib kelishi mumkin, shuning uchun ularga guruh hayotida o‘rin yo‘q va ularni to‘xtatish kerak’’ deb hisoblashadi.

Natijada, o‘g‘il bolalar “erkak o‘yinlari”dan mahrum bo‘lib, ularning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi.

Katta yoshdagi odamlarning asosiy vazifasi – bolalar bilan atrofdagi dunyoni idrok etish uchun qalblarini ochish, har bir bolada ijodiy faollik, o‘ziga xoslik, ularning har birida o‘ziga bo‘lgan ishonchni uyg‘otish, o‘z jinsiga muvofiq rivojlanishlariga ko‘maklashish, yaxshilik va go‘zallik qilish, odamlarga quvonch keltirish kabilardan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova Z.I. Yosh davrlar psixologiyasi. Moliyachi. 2015.

2. Roziqov O., Og‘ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta’lim texnologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1999.

3. N.Yusufbekova. Pedagogik innovatsiyalar. – T., 2009.

Sherzod BO‘RONOV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, ‘‘Tabiiy fanlar’’ fakulteti tyutori

TA’LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANING VAZIFALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘sib kelayotgan yosh avlodning ongida ekologik ta’lim va tarbiyaning muhim o‘rin egallashi hamda ularni shakillantirishda zaruriy bilimlar keltirib o‘tilgan. Unda ekologik ta’lim-tarbiya nimalarni o‘z ichiga olishi, qanday masaslalar borligi ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birgalikda ekologik ta’lim tarbiyaning vazifalariga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Talabalar, ekologik ta’lim va tarbiyani shakllantirish, tabiat muxofazasi, ekologik madaniyatni tarbiyalash, ekologik xavfsizlik.

В данной статье представлено важное место экологического образования и воспитания в сознании подрастающего поколения, а также необходимые знания в их формировании. В ней рассматривается, что включает в себя экологическое воспитание, какие существуют вопросы. Вместе с тем экологическое воспитание затрагивает и задачи воспитания.

Ключевые слова. Учащиеся, формирование экологического образования и воспитания, охраны природы, воспитание экологической культуры, экологической безопасности.

This article presents the important place of environmental education and upbringing in the minds of the younger generation, as well as the necessary knowledge in their formation. It examines what environmental education includes, what issues exist. At the same time, environmental education also affects the tasks of education.

Key words. Students, formation of environmental education and upbringing, nature protection, education of ecological culture, environmental safety.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan har bir sohada chuqur islohotlar o‘tkazilmoqda. Ana shunday sohalardan biri bo‘lgan ekologik sohada ham muhim qonun, qaror, farmonlar ishlab chiqilib, amalga joriy etilmoqda. Albatta, bu qonunlarning bosh tamoyili Konstitutsiyamiz hisoblanadi. Konstitutsiyada O‘zbekiston ekologik taraqqiyot strategiyasining asosiy qoidalari, ekologik va aholining ekologik xavfsizligiga doir talablar belgilangan bo‘lib, ushbu siyosiy-huquqiy hujjat mamlakatimizda tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo‘yicha eng muhim va asosiy qoidalarni belgilab beradi.

Shu jumaladan, ekologik ta’lim va ekologik toza muhit borasida ham ko‘plab ishlar qilinmoqda ular amaliyotda ham o‘zining natijasini bermoqda. Jumladan, bu sohaga hukumat darajasida e’tibor berilmoqda. 2023-yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan umumxalq referendumida konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgarishlardan biri ham aholimiz va kelajak avlod uchun qulay va ekologik toza hududni saqlab qolish konstitutsiyaviy kafolatlari yaratilmoqda.

O‘tmishda atrof-muhitga e’tiborsiz munosabatda bo‘lish, tabiiy resurslardan me’yoridan ortiq foydalanish va ekologik talablarni mensimaslik Orol dengizining qurishi, cho‘llanish, yer va suv resurslarining tanazzuli, o‘simlik va hayvonot dunyosi ge-

nofondining yomonlashuvi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, ko‘p miqdordagi sanoat, maishiy va boshqa chiqindilarning hosil bo‘lishi kabi qator global va mintaqaviy ekologik muammolarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Ushbu muammolar iqlim o‘zgarishi sodir bo‘layotgan sharoitlarda yanada yaqqolroq va kuchliroq namoyon bo‘lib, zamonaviy O‘zbekiston uchun ham atrof-muhitni muhofaza qilish va uni sog‘lomlashtirish masalalarini yanada dolzarb qilib qo‘ydi.

1989-yili O‘zbekistonda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va uning viloyat bo‘linmalari tashkil etildi. 2008-yilda esa ekologik qonunchilikni takomillashtirish, jamoat birlashmalari va fuqarolarning ekologiya-salomatlik borasidagi faoliyatlarini jadallashtirish uchun ‘‘O‘zbekiston ekologik harakati’’ tashkil etildi va unga bir qator muhim boshqaruv funksiyalari yuklatildi. 2012-yili BMTning GEF fondi tomonidan Urganch davlat universiteti qoshidagi Barqaror rivojlanish uchun ta’lim kafedrasi va Xorazm agro-konsultativ markazi – “KRASS”ga “Amaliy ekologiya”dan maxsus o‘quv standartlari va majmualarini yaratish loyihasi qo‘llab-quvvatlandi. Shu bilan birgalikda, 2019-yil 24-yanvarda O‘zbekiston ekologik partiyasi tashkil etildi. Bu partiyaning asosiy maqsadi barqaror rivojlanishga, ekologik xavfsizlikka erishish, hozirgi va kelajak avlod uchun tabiiy resurslarni saqlash va qulay atrof muhitni yaratishga yo‘naltirilgan davlat siyosatini, ro‘yobga chiqarishni ta’minlash, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni saqlash davlat jamiyat va mamlakatlar har bir fuqarosining vazifasi bo‘lishiga erishishga ko‘maklashishga qaratilgan.

Ekologik ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi dastlabki oddiy tushunchalar o‘rta maktabda boshlanadi. Maktabda o‘tiladigan nazariy ekologiya tabiiy fanlar asosida o‘qitilib, o‘quvchilari mehnat faoliyatiga tayyorlash, tashqi muhiti ehtiyotkorlik bilan muhofaza qiluvchilar qilib tarbiyalash ishiga yordam berishi kerak. Oliy ta’limda ekologiya ta’limi tabiat muhofazasi masalalarining ilmiy asoslari chuqur va har tomonlama o‘rganishga, inson faoliyati natijasida biosferada ro‘y berayotgan hodisalarning sabab va qonuniyatlarini tahlil etish maqsadlariga qaratilgan. Shu bilan bir qatorda, u talabalarni maktablarda ekologiya asoslari va tabiat muhofazasi ta’limini o‘qitishga tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Ekologik ta’lim va tarbiya quyidagi asosli bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1. Talaba va o‘quvchilarni tabiat go‘zalliklarini sevish, ulardan estetik zavq olish ruhida tarbiyalash.

2. Jonli va jonsiz tabiatning rivojlanish qonuniyatlari, tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro munosabatlar, shuningdek, inson xo‘jalik faoliyatining tabiatga ta’siri oqibatlari haqida bilim berish.

3. Talaba va o‘quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash. Tabiatni sevish, undan to‘g‘ri va ongli ravishda foydalana bilishni tarbiyalash ekologik tarbiya va madaniyatnnng asosi bo‘lib, kishilarda tabiat oldidagi mas’uliyatini anglash malakasini hosil qiladi. Vatanni sevish, vatannarvarlik tabiatni sevishdan boshlanadi. Binobarin, o‘quvchilarda tabiatga nisbatan haqiqiy muhabbat tuyg‘usini hosil qilmay turib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin emas. Insonning tabiat quchog‘ida bo‘lishi uni ruhan tetiklashtirib, uning mehnat qobiliyati va ijodiy faoliyatini oshiradi. Ekologik tarbiya quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi:

- kishilarga maxsus ekologik bilim va tarbiya berib, ularda bu sohada muayyan malaka hosil qilish;
- ekologik o‘zgarishlarni oldindan ko‘ra bilishini tarbiyalash;
- ekologik madaniyatni singdirish va tarbiyalash;

• kishilarni tabiat ‘‘in’omlari’’dan to‘gri foydalanish ruhida tarbiyalash.

Tabiatning normal holati uchun fuqarolik mas’uliyatini to‘la anglash — ekologik ta’lim va tarbiyaning ifodasidir. Tabiatni muhofaza qilish va ekologik tarbiya masalasi pedagogika va psixologiya masalalarning eng muhim tarkibiy qismidir. Kishilarda tabiat qonunlariga to‘la rioya etish to‘g‘risida va bu sohada Vatan, xalq, davlat va kelajak avlod oldidagi burch tuyg‘usi va mas’uliyat hissi hosil etilmasa, ularda to‘la ekologik ong va tafakkur hosil bo‘lmaydi. Ekologik ong va tafakkurga ega bo‘lgan har bir kishi o‘z mehnat faoliyatida tabiatga ta’sir etish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko‘rib, ongli ravishda ish tutadi. Tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini bilmaslik, ekologiya bilimlaridan bexabarlik go‘yo tabiatda “o‘z-o‘zidan boradigan” ekologik muvozanatning mavjudligi, qandaydir “yopiq ekologik tizim”ning borligi, tabiatning qaytadan tiklanishiga aralashmaslik to‘g‘risidagi tamoman zararli fikrlarning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi.

Ekologik tarbiya – axloqiy tarbiyaning ajralmas qismidir. Kishilarda ekologik ong va tafakkurni, ekologik dunyoqarashni hosil qilish tabiatni dialektik tushunishga yordam beradi. Hamma bosqichlarda ekologik ta’lim va tarbiyani talab etilgan darajada amalga oshirish uchun bu vazifaning muhimligini va mas’uliyatini yaxshi bilgan yoshlarni tayyorlash zarur.

Ekologik ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifa va maqsadlari insonni tabiat bilan va unda sodir bolayotgan voqeliklar bilan qiziqtirish, inson, tabiat o‘rtasidagi muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, yechish yo‘llari, chora-tadbirlarini topish yetarli ekologik bilimlarga ega bo‘lgan holda atrof-muhit muhofazasini amalga oshirishdir. Ekologik ta’lim-tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Jamiyat va tabiatning rivojlanish qonunlari; ular o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur o‘rgatish va zamonaviy fikrlay oladigan shaxsni tayyorlash;

2. Ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini yo‘naltirishda turli tabiiy hududlarning ekologik holatini biladigan va kelajakning ekologik rejasini tuzadigan avlodni tarbiyalash;

3. Har bir inson, jamiyat va jamiyat ichidagi turli guruhlar, toifalar, sinflarning o‘zlari yashab turgan tabiat, uning boyliklarini saqlashga xizmat qiladigan yoshlarni yetishtirish;

4. Jamiyat a’zolariga o‘zlarining ijtimoiy, madaniy, diniy qarashlari va urf-odatlarini rivojlantirishda yashab turgan joy, vodiy, adirlar, tog‘larning go‘zalligi, ularning inson hayoti va salomatligidagi ahamiyatini tushuntirish, yosh avlodda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat uyg‘otish ishlarini olib borish.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda bog‘cha tarbiyachilari, maktab va o‘quv yurtlari o‘qituvchilari, turli o‘yinlar, kinofilmlar orqali tabiiy va ijtimoiy fanlarni o‘tishda o‘zlari yashab turgan joydagi tabiiy voqelik va ekologik holatlarga bog‘lab, ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishi hamda darslar o‘tishi kerak.

Shunday ishlar amalga oshirilganda har bir bog‘cha bolasi, maktab o‘quvchisi va talabalar o‘simlikning qurishi, qushning ucholmasligi, adir yoki to‘qayning yonishi, suvning befoyda oqishiga befarq bo‘lmaydi. Tabiat va uning jonzotlariga, o‘zi ichadigan suvga nisbatan joni achishadi, ahvolni yaxshilash uchun ichki intilish tuyg‘usi vujudga keladi. Bu esa insondagi yangi biologik kuchdir. Uning yangi aql-zakovatining inqilobi, ekologik ta’lim-tarbiyaning g‘alabasi bo‘ladi.

Ekologik ta’lim asosi inson, jamiyat a’zolarini tabiat va uning boyliklarini saqlash, tejamkorlik bilan foydalanishda to‘g‘ri va oqilona yo‘l tutishi, amaliy ishlarni muhit muammolarini yechishga bag‘ishlashi, shaxsning ekologik ta’limoti, tarbiyasi va madani-

yatiga bogliqdir.

Atrof-muhitga g‘amxo‘rlik qilib, siz yosh avlodning axloqiy, ma’naviy, ijtimoiy va madaniy hayotini rivojlantirishning ajralmas qismi bo‘lishingiz kerak. Rivojlangan mamlakatlarda elita institutlarining mezonlaridan biri ularga tarbiyaviy va o‘quv muhitni yoshlikdanoq singdirib borilishidir. Bolalarning yoshligida kelajakda duch keladigan ekologik muammolari bilan tanishishi mumkin. Bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun, bu qarorlarni yanada tejamkor va atrof-muhitga do‘stona munosabatda bo‘lish, birinchi navbatda, tizimli ekologik ta’limni rivojlantirish zarurati asosiy o‘rin egallaydi.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, tabiatni seva bilishni, undan to‘g‘ri va ongli ravishda foydalana bilishni tarbiyalash ekologik tarbiya va ekologik madaniyatning asosi bo‘lib, kishilarda tabiat oldida mas’uliyatning anglash hissiyotini hosil qiladi.

Zero, inson o‘zini anglashi va uning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini ijobiylashtirishi, ya’ni kundalik hayotimizda tabiatga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan har qanday xatti-harakati oqibatini avvaldan anglab yetishi va shunga yarasha faoliyat ko‘rsatishi, tegishli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, har birimiz o‘zimizni tabiatning ajralmas bir bo‘lagi va uning xaloskori ekanligimizni unutmasligimiz lozim. Shuning uchun ta’lim-tarbiyaning barcha bosqichlarida tinglovchi va tarbiyalanuvchilarni ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirib borish har birimizning tabiat oldidagi muqaddas burchimiz bo‘lib qolishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nigmatov A.N. Ekologiyaning nazariy asoslari: o‘quv qo‘llanma /Nigmatov A. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. – 268 b.

2. To‘xtayev A.S. Ekologiya. Pedagogika institutlarining talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. T.: O‘qituvchi, 1998. – 192 b.

3. Ahmadul Ergashev, Temur Ergashev. “Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish”, “Yangi asr avlodi”, 2005 y.

4. https://uz.m.wikipedia.org

Farrux ESHDAVLATOV,
O'zbekiston respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi bosh ilmiy-metodik markaz mustaqil izlanuvchisi

O'QUVCHILARNI IT-SOHASIDAGI KASBLARGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchilarni IT-sohasidagi kasblarga maqsadli yo'naltirishning nazariyasi va amaliyoti, kasbiy o'z-o'zini anglash, jamiyatning kadrlarga buyurtmasi, kasbiy ta'lim va kasbga o'qitish tizimi, kasbiy yo'naltirishning paradigmalari hamda pedagogik asoslari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Kasbga maqsadli yo'naltirish, IT – ko'nikmalar, ta'lim dasturlari, mehnat bozori, kompyuter dasturlash, kreativ industriya, motivatsiya,kompensatsiya, mehnat funksiyalari, professionalizatsiya.

В данной статье рассматриваются теория и практика целевой ориентации учащихся на профессии в IT-сфере, профессиональное самосознание, кадровый заказ общества, система профессионального образования и профессионального обучения, парадигмы и педагогические основы профессиональной ориентации.

Ключевые слова. Профориентация, IT-навыки, образовательные программы, рынок труда, компьютерное программирование, креативная индустрия,мотивация, компенсация, трудовые функции, профессионализация.

This article discusses the theory and practice of students' target orientation to professions in the IT field, professional self-awareness, the personnel order of society, the system of vocational education and vocational training, paradigms and pedagogical foundations of vocational orientation.

Key words. Career guidance, IT skills, educational programs, labor market, computer programming, creative industry, motivation, compensation, labor functions, professionalization.

Mamlakatimizda mehnat bozorining samarali mexanizmlarini joriy qilish, aholining ishchanlik faolligini oshirish, kambag'al va ishsiz fuqarolarni zamonaviy kasb-hunarga o'qitish, shu asosda ularni doimiy daromad keltiradigan mehnat faoliyatiga jalb qilish orqali bandligini ta'minlash ustivor vazifa sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqimizga Murojaatnomasida "ijtimoiy davlat" tamoyiliga alohida e'tibor qaratganligi, aynan aytganda, "Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish demakdir". Bunga erishishning asosi, birinchi navbatda, ta'lim. Shu bois, Murojaatnomada maktab o'quvchilarini kamida ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish ustuvor vazifa etib belgilangan edi. Muhtaram prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Maktabdan kasb va tilni bilib chiqqan bola jamiyatimizning katta yutug'i, bilmagani muammo, hozir tadbirkorlar, ishlab chiqaruvchilarni shu masala qiynayapti: bo'sh ish joyi ko'p, oyligi ham yaxshi, lekin o'quvi va ko'nikmasi bor ishchi yo'q. Agar bu tizim to'g'ri tashkil qilinsa, bizdagi demografik o'sish bilan katta natijalarga erishsa bo'ladi". Shu nuqtai nazardan maktablarda kasb-hunar ustaxonalarini tashkil etish, ularni jihozlash

va zarur ashyolar bilan ta’minlash vazifasi qo‘yildi. Shuningdek, o‘quvchilarni axborot texnologiyalari va “kreativ industriya” bo‘yicha zamonaviy kasblarga o‘rgatish muhimligi ta’kidlandi. Ayniqsa, o‘quvchilarni IT-sohasidagi kasblarga maqsadli yo‘naltirish ustivor vazifa sifatida e’tirof etildi. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning yangi ijtimoiy ehtiyoj va talablariga muvofiq o‘quvchilarni IT-sohasidagi kasblarga maqsadli yo‘naltirishning pedagogik shart-sharoitlari yanada dolzarblashmoqda.

O‘quvchilarni raqamli iqtisodiyotning rivojlanish ko‘rsatkichlari asosida axborot texnologiyalari sohasidagi kasblarga yo‘naltirish ishlarini tashkil etishning nazariyasi va amaliyotini umumiy o‘rta ta’lim maktablari sharoitida tahlil qilinishi sohada bir qator vazifalar borligini aniqlash imkoniyatini berdi. Ushbu vazifalar juda tez suratlar rivojlanayotgan mamlakatimizning axborot texnologiyalari sohasidagi kasb egalariga mahalliy va xalqaro mehnat bozorining qo‘yadigan talablari va amaldagi noeffektiv kasbiy o‘z-o‘zini anglash, jamiyatning kadrlarga buyurtmasi va kasbiy ta’lim va kasbga o‘qitish tizimi o‘rtasida vujudga kelmoqda.

O‘quvchining shaxsi kasbiy yo‘nalganligi muammosi umumiyroq bo‘lgan shaxs va kasblarning o‘zaro ta’siri muammosining in’ikosidir. Bu o‘zaro ta’sir bilan bog‘liq paradigmalar mavjud bo‘lib, kasbning shaxsga ta’sirini inkor etadi. Bu yo‘nalish tarafdorlari an’anaviy qadimgi yunon tezisiga asoslanadilar. Unga ko‘ra, shaxs kasbni tanlagach, uni egallash va kasb bilan bog‘liq mehnat funksiyalarini bajarishda o‘zgarmaydi. Xususan, xorijlik tadqiqotchilar kasb tanlash uchun o‘z-o‘zini aniq bilish va kasbga xos xususiyatlarni anglash yetarli ekanligini qayd etadilar. Bu o‘z navbatida kasb tanlashga nisbatan sodda qarashni ifoda etadi. Bunda shaxs tushunchasi ostida bir-biridan nisbiy mustaqil xususiyat va qobiliyatlar yig‘indisining mexanik kompleksi tushunilgan. Xuddi shunday, kasbga ham vazifalar va mehnat funksiyalari mexanik yig‘indisi sifatida qaralgan. Shuningdek, kasbga kirib borish jarayonida shaxsiy sifatlar va kasbiy xususiyatlar orasida tafovut vujudga kelganda, kasb o‘zgartirilgan.

Ammo, bugungi kunda pedagogika sohasida olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, tanlangan kasbga xos xususiyatlar yo‘qligini shu kasbga nisbatan yuqori motivatsiya bilan kompensatsiya qilsa bo‘ladi, aksincha, mavjud xususiyatlar bilan shaxsning kasbga qiziqishining yo‘qligini to‘g‘rilab bo‘lmaydi.

Shaxs va kasb o‘zaro ta’sirining ikkinchi paradigmasi aksariyat xorij tadqiqotchilari qarashlariga xos. Bu paradigma kasbning shaxsga ta’sirini, professional rivojlanish davrida shaxsning o‘zgarishini taqozo etadi. Xorijlik olimlar psixologik va sotsiologik tadqiqotlarida, shaxsning kasb olamida rivojlanishi – professionalizatsiya, deb atalgan. Bu jarayon kasb tanlash va o‘quvchilarning undan keyingi butun kasbiy faoliyati davomida amalga oshadi.

Pedagogika fani nazariyasi va amaliyotida kasbiy yetuklik jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

– kasbni tanlash va izlash;

– kasbni egallash;

– ijtimoiy va kasbiy adaptatsiya;

– kasbiy faoliyatni amalga oshirish.

Ushbu jarayonning kasb tanlash bosqichi dastlabki va eng muhim bosqich sifatida tan olinadi. Negaki, o‘quvchining muayyan soha mutaxassisi sifatida jamiyatda o‘z mavqeini egallashi, uning kelajakdagi shaxs sifatida shakllanishida ijtimoiy va iqtisodiy hayotining barqarorligi, eng avvalo, o‘z kasbiy kelajagini to‘g‘ri tanlay olishiga bog‘liq. Kasb tanlash jarayonining keyingi bosqichlari ham aynan dastlabki kasbni tanlash va

izlash bosqichi zamirida amalga oshiriladi. O‘z navbatida, o‘quvchiga hozirgi globallashuv jarayonida va zamonaviy texnologiyalarning mehnat bozoriga kirib kelishi natijasida mavjud bo‘lgan kasblar olamidan o‘zining imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos keluvchi kasbni tanlashda professional yordam berish jarayoni kasbga yo‘naltirish ishlarining tizimini keltirib chiqaradi. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish tizimi mehnat bozorida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kasbga yo‘naltirish faoliyatining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi jamiyat taraqqiyotini ta’minlash bilan birga mamlakatimizda ishsizlikni kamaytirish va aholi bandligini ta’minlashda muhim ahamiyat ahamiyat kasb etadi, chunki ushbu o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish faoliyati doirasida olib borilgan ishlar o‘quvchilarning kasbiy layoqat va qobiliyatlarini effektiv tarzda yuzaga keltirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, jamiyat va shaxs manfaatlarining uyg‘unligini ta’minlaydi. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish doirasida faoliyat olib boruvchi mutaxassislar: pedagoglar, pedagog-psixologlar va kasbga yo‘naltiruvchilarning asosiy vazifalari sifatida u yoki bu kasbning o‘ziga xosliklaridan kelib chiquvchi talablariga muvofiq o‘quvchi shaxsiga xos psixologik, psixofizik va tibbiy-fiziologik xususiyatlarni o‘quvchining qiziqishlari va mehnat funksiyalari hamda mehnat bozoriga nisbatan talablarini optimal darajada aniqlash hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarini IT-sohasidagi kasblarga yo‘naltirishda va ushbu kasblarning bir qancha jihatlarini ularga yoritib berishda quyidagi aspektlarga e'tibor berish kerak:

– o‘quvchilar tanlayotgan kasbning ijtimoiy ahamiyatliligi – ushbu ahamiyatlilik darajasi iqtisodiyot va jamiyatdagi munosabatlar nuqtai nazaridan muayyan kasbning o‘ziga xosligidan kelib chiqadi;

– muayyan kasbda o‘quvchining qiziqishlarini qondirish imkoniyati borligini

ko‘rsatish – har qanday kasbda faoliyat yuritishda o‘quvchi o‘z kreativ yondashuvini va intellektual salohiyatini namoyish qila olish imkoniyati borligini ko‘rsatib bera olish zarur;

– kasbning o‘quvchiga nisbatan qo‘yadigan psixofiziologik hamda psixologik talablarni ochib berish kabilar.

Zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi va unga nisbatan o‘quvchining reaksiya tezligi, diqqatning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishiga, xotira, tafakkur, harakat koordinatsiyasining aniqligi va boshqa xususiyatlariga talablarning ortishiga olib keladi. O‘quvchi qobiliyatlarining kasbning psixologik talablariga muvofiq kelishi mehnat faoliyatining xavfsizligiga, mehnat natijalarining sifatiga o‘quvchining o‘z faoliyatidan qoniqishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqimizga Murojaatnomasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-avgustdagi “IT-texnologiyalar va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 556-sonli Qarori.

3. Хорват Г.И. Организация профессионального самоопределения в

школе /Г.И. Хорват, О.В. Бибикова // Научно-метод. электр. журнал Концепт. – 2015. – №26. – С. 241-245.

4. Чаптыкова, О.Ю. Теоретико-методологические основы

формирования профессионального самоопределения учащихся национальных школ / О.Ю. Чаптыкова // Вестн. Томск. гос. пед. ун-та. 2009. № 2. – С. 60-63.

Mehriyo TO‘XTAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, ‘‘Umumiy tilshunoslik’’ kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK PEDAGOG-PSIXOLOGLARNING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada nutq madaniyatini bo‘lajak pedagog va psixologlarda rivojlantirish mazmuni, nutq madaniyati fanining maqsad va vazifalari, dars jarayonida nutqning madaniyligini ta’minlovchi kommunikativ sifatlari, adabiy til me’yorlariga asoslanish, nutq madaniyatida nutqiy birliklar konseptlarining ilmiy-nazariy jihatdan tahliliy o‘rgatish, nutqning og‘zaki va yozma shakllarini o‘stirish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, sof adabiy tilda so‘zlash va munosabat bildirish, lisoniy birliklar ustida ishlash hamda ijodiy, ilmiy tafakkur qilish qobiliyatini takomillashtirish bo‘yicha tilshunos, metodist olimlar hamda psixologlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Nutq madaniyati, adabiy til me’yorlari, pedagogik ong**,** og‘zaki va yozma savodxonlik, nutqiy ko‘nikma, nutqiy kompetensiya, lisoniy birliklar, ilg‘or texnologiyalar, kommunikativ, informativ yondashuv, ilmiy tafakkur qilish.

В данной статье размышляется о содержании развития культуры речи у будущих педагогов и психологов, целях и задачах науки о культуре речи, коммуникативных качествах, обеспечивающих культуру речи в ходе урока, основах норм литературного языка, научно-теоретическом аналитическом обучении детей культуре речи. понятия о речевых единицах в культуре речи, о также были проанализированы научные взгляды лингвистов, ученых-методистов и психологов, чтобы улучшить способность говорить и реагировать на чистом литературном языке, работать с языковыми единицами и мыслить творчески, научно.

Ключевые слова. Культура речи, нормы литературного языка, педагогическое сознание, устная и письменная грамотность, речевые навыки, речевая компетентность, языковые единицы, передовые технологии, коммуникативный, информационный подход, научное

This article reflects on the content of the development of speech culture in future educators and psychologists, the goals and objectives of the science of speech culture, the communicative qualities that ensure the culture of speech in the course of the lesson, the foundation of literary language norms, the scientific-theoretical analytical teaching of the concepts of speech units in the culture of speech, the Scientific views of linguists, Methodist scientists and psychologists have also been analyzed to improve the ability to speak and react in pure literary language, to work on linguistic units and to think creatively, scientifically.

Key words. Speech culture, literary language norms, pedagogical consciousness, oral and written literacy, speech skills, speech competence, linguistic units, advanced technologies, communicative, informative approach, scientific thinking.

Bugungi kunda bo‘lajak pedagog va psixologlarning nutq madaniyatini o‘quv dasturi va ishchi dasturlarda belgilangan talablar asosida rivojlantirish oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituv-

chilar oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanaladi. Shuningdek, taniqli tilshunos va metodist olimlarning nutq madaniyati va uni rivojlantirish yuzasidan bildirilgan ilmiy qarashlari o‘z ahamiyatiga ega.Taniqli tilshunos olim, professor N. Mahmudovning “O‘qituvchi nutqi madaniyati” nomli darsligida quyidagicha ta’rif keltirilgan: “tilshunoslikda «nutq madaniyati» termini, asosan, ikki xil ma’noda qo ‘llanadi, ya’ni: 1) Tildan bemalol, maqsadga va nutqiy vaziyatga muvofiq tarzda foydalana olish, nutqda kommunikativ sifatlarning barchasini mujassamlashtira bilishni ta’minlaydigan ko‘nikma, malaka va bilimlarning jami; 2) Tilshunoslikning tildan maqsadga va nutq vaziyatiga muvofiq tarzda foydalanish, nutqda kommunikativ sifatlarni mujassamlaiggirish qoidalarini ilmiy asosda o‘rganish va belgilash bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi”[1]. Shuni aytish joizki, tilning imkoniyatlari juda keng bo‘lib, ulardan foydalanish va ularda nutq madaniyatini rivojlantirish, ulardagi nutqiy vaziyatlarda o ‘zini tutish, to‘g‘ri so ‘zlash qobiliyatini takomillashtiradi.

O.B. Sirotnina esa “Nutq madaniyati – har qanday kommunikativ vaziyatda, eng avvalo, xatosiz gapirishni anglatadi, to‘g‘ri fikrlash, to‘g‘ri so‘zlash madaniyat belgisi sifatida tan olinmoqda”[2], deb ta’kidlaydi. U.Nosirovning ta’kidlashicha, a) bir tilda to‘g‘ri so‘zlash va yozish; b) fikrni sodda, aniq va tushunarli ifodalash; e) tilning tasviriy obrazli vositalaridan unumli, o‘z o‘rnida foydalana bilish; g) nutqning qisqaligi, ihchamligi, aniqligi, milliyligi; d)nutqning sodda, barcha uchun tushunarli bo‘lishidir”[3].

Bo‘lajak pedagog va psixologlarda nutqiy vaziyatlarda chiroyli va muloyim so‘zlash madaniyati birlamchi o‘rin egallaydi. “Modomiki, uslubiyat nutq uslublarini ham o‘rganar ekan, xuddi shu holatda nutq madaniyati bilan uning munosabati vujudga keladi. Chunki nutq madaniyati haqidagi ta’limot o‘z-o‘zidan til uslublarini batafsil aks ettirish, har bir uslubning o‘ziga xos tomonlarga ega ekanligi, imkoniyatlarining yoritilishiga ehtiyoj sezadi. Nutqning aloqaviy sifatlari, odatda, har bir uslub doirasida o‘zgarishi, birinchisi, uslubda yaxshiroq namoyon bo‘lgani holda, ikkinchisi boshqa bir uslubda sustroq namoyon bo‘ladi. Uslubiyat bilan nutq madaniyati bir-birini tamomila inkor etmaydi, aksincha, bir-birini to‘ldiradi, alohida-alohida soha bo‘lishlariga qaramay, bir-biri uchun xizmat qiladi[4]. Bo‘lajak pedagog va psixologlarda nutq madaniyatini rivojlantirishda nutq, vazifaviy uslublarni yuzasidan bilim va ko‘nikmalar egallanishi zarur. Sababi, rasmiy, ilmiy, badiiy, so‘zlashuv uslubida ishlatiladigan morfologik ko‘rsatkichlar, sintaktik va leksik birliklar ustida ishlashini yuqori darajada bilmas ekan, adabiy til me’yorlariga asoslangan nutq madaniyatini yarata olmaydi.”Nutq madaniyati va notiqlik san’ati‘‘ fani adabiy til me’yorlarini, uning tarixiyligini, taraqqiy etib borishini, undagi ba’zi birliklarning eskirishi, ular o‘rnida yangi me’yoriy birliklarning paydo bo‘lishini kuzatib, qayd etib boradi. Biroq, bu fan adabiy me’yorlarni yaratmaydi, ba’zi bir hodisalarni me’yor sifatida majburan kiritmaydi. Balki o‘zbek milliy adabiy tili faoliyatini, uning rivojlanishini kuzatib boradi, ob’yektiv qonunlarini kashf etadi, shular asosida tavsiyalar beradi[5].

Nutq madaniyati rivojining tarixi o‘rganilib, uning taraqqiyoti o‘sib bormoqda va turlicha zamonaviy yondashuv, fikriy qarashlar bilan boyitilmoqda. “Zamonaviy nutq madaniyati tadqiqotchilar tomonidan to‘rt turga bolib o‘rganilgan:

[1] Maxmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati: talabalar uchun darslik/ – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – B.29

[2] Sirotnina O.B. Ustnaya rech i tipû rechevûx kultur // Rusistika segodnya, – M.: 1995. – Vûp 4,S.3-21.

[3] Nosirov U. Nutq madaniyati va davr.(Nutq madaniyatiga oid masalalar). – T.: Fan,197z.119-120 -129 b

[4] Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Toj iev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1992, 136–137 b.

[5] T. Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. – T., 1993, – 15-16 b.

1) Elitar madaniyat (sof adabiy til);

2) An'anaviy professional (agro);

3) Uchinchi madaniyat (oddiy so'zlashuv);

4) Xalq madaniyati (sheva, lahjalar)[6]. Yillar davomida mazkur turlar tasniflanishi boshqa olimlar tomonidan o'rtacha adabiy, adabiy-so'zlashuv va oddiy so'zlashuv nutq madaniyati turlariga bo'lib o'rganildi"[7]. Nutq madaniyati rivojida odiiy so'zlashuv va tilning ma'lum hududga xos dialektal xususiyatlarini til sathlaridan o 'rinli foydalanishga, lisoniy qoidalarga ham amal qilish bilan belgilanadi.

Shunisi ahamiyatliki, nutq madaniyatini boshlang'ich ta'limdan boshlab rivojlantirish samara beradi. Tadqiqotchi U. Masharipova "Innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi" nomli ilmiy tadqiqot ishida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish lozimligini ta'kidlaydi[8].

Olima X.Q. Qurbonovaning fikricha, "Nutq madaniyatini shakllantirish masalalari, nutq madaniyatining nutq sofligi tushunchasining muhim jihatlari bayon qilingan"[9]. Mashg'ulot jarayonida nutq madaniyatini talabalarda rivohlantirsh uchun birinchi galdagi ishimiz shundan iboratki, ularning so'z boyligi, o'zi qiziqqqan badiiy adabiyot, ilmiy manbalarni o'qib-o'rganishning tahliliy ko'rsatkichini aniqlashimiz va o'zbek tilining sinonim, antonim, omonim, va izohli lug 'atlari bilan ishlashga yo'naltirish hamda shular bilan bir qatorda tushunarli, aniq so'zlashni, chiroyli so'zlash qoidalariga, nutq texnikasiga amal qilib, so'zlash qobiliyatlarini o'stirishga e'tibor qaratish muhimdir. Nutq madaniyati – muayyan bir xalq madaniyatining ushbu xalq tilidagi aksi va ifodasidir. Ushbu tushuncha borasida turli xil qarash va izohlar mavjud, eng avvalo, nutq madaniyatining takomil topganligini og'zaki holatda jonli nutqidagi gaplar jamlanmasi grammatik va stilistik jihatdan adabiy til qoidalariga va nutq texnikasi qoidalariga mos tuzish, fikrlashda bir-birini hurmat qilish tuyg'usi rivoji bilan xarakterlanadi. Nutq madaniyati bu – har bir talabaning til sathlaridan unumli va o'rinli foydalanish borasidagi bilimlarlarning ilm darajasiga chiqish bilan bog'liq. "Nutq madaniyati" tushunchasi ilmiy-metodik adabiyotlarda, asosan, ikki ma'noda qo'llaniladi. Birinchidan, og'zaki va yozma nutq me'yorlari (talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, imlo) dan, shuningdek, tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish va ikkinchidan, nutqiy mahorat (maqsadni ko'zlab aytilgan to'g'ri fikr, frazeolagik birlik va tasviriy ifodalarni o'rinli qo'llash, fikrni turli shakllarda berish kabi) larni ifodalaydi. "Axborotning pragmatik xususiyati uning qiymati bilan belgilanadi. Har qanday axborotning qo'yilgan maqsadni qanchalik amalga oshira olgani bilan bog'liq. Chunki, muloqot aniq kommunikativ maqsad (intensiya) bilan bevosita bog'liq. Bu – mana shunday talablarga javob beruvchi til vositalarini tanlashda maxsus strategiyani talab etadi"[10].

Jinkinning ta'kidlashicha, "nutqiy faoliyatni ikki qismga: nutqiy faoliyatni yuzaga

---

[6] Толстой Н.И. Язык и культура (некоториэ проблеми славянской этолингвистики) //Русский язык и совроменност. Проблеми и перспективи развивития русистики . – Ч.И. – М., 1991.– С.5-22.

[7] Teshaboyeva D.M. Ommaviy axborot vositasi tilining nutq madaniyati aspektida tadbiqiy (O'zROAV misolida): Filol.fan.dok....diss.-Toshkent O'zDJTU,2012. – 212 b.

[8] Masharipova U. Innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. Ped. fan. nom. diss. –T., 2017. – 163 b.

[9] Qurbonova X.Q. Ona tili ta'limi mazmunini yangilashning lingvometodik asoslari. Ped.f. nomz.Buxoro.2005. 24b.

[10] Володина М.Н. Когнитивно-информационная природа терминаи терминологическая номинация: Дис. …д-ра филол.наук: – М., 2005. – С..12.

keltiruvchi analizatoriga va eshitish analizatoriga ajratadi. Birinchi bosqichda so‘zlar tanlovi ketadi, ikkinchi bosqichda so ‘zlarni o ‘zaro bog ‘lash jarayoni kuzatiladi”[11]. Tadqiqotchi Z. Salishevaning e’tiroficha, “Nutq mexanizmlarini shu tarzda transformatsiyalash, ya’ni shakllanish va takomillashish jarayoni faqat nutqiy faoliyat sharoitidagina, nutqiy muloqotda yuz beradigan axborot almashinuvi orqali amalga oshishi mumkin. Ushbu mexanizmlar esa faqat nutqiy muloqotga ehtiyoj paydo bo‘lgandagina ishga tushadi”[12]. Shuni aytish joizki, fikr va munosabatning ilmiy tamoyillarga asoslanganligi nutqiy muloqotda o‘z aksini topadi. Nutqiy muloqot o‘z navbatida muayyan ehtiyoj tufayli yuzaga keladi. Shuning uchun nutqiy muloqot olib borishda intonatsiyaga, diksiyaga to‘g‘ri amal qilish ham nutq mexanizmlarida asosiy mazmun kasb etadi. Mashg‘ulot jarayonida nutq madaniyatini rivojlantirishning sifat va samaradorligini oshirishda nutqiy ko‘nikma va malakalarning o‘ziga xos o‘rni muhim hisoblanib, uni rivojlantirishda qator omillarning o‘rni ahamiyatli. Bo‘lajak pedagog va psixologlarning nutq madaniyatini rivojlantirishdagi asosiy omillardan biri ularning leksik birliklarning konseptual izohi, lug‘aviy semantikasini aniq bilgan holda og‘zaki va yozma nutqida to‘g‘ri qo‘llashga hamda so‘z boyligini oshirishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Nutq turlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. “Og‘zaki nutq, odatda, bevosita nutq jarayonini tashkil etadi. Yozma nutqda esa muayyan masofaning bo‘lishi nazarga olinadi. Shunga ko‘ra ularning izchilligi, to‘liq yoki noto‘liqligi ham har xil bo‘lishi tabiiy”[13]. Har bir talabada, avvalo, og‘zaki nutq ravon rivojlanib borgan bo‘lsagina, o‘z fikrini mustaqil bayon qila oladi. Shunday holatda nutq madaniyati izchillikda o‘sib boradi.

Nutq madaniyatini rivojlantirishda matnning mazmuni anglash muhim omillardan biri hisoblanadi. D. Toshxo‘jayeva “Matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilishga o‘rgatishning metodik asoslari” mavzusidagi tadqiqot ishida talabalarni matn mazmunini qayta hikoya qilishga tayyorlashda o‘zbek tili o‘qituvchilari diqqat e’tiborida nimalar bo‘lishligi haqida to‘xtalib o‘tgan. Matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan bayon etishda lug‘at ustida ishlash samara berishini tadqiq qilgan”. Shunga ko‘ra har qanday matn lug‘at turlari ishlashga oid ishlar ehtiyoj sezilishi bu oddiy haqiqatdir.

Sh. Safarovning ta’kidlashicha, matn makropro pozitsiyasini aniqlashda quyidagi qoidalarga amal qilinishini qayd etgan:

1.Tushirib qoldirish, ya’ni makropropozitsiyasini aniqlashga xizmat qilmaydigan propozitsiyalarni e’tiborga olmaslik.

2. Umumlashtirish, ya’ni matnni tashkil etuvchi gaplarda ifodalangan propozitsiyalarning umumiy mazmunidan kelib chiqqan holda makropropozitsiyasini aniqlash.

3. Tuzish, ya’ni propozitsiyalar ketma-ketligini ularning yig‘indisidan kelib chiqqan propozitsiya bilan almashtirish[14].

Psixolingvistik nuqtayi nazardan bo‘lajak pedagog va psixologlarda nutq madaniyatini rivojlantirish va uning konseptual asosini amaliy jihatdan yo‘naltirish hamda mazmuniy persepsiyasi aniqlash, nutqiy faoliyat majmui tariqasida o‘stirish uchun ijodiy, ilmiy tafakkurga tayanish qobiliyatini sinovdan o‘tkazadi.Shu bois, nutq madaniyati uzluksiz dinamik jarayondir. Mazkur dinamik jarayonda badiiy asarni o‘ qish va uni idrok qilish ulardagi munosabat bildirishda sezilarli ahamiyatga egaligi bilan ajralib tu-

[11] Женкин Н.И. Механизми речи.3-е изд.– М.,1991.– С. 132, 370.

[12] Salisheva Z.I. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (rus guruhlarda). Ped. fan. nom. ...dis. – T., 2019. –24 b.

[13] To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – 4 b.

[14] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.– 33 b..

radi.

Shu bilan birga, nutq yaratishga tayyorgarlik ko‘rish ham zaruriy hisoblanadi. “Psixologik nuqtai nazardan, asarni idrok etishda muallif o‘z fikrinigina emas, balki tasavvurini ham aks ettirishi hisobga olinadi. Bolalar asarni aniq, emotsional idrok etishlari uchun, uni ifodali o‘qish lozim. Bunda asarni o‘qishdan avval o‘tkaziladigan tayyorgarlik mashqlari muhim ahamiyatga ega”[15].

Demak, bo‘lajak pedagog va psixologlarda nutq madaniyatini rivojlantirish ularning aniq va tushunarli so‘zlash qobiliyatlarini o‘stiradi. Shu bilan bir qatorda, nutqiy vaziyatlarda o‘zini tutgan holda, vazmin holatda kreativ va ijodiy fikrlash ko‘nikmalari takomillashib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashurova N. Qishloq maktablari 3-4-sinf o‘quvchilarini ekologik tarbiyalash: Ped fan. nomz. diss. –T., 1995.

2. Володина М.Н. Когнитивно-информационная природа термина и терминологическая номинация: Дис. …д-ра филол.наук: – М., 2005.

3. Maxmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati: talabalar uchun darslik/ –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

4. Nosirov U. Nutq madaniyati va davr.(Nutq madaniyatiga oid masalalar). –T.: Fan,1973.

5. Толстой Н.И Язык и культура (некоторые проблемы славянской этнолингвистики) //Русский язык и совроменность. Проблемы и перспективы разивития русистики . – Ч.И. – М., 1991.

6. Teshaboyeva D.M. Ommaviy axborot vositasi tilining nutq madaniyati aspektida tadbiqiy (O‘zROAV misolida): Filol.fan.dok....diss. – T.: O‘zDJTU, 2012.

7. Masharipova U. Innovatsion ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. Ped. fan. nom. diss. –T., 2017.

8. Леванова Е.А., Табакина Л.В. Эмоциональное образование как основа профилактики саморазрушающего поведения // Образование личности. – 2013. – № 1.

9. Turdiqulov E.O., Djurayev R.X. va bosh. Integratsiyalashgan ta’lim nazariyasi va amaliyoti. – T., 2009. – 176 b.

10. Qurbonova X.Q. Ona tili ta’limi mazmunini yangilashning lingvometodik asoslari.Ped.f. nomz. Buxoro, 2005.

14. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1992,

15. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. – T., 1993.

[15] Леонтьев А.Н.К теории развития психики ребенка//Хрестоматия по возрастной психологии. – М.: ИПП,1996. -С.700

Lazizbek XAYITOV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
‘‘Maxsus pedagogika’’ kafedrasi mudiri, PhD
Laylo YULDASHEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti talabasi

ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNING ESHITISH IDROKINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada pedagogik texnologiya asosida o‘qish va bilim olishning nazariy asoslari, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning eshitish idroki rivojlantirish usullari misollar yordamida tushuntirilgan. Eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalar eshitish idrokini rivojlantirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish zarurati interaktiv usullarning samaradorligini, kerakli bilim va ko‘nikmalar egallashda ahamiyatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Pedagogik texnologiyalar, nazariy asos, adabiyotlar tahlili, interaktiv usullar, o‘yin, motiv, suhbat, og‘zaki, daktil, imo-ishora.

В данной статье на примерах объясняются теоретические основы обучения и обучения на основе педагогической технологии, методы развития слухового восприятия слабослышащих детей. Показана необходимость использования передовых педагогических технологий в развитии слухового восприятия детей с нарушениями слуха, эффективность интерактивных методов, их значение в приобретении необходимых знаний и умений.

Ключевые слова. Педагогические технологии, теоретическая база, анализ литературы, интерактивные методы, игра, мотив, беседа, устная речь, дактиль, жест.

This article explains the theoretical foundations of learning and learning based on pedagogical technology, methods of developing hearing perception of hearing impaired children with the help of examples. The need to use advanced pedagogical technologies in the development of auditory perception of children with hearing impairment, the effectiveness of interactive methods, their importance in acquiring the necessary knowledge and skills has been shown.

Key words. Pedagogical technologies, theoretical basis, literature analysis, interactive methods, game, motive, conversation, oral, dactyl, gesture.

Ma’lumki, pedagogik texnologiya – bu butun o‘qitish va bilimlarini o‘zlashtirish jarayonida o‘z oldiga ta’lim shakllarining samaradorligini oshirish vazifasini qo‘yuvchi texnik hamda shaxs zaxiralari va ularning o‘zaro aloqasini hisobga olib, bilimlarini yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli uslubidir. Pedagogik texnologiya o‘qitishga o‘ziga xos bo‘lgan yangicha yondashuv (innovatsiya)dan iborat bo‘lib, o‘yin usullarini ta’lim tizimi, dars jarayonida tatbiq etilishi muhim va samarali natija beradi. Yangi pedagogik texnologiyalarni maxsus maktab ta’lim tizimiga kiritish, tatbiq etish, qiziqarli usullardan foydalanish, o‘zining samarasini bermoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar hozirgi kunda maxsus maktab uchun o‘quv jarayonining zaruriy va asosiy komponentiga aylanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri “shaxs manfaati va ta’lim usti-

vorligi”dir. Demak, O‘zbekiston xalq ta’limi tizimida ta’lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuv masalasi o‘rtaga tashlandi. Bu bilan barcha oliygohlarda, pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyotini o‘rganish va hayotga tadbiq etish ijtimoiy buyurtma sifatida keng pedagogik jamoa oldiga qo‘yildi. Ushbu vazifalar, yangi pedagogik texnologiya asosida o‘quv tarbiya jarayoni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Chunki pedagogik texnologiya ilmiy texnik taraqqiyoti va ta’lim texnologiyasining uzviyligini ta’minlaydi.

“Yangi pedagogik texnologiya” bilimli bo‘lishni, iste’dodni rag‘batlantirishni nazarda tutgan, o‘quv tarbiya jarayonini san’at, mahorat darajasiga kutarishga imkon yaratidagan, ta’lim sohasidagi barcha islohotlarning harakatlantiruvchi kuchidir. Professor N. Avliyoqulovning ta’biricha “Texnologiyani o‘qitish jarayoniga joriy etish pedagogik texnologiyaning vazifalaridan biri hisoblanadi”[1].

Shuni e’tirof etish joizki, “Yangi pedagogik texnologiyalar” termini hali standartlashtirilmagan, uning mohiyati ilmiy jihatdan to‘liq ochib berilmagan mahsuli, taraqqiyot omili va ta’lim islohotlarining kuchi sifatida unga ta’riflar berilgan. Bu ta’riflarda ma’lum darajada pedagogik texnologiyaning mohiyati, mazmuni, uning davr bilan hamnafaslik tomonlari yechimini topa olgan. **“**Pedagogik texnologiya – bu, ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyatini hamda ularning o‘zaro ta’sirini inobatga olib, o‘qitish va bilish, o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo‘llashning tizimli metodidir”. Olim T. Sakamoto fikricha “Pedagogik texnologiya – bu majmuli fikr yuritish metodini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir majmuaga keltirishdir”[2]. Mazkur, yuqoridagi ikki ta’rif, shubxasiz tayanch so‘zlar “tizimli yondashuv” va “majmuali yondashuv” asosiy, pedagogik texnologiya mazmunini anglatadi. Ta’riflardagi boshqa barcha so‘zlar tizim sifatida pedagogik texnologiya mohiyatini tavsiflaydi.

Ta’lim maqsadini aniqlash o‘quv biluv faoliyatini optimallashtirish nuqtayi nazaridan ham pedagogik texnologiyaga ta’riflar berilgan. Shulardan biri I.Y. Lernerning ta’rifiashicha, “Pedagogik texnologiya – o‘quvchilar harakatlarida aks etgan o‘qitish natijalari orqali ishonchi anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi”[3]. Zero, maxsus ta’lim-tarbiyada kam kuch va vaqt sarflab yaxshi natijalarni tezroq qo‘lga kiritish uchun barcha imkoniyatlar – texnik vositalar, o‘qituvchi mahorati, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi iqtidori, salohiyatini inobatga olish shu kunning talabidir.

Eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalar eshitish idrokini rivojlantirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish zarurati interaktiv usullarning samaradorligini, kerakli bilim va ko‘nikmalar egallashda ahamiyatli ekanini dalillamoqda.

Ta’limni motivlash o‘quv faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. U tafakkur faollashishiga, tanqidiy mushoxada qilishga, nutqning rivojlanishiga, u yoki bu vazifani bajarishga qiziqish uyg‘otadi. Zaif eshituvchi bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini faollashtirish, ularning yangi materialni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda maqsadga erishishni ta’minlovchi ta’lim usullari kuchli motivlashtiruvchi omildir.

Hozirgi vaqtda zaif eshituvchi bolalarning nutqini o‘zaro muloqotlar orqali rivojlantirish va eshitish idrokini rivojlantirishda shaxsiy munosabatlarni hisobga olgan holda

[1] O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni 29-dekabr 1997

[2] Fayziyeva U., Nazarova D., Qodirova F. "Surdopedagogika" Malaka oshirish institutlari va pedagogika institutlari – T.: "Sano-standart" 2012.

[3] Fayziyeva U., Nazarova D., Qodirova F. "Surdopedagogika" Malaka oshirish institutlari va pedagogika institutlari – T.: «Sano-standart» 2012.

o‘qituvchi va o‘quvchilar guruhi (o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchi) faoliyat ko‘rsatishlari zarurligi ma’lum. Chunki guruhdagi faoliyatlar o‘quvchi shaxsiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zaro muloqot zaif eshituvchi bolalarda fikr almashish va so‘zlashuv malakasini shakllantirishga imkon yaratadi.

Zaif eshituvchi bolalar shaxsiy sifatlari shakllanishida, nutqiy rivojlanishni va nutqiy muloqotni amalga oshirish eshitish idrokini rivojlantirishda interfaol o‘yinlarning ahamiyati katta. Ma’lumki, rolli o‘yinlar ob’yektiv olamdagi inson amaliy faoliyatini shartli ravishda aks ettirishda, ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rollarga asoslangan o‘yinlar zaif eshituvchi bolalar nutqini faollashtiradi va motivlashtiradi. O‘yin o‘quvchilarning tabiiy va sevimli faoliyatidir. Shuning uchun ta’lim-tarbiya berish, ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilishda mashg‘ulotlarni yosh hususiyatlariga muvofiq o‘yin tariqasida uyushtirishga e’tibor berilmoqda. Haqiqatan, bola har qanday mashg‘ulotga qaraganda, o‘yinga tez intiladi va qiziqadi.

Rollarga asoslangan o‘yin ta’lim usuli sifatida o‘quvchilarni uyushtiradi va bilim imkoniyatlarini kengaytirib, shaxs sifatida shakllantiradi. Rolli o‘yinlar bolaning erkin fikrlashi, suhbatdoshiga nimanidir aytishi, so‘rashi, isbot qilishi, tushuntirishiga imkoniyat yaratadi. Dialogdan farqli ravishda, rolli o‘yinlar nimaga (motiv) va nima uchun (maqsad, sabab) kabi savollarga javob beradi. Shunday qilib, o‘yinda qatnashayotgan o‘quvchilarning asosiy diqqatini suhbat mazmuniga qaratadi. O‘quvchilar o‘yin jarayonida suhbatni boshlash, suhbatdoshi nutqini labidan, imo-ishoralaridan o‘qish, savollar berish, savollarga javob berish kabi malakalarni egallaydilar.

O‘quvchilar o‘yinni aniq maqsadga yo‘naltirgan holda amalga oshirsa, kutilgan natijaga erishishi mumkin.

Rolli o‘yin o‘quvchilar guruhi tomonidan qiziqib qabul qilingan, ularga tanish bo‘lishi kerak. Oldindan har bir obrazni izohlab berish lozim. O‘quvchi o‘yin jarayonida ikkilamchi darajali rollarda ishtirok etishi mumkin, lekin bosh rolda emas. Chunki bu holda rolli o‘yin ta’limning an’anaviy usullaridan biriga aylanib qoladi. Muloqotda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni o‘yin jarayonida emas, balki undan keyin muhokama qilish maqsadga muvofiqdir. Bolalar nutqini rivojlantirish davomida mustaqil fikrlashga, izlanuvchanlikka va umumlashtirishga undovchi usullarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarni yangi material bilan tanishtirishda, oldin o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashda, keyin esa, ularning so‘z boyligini oshirish va tafakkurini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘quvchilarga individual yondoshib, mos topshiriq berish ularning qobiliyatini o‘stirishni ta’minlaydi. O‘quvchilar diqqatini topshiriqning eng muhim va murakkabroq jihatlariga qaratish, ularni belgilariga qiziqishlarini oshirish joiz. Bu ulardagi ijodkorlik xususiyatlarini rivojlantiradi. Ta’kidlash joizki, soddalik, bir xillik, xohishsiz takrorlashlar bolalarni toliqtirib, befarq qilib qo‘yadi. O‘yin davomida «Kim tez bajaradi", deb faolliklarini oshirish ularda qiziqish uyg‘otadi. Shuningdek, topshiriqlarni bajarishda bolalar g‘olib chiqish, boshqalardan orqada qolmaslik, ularni bajarishga qodir ekanini ko‘rsatish hissi bilan harakat qiladilar.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar eshitish idrokini rivojlantirishda , o‘zaro bog‘liq gaplardan matn tuzish malakasini hosil qilish, erkin fikr yuritish, munosabatini bemalol bayon qilishga o‘rgatish uchun R. Djonson, D. Djonson usuli uch-to‘rt o‘quvchining bir vazifani bajarishga asoslangan usuli nihoyatda samaralidir. Bunday bolalar eshituv idrokini rivojlantirish jarayonida quyidagi usul ijobiy natija beradi: “1” dan “10” gacha raqam yozilgan qog‘oz bo‘laklari o‘qituvchi stoliga qo‘yiladi yoki qo‘lida bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilariga omadini sinab ko‘rishini taklif etadi. Qaysi o‘quvchiga necha raqami

chiqsa, shunga sodda gap tuzish kerak. Muhimi, ikki va undan katta raqam chiqqan bo‘lsa, mazmunan o‘zaro bog‘liq erkin mavzuda matn tuzish kerak. O‘quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar tashigan ma’no xususiyatlari ham aniqlanishi zarur.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar eshituv idrokini rivojlantirishda klaster metodi unumli ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish zarur. Klaster metodi umuman bir tushunchaga oid turli tushunchalarni birlashtirib tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Masalan, o‘quvchilarga muayyan tushunchani berib, uning sifatlovchilarini aniqlash topshirilishi mumkin. “O‘zbekiston qanday davlat?” so‘rog‘i ‘‘mustaqil”, “boy”, ‘‘xuquqiy”, “buyuk”, ‘ilg‘or”, “yetakchi”, “demokratik’’), “obod” kabi sifatlarni birlashtiradi. Bu so‘zlar, shuningdek, tuzilishiga ko‘ra ham guruhlashtirilishi mumkin. Yoki o‘quvchilarga tanish bo‘lgan asar, teatr, kino, multfilm qahramonlarini sifatlash topshiriladi. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagi qahramoni Zumradga shunday ta’riflar berish mumkin; «jabridiyda», “bardoshli”, “chidamli”, “kuchli”, “ishonuvchan”, “mehribon”, “go‘zal”, “g‘amxo‘r”. Bu ta’riflarning nechog‘li asosli yoki asossiz ekanligi dars jarayonida baxs munozara vositasida aniqlanadi.

Biror so‘zning har bir tovushi uchun alohida so‘z topish taklif qilinadi. Masalan, “odob”, “oy”, “do‘st”, “oyna”, “bosh’ kabi.

O‘qituvchining topshirig‘i bo‘yicha bir o‘quvchi yig‘ma polotnoga boshqa bolalar esa stolning chap tomoniga olma rasmini, o‘ng tomoniga pomidor yoki meva-sabzavotlarining rasmini qo‘yadidar. Ular shu narsalarga daxldor sifatlarni daktil harflar yordamida og‘zaki talaffuz qiladilar. Masalan, olma - shirin, nordon, cho‘zinchoq, qizil, sariq, dumaloq, pomidor - nordon, qizil, dumaloq, cho‘zinchoq.

So‘ngra meva-sabzavotlarning belgi-xususiyatlarini solishtirib o‘xshash va farqli jihatlarini topadilar.

O‘qituvchi: “Tun” - deganda, o‘quvchilar ko‘zlarini yumadilar.

“Kun” – deganda, ko‘zlarni ochib, javob beradilar. Ma’lum bir narsaning belgisini, xossasini aniqlash vazifasini beradi. Masalan, “Xushbo‘y gul”, “oq gul”, “chiroyli gul”, “qizil gul”, “sun’iy gul” va hokazo.

O‘qituvchi bu ko‘rinishdagi o‘yin jarayonini tashkil etishda o‘z faoliyatini rejaga va qo‘yilgan maqsadga muvofiq olib borishi kerak. U mashg‘ulotga tayyorlanishi, jarayonida oldindan zarur didaktik materiallarni tayyorlashi, o‘yinni uyushtirishni nazorat qilishi, yakunlash, baholash va rag‘batlantirish kabi barcha tadbirlarni belgilab olish lozim. O‘yinlarning ta’limiy resurslarini anglash, bolalarning fizik, psixik va shaxsiy rivojlanishidagi kamchiliklarni diagostika profilaktika va korreksiya qilish maqsadida o‘yinlardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish, maktabgacha ta’lim muassasalarining ta’im jarayonida o‘yinli korreksion rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish asosida yotadi. Quyida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda eshituv idrokini rivojlantirishga oid interfaol o‘yinlardan namuna keltiramiz:

“Diqqat qildim, diqqat qilaman, diqqat qilmoqchiman”strategiyasi

Maqsadi: Eshituv diqqatini rivojlantirishga qaratilgan. Bolalarda eshituv diqqatini bir nuqtaga to‘play olish. Bolalarni tovushga taqlid qilishni, eshitib qaysi o‘yinchoq shunaqa ovoz chiqarishni aniqlashga o‘rgatish.

Qo‘llanishi: Surdopedogog oldindan tayyorlab qo‘ygan o‘yinchoqni bittadan olib uni bolalarga ko‘rsatadi. So‘ngra ovoziga taqlid qiladi va bolalardan bu qaysi hayvon ovozi ekanligini so‘raydi. O‘yinchoqni yashirgan joydan olib ko‘rsatishdan oldin, o‘yinchoqni ovozini chiqaradi va bolalardan:

– Topinglar-chi, hozir bizga qaysi xayvon mehmon bo‘lib keladi? - deb so‘raydi.

So‘ngra surdopedogog bir bolaga boshqa xonaga o‘tib, xona eshigini bir oz ochib qo‘ygan holda birma-bir hayvonlarning ovoziga taqlid qilishini aytadi. Boshqa bolalar esa u qaysi hayvonning ovozi ekanligini topadilar.

O‘yinni 5-6 marta takrorlash mumkin. Bolalarning diqqat bilan eshitishlarini kuzatib turish kerak.

“Izla, top!” strategiyasi

Maqsadi: Bolalarda tovush yo‘nalishini aniqlay olishga o‘rgatish, fazoviy mo‘ljal olishni rivojlantirish. Bolalarda ma’lum ob’yektga eshituv diqqatini to‘play olish malakasini tarbiyalash.

Qo‘llanishi: Bolalar aylana shaklida o‘tirishadi. Surdopedogog o‘yin boshlovchisini tanlaydi. Boshlovchi o‘rtada (doira markazida) turadi. Surdopedogogning signali bilan boshlovchi ko‘zini yumadi. Shu vaqt surdopedogog bolalardan birontasiga qo‘ngiroqni beradi va chalishni taklif etadi. Boshlovchi ko‘zini ochmay, qo‘ngiroq ovozi kelayotgan tomonni qo‘li bilan ko‘rsatadi. Agar bola tovush kelayotgan tomonni to‘g‘rii ko‘rsatsa, surdopedogog “bo‘ldi”, deb aytadi. O‘yin boshlovchisi ko‘zini ochadi, qo‘ngiroqni chalgan bola esa qo‘ng‘iroqni yuqoriga ko‘tarib, uni ko‘rsatadi. Agar o‘yin boshlovchisi adashsa, yana bir marta qo‘ngirok ovozi qayerdan kelayotganini topish taklif etiladi. Keyin boshqa o‘yin boshlovchisi tayinlanadi.

O‘yin 3-5 minut takrorlanadi. O‘yin boshlovchi o‘yin vaqtida ko‘zini ochmasligi kerak, buni kuzatib borish lozim. O‘yin boshlovchi tovush kelayotgan tomonni qo‘li bilan ko‘rsatib shu tomonga burilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy surdopedagogikaga oid adabiyotlar tahlili hamda o‘rganuvchi tadqiqotimiz zaif eshituvchi bolalar ta’lim-tarbiyasini amalga oshirishda, uni takomillashtirish masalasini hal qilishda eshitish idrokini reja asosida shakllantirish jarayoni markaziy o‘rinni egallashi lozimligini yana bir bor isbotladi O‘quvchilar eshitish idrokini ko‘rsatkichlarining qoniqarsiz darajada ekanligi pedagoglarning kasbiy salohiyati darajasini aniqlash hamda eshitish idrokini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyatini ifodaladi. Zaif eshituvchi bolalarning eshitish idrokini rivojlantirish, ularning yangi materialni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda maqsadga erishishni ta’minlovchi pedagogik texnologiyalar kuchli motivlashtiruvchi omildir. Maxsus ta’lim tizimidagi o‘quv-korreksion jarayoni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish eshitishda nuqsoni bo‘lgan va zaif eshituvchi bolalar eshitish idrokini rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Zero, bu metodlar samarali va effektiv metod ekanligi tajribalarda o‘z isbotini topmoqda. Ayni paytda har bir surdopedogog pedagogik texnologiyalarga ijodiy yondashish kerakligini ta’kidlab o‘tish joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 29-dekabr 1997.
2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi zaif eshituvchi bolalarni o‘qitish va tarbiyalash dasturi. Tuzuvchi: Rasulova N.A. – T.: RO‘MM, 1993.
3. Fayziyeva U., Nazarova D., Qodirova F. “Surdopedagogika” Malaka oshirish institutlari va pedagogika institutlari – T.: “Sano-standart” 2012.
4. Эмоциональное развитие дошкольника. Пособие для воспитателей детских садов. Под. ред. А.Д. Кошелевой. – М.: Просвещение, 1985.
5. Шеврыгин Б.В. Комплексная реабилитация детей с нарушением слуха. Методические рекомендатсии. – М.: Санкт-Петербург. 2001. – С. 341.

Shuhrat HAMROYEV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
‘‘Boshlang‘ich ta’lim’’ kafedrasi mudiri, p.f.n.

QORI NIZOMIDDIN BIN MULLO HUSAYNNING “ILMI AXLOQ” ASARINI TARBIYAVIY IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qori Nizomiddin bin Mullo Husaynning “Ilmi axloq” asaridan boshlang‘ich sinflalarda foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada Qori Nizomiddin bin Mullo Husaynning darsliklaridagi ba’zi hikoyalar va ularning sharhlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Qori Nizomiddin bin Mullo Husayn, “Ilmi axloq” ma’rifatparvar, darsligik, tarbiyaviy imkoniyatlar, pedagogik meros, hikoya, axloq.

В этой статье на занятиях рассматривается произведение Кари Низамиддина бин Муллы Хусейна ‘‘Илми Ахлак’’. , в статье рассматриваются некоторые рассказы и документы из учебников Кари Низамуддина бин Муллы Хусейна.

Ключевые слова. Кари Низамиддин бин Мулла Хусейн, просветитель “Илми ахлак”, учебник, образовательный опыт, педагогическое наследие, рассказ, этика.

In this article, the possibilities of using Qari Nizamiddin bin Mulla Husayn’s work “Ilmi Akhlaq” in primary classes are highlighted. The article also mentions some of the stories from the textbooks of Qari Nizamiddin bin Mulla Husain and their comments.

Key words. Qari Nizamiddin bin Mulla Husayn, “Ethical Science” enlightener, textbook, educational opportunities, pedagogical heritage, story, ethics.

O‘zbekiston maktablarini rivojlantirishda bu yerda mavjud bo‘lgan ta’lim tizimi, tarbiya nazariyasi haqidagi boy pedagogik merosni ilmiy jihatdan xolisona o‘rganish va ulardagi ilg’or tomonlarni ajratib, hozirgi zamon maktablarida qo‘llash shak-shubhasiz o‘zining ijobiy natijalarini beradi. Ayniqsa Sharqdagi, xususan Markaziy Osiyodagi xalqlarning avlodlari, buyuk olimu fuzalolari, shoiru tasavvuf arboblari, buyuk sarkardayu jahongirlari ma’naviyatga, axloq-odobga, komil inson tarbiyasiga katta e’tibor berganlar. Markaziy Osiyo xalqlarining buyuk bobokalonlari boy pedagogik meros qoldirganlar.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida chor Rossiyasining mustamlakasi, chekka o‘lka hisoblangan Turkistonda ma’rifatparvarlar harakati vujudga keldi. Ularni jadidlar (yangilik tarafdorlari) deb atadilar. Bu harakatning yirik namoyandalari: Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Saidahmad Siddiqiy, Saidrasul Aziziy, Qori Nizomiddin bin Mullo Husayn, Abduqodir Shakuriy, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Abdulla Avloniy va boshqalar edilar. Ular musulmon maktablarini isloh qilib, yangi usulda maktablar ochib, davr talabiga javob bera oladigan darsliklar yozdilar. Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval”, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Kitob ul aftol” (“Bolalar uchun kitob’’), “Qisqacha umumiy jo‘g’rofiya”; Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni”, “Turkiy guliston yoxud ahloq”, Qori Nizomiddin bin Mullo Husaynning “Ilmi axloq’’ kabi darsliklari xalq ommasi o‘rtasida shuhrat topdi va o‘sha davrdagi Turkiston

maktablarida keng foydalanildi. Ayniqsa, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yohud ahloq” asari XX asr boshlarida yoshlarga axloqiy tarbiya berishda muhim manbalardan biri bo‘lib xizmat qildi.

Birinchi davr – asrimiz boshlaridan 30-yillarning ikkinchi yarmigacha. Bu davrni ham shartli ravishda 3 ga bo‘lish mumkin:

a) 1900-1917-yillar. Bu davrda jadid ma’rifatparvarlar o‘zbek pedagogikasi va metodikasi tarixida muhim o‘ringa ega bo‘lgan yuzdan ortiq pedagogik, ayniqsa, axloqiy-ta’limiy asarlar yozdilar. Bu asarlar o‘sha davrdagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda muhim qo‘llanma va darsliklar bo‘lib xizmat qildi. Turkiston kelajagi bo‘lgan yosh avlodni axloq-odobli qilib tarbiyalashda dasturilamal bo‘lib xizmat qildi.

b) 1917-1930-yillar. Bu davrda yangi usuldagi maktablar tugatildi. Bu maktablar uchun yozilgan ta’limiy-axloqiy darsliklar nashr qilinmay qoldi. Shunga qaramasdan Munavvarqori Abdurashidxonov va Shokirjon Rahimiylar o‘zbek tili va adabiyoti hamda alifbe darsliklarini yozdilar. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, aksariyat yangi usul maktabi tarafdorlari 1917 yilgi Oktabr voqealari xalqqa ozodlik va erk beradi, xalqni ilmli, bilimli qilishga imkoniyat yaratadi, deb o‘ylagan orzulari chilparchin bo‘lganligini ko‘p o‘tmay angladilar.

v) 1930-1937-yillar. O‘zbekiston uchun g‘oyat og‘ir va ayanchli yillar bo‘lib, pedagogika tarixi sahifalarida ham yozib qoldirilishi shubhasizdir. Bu davrda aksariyat yangi usul maktabi tarafdorlari qatag‘on qilindi. Ularning adabiy, badiiy-pedagogik merosi qattiq tanqid ostiga olindi. Maktab va maorif tizimida ulardan foydalanishga, darsliklarga kiritishga yo‘l qo‘yilmadi. Bunga amal qilmagan o‘qituvchilarga qattiq jazo choralari ko‘rildi.

Ikkinchi davr – 1937-1991-yillarni o‘z ichiga olib, ta’lim-tarbiya jarayoni butunlay kommunistik mafkura tazyiqi ostiga olindi. Ta’lim-tarbiyani ruslashtirishga asosiy e’tibor berildi. Bu davrda yangi usul maktabi tarafdorlaridan H.H. Niyoziy, Sadriddin Ayniy va Abdulla Avloniylarning pedagogik faoliyati va ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari bir tomonlama o‘rganildi. Lekin yangi usul maktabi tarafdorlarining pedagogik, ayniqsa, axloqiy tarbiyaga doir merosidan boshlang‘ich sinflarda foydalanish imkoniyatlari, yo‘l, usul va shakllari ko‘rsatib berilmadi. Darsliklarda, chunonchi, boshlang‘ich sinf darsliklarida ulardan ijodiy ravishda foydalanilmadi.

Uchinchi davr – 1991-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga olib, respublikamizning mustaqillikka erishishi ko‘plab sohalarda bo‘lgani kabi uzluksiz ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlarni amalga oshirish davri bo‘ldi. Bu davrni shartli ravishda, yangi usul maktabi tarafdorlarining pedagogik merosidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda foydalanilishiga qarab ikki bosqichga bo‘lish mumkin:

I bosqich – 1991-1996-yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda ma’rifatparvarlarning asarlari, dastlab oliy o‘quv yurtlari, keyinroq esa maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar, boshlang‘ich sinflar uchun chiqarilgan o‘quv dasturlari va darsliklarga, o‘quv qo‘llanmalarga kiritila boshlandi.

II bosqich – 1991-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, bu davrda lotin alifbosi asosida darsliklar yaratildi va bu darsliklarda yangi usul maktabi tarafdorlarining pedagogik asarlaridan ma’lum miqdorda foydalanilanmoqda.

Tahlil va natijalar

Ma’naviy jihatdan rivojlangan, yetuk fuqarolargina buyuk davlat qura oladi. Ma’naviyatning asosini esa axloqni tashkil qiladi. Hozirgi yoshlarga, maktab o‘quvchilariga

axloqiy tarbiya berish o‘qituvchilarga, ayniqsa, boshlang’ich sinf o‘qituvchilariga katta mas’uliyat yuklaydi. Demak, yoshlarga axloqiy tarbiya berish o‘qituvchilarimiz oldidagi dolzarb vazifalaridan biridir.

Bu vazifalarni amalga oshirishda Qori Nizomiddin bin Mullo Husaynning hayoti, ma’rifatparvarlik faoliyati, darslik kitoblari muhim vosita bo‘la oladi.

Qori Nizomiddin bin Mullo Husaynning “Ilmi axloq” (“Axloq ilmi”) asari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, biz bu asarning 1916-yil Toshkentdagi G’ulom Hasan Orifjonov litografiyasida nashr qilingan birinchi juz’ini O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining **19062- raqamidagi nusxasini** olib o‘rgandik. Asar arab yozuvi asosidagi eski o‘zbek yozuvida bo‘lib, darslikning birinchi betida undan ko‘zda tutilgan maqsad ko‘rsatib o‘tilgan “Maktabi ibtidoiyaning ikkinchi-uchinchi sinf shogirdlarina maxsus ochiq tilda Turkiston shevasinda tartib etilmish axloq kitobidur”.

“Ilmi axloq” asari axloq, xulq, yaxshi xulq, yomon xulq kabi bo‘limlarga bo‘linib, yaxshi xulqlarga: poklik, aql qadrini bilmak, Olloh taologa ibodat qilmak, ota-onani izzatu hurmat qilmak, to‘g‘ri so‘zlamak, muhtojlarga yordam bermak, sahovat, yumshoqlik, ochiqyuzlik, tavoze’, shafqat, muruvvat kabilarni; yomon xulqlarga esa, jaholat, yalqovlik, qo‘rqoqlik, taassub, yolg’onchilik, hiylagarlik, hasad, isrof qilmak, munofiqlik, zulm qilmak, g’azablik bo‘lmaklik kiritilgan.

Biz boshlang’ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalash imkoniyatlarini ko‘rsatib berish maqsadida “Ilmi axloq” asaridan quyidagilarni ajratib oldik.

1. Асарда **rostgo‘ylik** haqidagi hikoyalar muhim o‘ringa ega, chunonchi:

Sadoqat

Sadoqat, to‘g’ri so‘zlik demakdur, so‘ziga yolg’on aralashadurg’on kishilarni Olloh taolo do‘st tutmas, rost so‘zli kishilarni har kim suyar. Va unga har kim inonar, har bir narsaga muhtoj bo‘lsa, har bir kishi anga ko‘mak va yordam berur hech bir vaqt xor bo‘lmas. Qadrliyu qiymatli kishi bo‘lur.

2. Boshlang‘ich sinflarda foydalanish imkoniyatlari keng bo‘lgan ilmu ma’rifatga da’vat qiluvchi hikoyalar ko‘pchilikni tashkil qiladi, shuladan biri – “Jahl”, deb nomlangan.

Jahl

Jahl ma’nosi nodonlikdur. Ey, vatan bolalari! Odamning qiymatini darajasini yo‘qotgan, ham turmush rohatsizliklarga qoladurgan, boshqa millatlar orasinda e’tiborsiz qilgan narsa jaholatdur. Jahl ilmning dushmanidur. Shul sababli johil, bilimsiz xalqlar doimo o‘zlari bilmagan har bir ishning dushmanlaridur. Bir millatning yo‘q bo‘lmog’iga, faqir, muhtoj, xoru-zolil (tuban) bo‘lmog’iga jaholatdan boshqa bir narsa sabab emasdur. Chunonchi, bir millat bir necha million kishidan murakkab bo‘lsa ham jaholat balosiga mubtalo bo‘lsa, yaqinlarinda bo‘lgan kichkinagina bir millat, bir qavmga har bir ishda to‘g’ri bo‘laolmaslar. Buni tarix o‘qugan kishilar yaxshi bilurlar. Bir millat bolalarining eru qizlari yoshlikdan maktablarga, dorilfununlarga borub, tirishib o‘qumak va tarbiya qiluvchi ota-onalari himmatu g’ayrat ila o‘qitmaklari ila bo‘lur.

3. “Ilmi axloq” asarida **ota-onani hurmat qilish** haqidagi hikoyalar ham ko‘p bo‘lib, boshlang‘ich sinflarda foydalanish imkoniyatlari kengligi bilan ajralib turadi.

Izzat va hurmat

Izzatu hurmat deb o‘zidan kattalarni siylamakni aytilur. Har kimga ochiq yuzli, shirin so‘zli bo‘lub, chin ulamolarni dinimizga yordam berguvchilarni, maktab, madrasa va masjid soluvchilarni yetimlarning holina rahm qilub otasi o‘rniga ota bo‘lguvchilar-

ni, dini Islomning taraqqiyosina rivoj berguvchilarni izzatu hurmat qilingiz. Chunki Siz o‘zingizdan ulug’larni siylasangiz, Sizni ham o‘zingizdan kichiklar siylab, izzatu hurmat qilurlar. Qaytarlik dunyodir. Agar bir bola bir kun katta bo‘lib, ota bo‘lsa, bolasi ham siylamas.

4. “Ilmi axloq”dagi **sahovat va shafqat** haqidagi hikoyatlardan boshlang‘ich sinflarning dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida foydalanish imkoniyatlar ko‘pligi bilan ajralib turadi. Shunday hikoyalardan biri “Sahovat” va “Shavqat” deb nomlangan.

Sahovat

Sahovat molidan yetim bechoralarga bermakdur. Saxiy kishi Xudoyi taoloning suyukli bandasidur. Sahovatning ziddi baxillikdur. Baxillik xulqlarning eng yomonidur. Baxilning qo‘lida bo‘lgan mollaridan o‘zi ham foydasiz qolur. Boshqalarga foydasi bo‘lmas. Baxilning moli merosdir. O‘zidan so‘ng o‘rinsiz yerlarga sarf bo‘lub, tezlik ila tamom bo‘lur. Baxil kishini kitob ortgan hayvonga o‘xshatubdurlar. Ustidagi yukidan o‘ziga foyda yo‘qdur. Sahovat yolg’uz molda emas, ilmda ham bordur. Zeroki, ilmlik kishilar ilmsiz kishilarga qo‘lalridan kelgancha bildurmak ayni sahovatdur.

Shafqat

Shafqat qarindoshlarning zaiflariga, ojizu natovonlarga yordam va marhamat etmakdir. Shafqatli kishi kibrli bo‘lmas. O‘z foydasidan avval qarindoshlarini foydasini kuzatar. Ota-onasiz qolmish yetimu bechoralarga ota bo‘lub ilm o‘qimakka berub, doimo alarning ahvollaridan xabardor bo‘lub tursa, jaholatdan qutqarur.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanib, jahon hamjamiyati tomon borayotgan hozirgi davrda yoshlarni bilimli, ilmli, yuksak ma’naviyatli va axloqli qilib tarbiyalash dolzarb muammo hisoblanadi. O‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashda jadid ma’rifatparvarlarining chunonchi, Qori Nizomiddin bin Mullo Husaynning darsliklari, pedagogik asarlarini o‘rganish juda muhim vazifalardan biridir. Respublikamizning mustaqillikka erishishi ta’lim tizimini isloh qilish, taraqqiyotning jahon andozalari talablariga javob beradigan darajaga yetkazishda Qori Nizomiddin bin Mullo Husaynning hayoti, faoliyati va pedagogik asarlari muhim ahamiyatgaega. Qori Nizomiddin bin Mullo Husaynning “Ilmi axloq” darsligidagi badiiy matnlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari keng. Ma’rifatparvar yozgan darsliklarining aksariyat qismini ta’limiy-axloqiy asarlar tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri XX asr boshlarida yaratilgan darsliklardagi matnlar umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhda yozilgan; aksariyat darsliklar Sharq va Yevropa pedagoglarining ilg‘or g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtirgan.

Qori Nizomiddin bin Mullo Husaynning asarlarida vatan, vatanparvarlik; ilmu ma’rifatga da’vat qilish orqali o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalash; ustoz, ota-ona va qavmu qarindoshlarga hurmat; saxiylik va sahovatpeshalik, do‘stlik, o‘rtoqlik, mehr-shafqat va marhamat kabi axloqiy sifatlarning mazmuni, ta’rif-tavsiflari berilgan; ular boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda keng imkoniyatlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qori Nizomiddin bin Mullo Husayn. Ilmi axloq. – T.: G‘ulom Hasan Orifjonov litografiyasi, 1913. – 54 b.

2. Hamroyev Sh.E. Boshlang‘ich sinflarda jadidlar merosidan foydalanish. Monografiya. Qarshi: ”Fan va ta’lim”, 2021, – 216 b.

3. Hamroyev Sh.E., Karimov B.P., Muhammadiyev Sh.M. “Jadidlarning darsliklaridagi badiiy matnlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalash” Monografiya. Qarshi: “Fan va ta’lim”, 2021, – 186 b.

Гулбахар Абылова,
доцент, доктор педагогических наук,
Нукусского филиала Ташкентского университета информационных технологий имени ал-Хорезмий

ЦИФРОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК УСЛОВИЕ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ И ПРАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ

Annotatsiya

Maqolada raqamli ta'lim sharoitida talabalarning amaliy va nazariy tayyorgarligi masalalari ko'rib chiqilgan. Raqamli texnologiyalar orqali kasbiy va axborot kompetensiyasini shakllantirish, ularni o'quv jarayonida qo'llash zaruriyati asoslanadi.

Kalit so'zlar. Raqamli texnologiyalar, ta'lim, o'qitish, pedagogika, kadrlar tayyorlash.

В статье рассматриваются вопросы практической и теоретической подготовки студентов в условиях цифрового образования. Формирование профессиональной и информационной компетенции посредством цифровых технологий. Обосновывается необходимость их применения в процессе обучения.

Ключевые слова. Цифровые технологий, образование, подготовка, педагогика, обучение.

The article deals with the issues of practical and theoretical training of students in the context of digital education. Formation of professional and informational competence through digital technologies. The necessity of their application in the learning process is substantiated.

Key words. Digital technologies, education, training, pedagogy, training.

На сегодняшний день в Республике Узбекистан, как и в других развитых стран мира, особое внимание уделяется совершенствованию системы образования, внедрению и применению цифровых технологий в образовательный процесс. Процесс всесторонней информатизации, совершенствование материально-технической базы, обеспечение интернет технологиями, электронными средствами связи характеризует современный этап развития цивилизованного общества.

Важность этой проблемы заключается, помимо всего, в ее принципиальной новизне. Возникшая одновременно с появлением компьютера в последние двадцать-тридцать года, она, тем не менее, опираясь на опыт прошлых веков и тысячелетий, в соответствии с принципами классической педагогики, вынуждена развиваться только ‘‘изнутри’’, создавая свой научный потенциал одновременно во всех значимых для нее областях науки – философии, психологии, педагогике и методике. Сложившееся положение дел, учитывая повышенную практическую необходимость в ее реализации, придает проблеме цифровизации образования дополнительную актуальность, которая и определяет ее первоочередность в группе стоящих перед современной педагогикой задач. Собранная в целостное единство информатизация педагогических вузов ставит перед собой дальнейший вектор движения как развитие интеллектуальной составляющей имеющегося по-

тенциала науки, оптимизации содержания процесса обучения, использования цифровых средств и методов обучения.

Музыка, созданная компьютером ‘‘Компьютерная музыка’’ от английского означает ‘‘Computer music’’, изначально применялся в терминологии узких специалистов, профессионалов, которые обозначали инженерные разработки над синтезом цифровой музыки, а также обработку звуковых сигналов (толковый словарь Дмитриева).

Цифровые технологии в образовании — это способ организации современной образовательной среды, основанный на цифровых технологиях.

Цифровое обучение — в первую очередь учебная практика, которая в итоге помогает и дает ощутимые результаты в обучении студентов. Также цифровое обучение рассматривает использование широкого спектра информационных и цифровых технологий, которые способствуют развитию многообразий образовательных стратегий.

Цифровой формат – это тип закодированной информации в компьютере, использующие дискретные состояния. Цифровые сигналы существуют как порядок цифр во времени. Принято применять две цифры кодирования – это 0 и 1. Термин ‘‘цифровой’’ также означает способ хранения информации в цифровом двоичном битовом формате. К примеру, цифровая музыка – это значит, музыка закодирована и сохранена в цифровой форме, т.е. звуки описываются битами.

